O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

D. TOJIBOEVA

IQTISODIYOT NAZARIYASI FANIDAN MASALA VA MASHQLAR

1-qism

TOShKENT–2007

D. Tojiboeva. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan masala-mashqlar.
–T.: Toshkent Moliya instituti, 2007.

Mazkur to'plam iqtisodiyotni nazariy jihatdan o'rganishda jahon tajribasidan kelib chiqib, iqtisodiy kategoriyalar, bozor iqtisodiyotining qonuniyatlari, amal qilish mexanizmi, iqtiso-diy jarayonlar dinamikasini tushunishni engillashtirish, fan-ning mazmunini chuqurroq tushunishga yordam berish maqsadida tayyorlangan. Masala-mashqlarni tuzishda iqtisodiyotdagi asosiy masalalar, muammolar etakchi nazariy maktablar, yo'nalishlar va ularning namoyandalari fikrlari, kontseptsiyalari hisobga olin-gan.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining dasturda o'rganish ko'zda tu-tilgan barcha mavzulari bo'yicha masala-mashq, o'ziga xos mashq sifatida testlar, topshiriq sifatidagi tarqatma materiallardan namunalar javoblari bilan berilgan.

Qo'llanma oliy o'quv yurtining barcha yo'nalishdagi bakalavrlari va iqtisodiyot nazariyasi fanidan dars beruvchi o'qituvchilarga mo'ljallangan. Shu bilan birga. Undan magistratura talabalari, aspirantlar va hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasining muammo-larini o'rganishga qiziquvchi kitobxonlar foydalanishi mumkin.

Qo'llanma Toshkent Moliya instituti qoshidagi oliy o'quv yurt-lararo Kengashda muhokama qilinib, nashr etishga tavsiya etilgan (15 iyul 2006 yil, 7–sonli bayonnoma).

Taqrizchilar: i.f.d., prof. Sh. Shodmonov

i.f.n., prof. E. Egamov,

i.f.n., prof.A. Islomov,

i.f.n., dots. U. Ґofurov.

Toshkent Moliya instituti, 2007

Kirish

Bozor iqtisodiyoti har bir kishidan qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, iqtisodiy mushohada yuritish va shu asosda xulosa chiqarishni o'rganishni talab qiladi. Iqtisodchi kadrlar esa voqeliklarni, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish bilan birga, ulardan xulosa chiqarish bilan chegaralanmay, iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tanlovning eng optimal variantlarini amalga oshirish, buning uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish, bilganlarini joriy qilish layoqatiga ega bo'lishni talab qiladi.

Fanni o'rganishda talabalarni tahliliy fikrlashga o'rgatish - eng muhim masala hisoblanadi. Tahliliy fikr yurita oladigan odam mustaqil fikrlaydi. Mustaqil fikrlaydiganlar doimo izlanadi, ularnipg fikri-o'ylari, mehnati tufayli jamiyatda fan-texnika taraqqiyoti yuz beradi.

Demak, talabalarning mustaqil fikr yuritishi, hayotda yuz beradigan turli muqobil variantlar ichidan eng maqbulini tanlashni o'rganishi hozirgi zamon talabidir.

Iqtisodiy fanlarning boshqa fanlardan ajralib turadigan tomoni ham shundaki, u faktlar, ma'lumotlar, raqamlar bilan ish ko'radi. Iqtisodchidan ana shu faktlar, raqamlar, ma'lumotlar bilan ishlay bilish, qo'ygan maqsadiga ko'ra ular asosida hisob-kitob, matematik amallar, kuzatishlarni amalga oshirish, ularning dinamikasi-o'zgarishi asosida xulosalar chiqarish, qaror qabul qilish ko'nikmasiga ega bo'lish talab qilinadi.

Bu o'z navbatida iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganish, imkon qadar real voqelikka yaqin tajribalar o'tkazish, nazariy qonun-qoidalarni sinab ko'rishni zarur qilib qo'yadi. Bu jihatdan iqtisodiy fanlarni o'rganishda masala va mashqlardan foydala-nishga teng keladigani yo'q.

Iqtisodiy fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni o'rganishda markaziy o'rinni masala, mashq echish egallaydi. Saba-bi:

Birinchidan, masala, mashq echish fanni o'rganishning bosh maqsadi - olingan bilimni amaliyotda qo'llash imkonini ta'min-laydi.

Ikkinchidan, masala, mashq echish orqali talabalarning bilim olishdagi faolligi ortadi.

Uchinchidan, masala fikrlashni o'rgatadi.

Shuning uchun ham masala so'ziga faqat hisob-kitob asosida topshiriqni bajarish, javobini aniqlash emas, balki fikr yuritish ob'ekti sifatida qaralishi bejiz emas. Aytaylik, echimini kutayotgan masalalar, hal qilinishi zarur masalalar va hokazo.

Mashqlar mushohada qilish, xulosa chiqarishga o'rgatish bilan birga vaqtni tejash, ayrim masalalarda ikkilanib turgan talabalarni to'g'ri javob topishga o'rgatadi.

Ayrim fanlar borki, ularni masala-mashq echmay o'rganib bo'lmaydi. Shunday deganda, odatda biz tezda matematika, fizika, ximiya kabi fanlarni ko'z oldimizga keltiramiz. Iqtisodiy fanlarni ham bu jihatdan ana shu fanlar qatoriga kiritish mumkin.

Masala va mashqlar hisob-kitob qilishni taqozo qiladi. Bu esa o'quvchi, talabalarda aniq miqdorlar, raqamlar yordamida qonun va kategoriyalarni tushunishni osonlashtiradi.

Chunki iqtisodiyotni nazariy jihatdan o'rganishda ko'pincha ilmiy abstraktsiyadan foydalaniladi. Ko'pchilik o'quvchi-talabalar ilmiy abstrakpiya metodini tezda tushunaverishmaydi. Matematik ifodalar orqali iqtisodiy hodisalarni o'zaro bog'lanishini tushunish esa oson. Shuni hisobga olib, iqtisodiyot nazariyasi fanidan masala va mashqlar tayyorlandi. Unda fanning har bir mavzusi bo'yicha masala, mashqlar, o'ziga xos mashq sifatida testlar javobi bilan berilgan.

Masala-mashqlarni mustaqil echar ekansiz, unga sarflagan intellektual energiyangiz va vaqtingizga achinmaysiz. Chunki ular iqtisodiyotni chuqur o'rganishga katta yordam beradi.

Masala-mashqlarning javobini qidirishga oshiqmang. Masala-mashqni o'zi mustaqil echib, uning javobi to'g'riligi tufayli intellektual jihatdan qoniqish hosil qilish, zavqlanish nashidasi o'zgacha bo'ladi. Bunday tuyg'uni totib ko'rishdan o'zin-gizni bebahra qoldirmang.

Bunday to'plam iqtisodiyot nazariyasi fanidan o'zbek tilida birinchi marta nashr qilinmoqda. Muallif u haqda bildirilgan maslahatlar va fikr-mulohazalarni kutadi va bajonidil qabul qiladi.

I BO'LIM. IQTISODIYOTNING UMUMIY ASOSLARI

1-mavzu. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti va tahlil uslubi

Asosiy tushunchalar

1. Normativ iqtisodiyot
2. Pozitiv iqtisodiyot
3. Mikroiqtisodiyot
4. Makroiqtisodiyot
5. Iqtisodiy qonunlar
6. Iqtisodiy kategoriya
7. Gipoteza
8. Ilmiy abstraktsiya
9. Induktsiya
10. Deduktsiya
11. Funktsional tahlil
12. Iqtisodiy fikrlash

a) Xarajatlar va olinadigan natijani taqqoslash asosida ratsional qaror qabul qilish;

b) Iqtisodiy jarayonlarni baholab, iqtisodiyotda qanday tad-birlar belgilash yoki qanday iktisodiy siyosat yuritish kerak-ligini, iqtisodiy rivojlanish maqsadini ko'rsatishga asoslangan yo'nalish;

v) Ishonchli nazariya bo'lishi uchun tajribada sinash va nazariy jixatdan asoslab berish lozim bo'lgan, muayyan hodisani yuz beri-shi sabablarini izohlash uchun ilgari surilgan ilmiy taxmin;

g) Iqtisodiy hodisa jarayonlar o'rtasidagi muhim bog'lanish, iqtisodiy zaruriyatni taqozo etuvchi, sabab-oqibat, sifat va miqdor bog'lanishlari bo'lib, individ va institutlarni xatti-harakati, tanlash sabablari va motivlarini umumlashtirgan holda xarakterlab berilishidir;

d) Nazariy iqtisodiyotning birinchidan, iqtisodiy alohida-lashgan birliklari (firma, korxona, uy xo'jaligi), ikkinchidan alohida olingan bozor, aniq mahsulot narxlari, sotuvchi va xari-dorlarni samarali tanlov tamoyillarini shakllanishini o'rga-nuvchi bo'lim;

e) Faktlar, dalillar yordamida tadqiqot olib borib, ular tah-lili asosida iqtisodiy faoliyat jarayonida o'zlarini qanday tutishlari, iste'mol tanlovini ilmiy asoslashga harakat qiladi;

yo) Nazariy iqtisodiyotning iqtisodiyotga bir butun tizim sifatida yondashib, iqtisodiy siyosatning maqsadini shakllanti-radi, uni realizatsiya qilish uchun zarur chora-tadbirlar belgi-lashni tadqiq qiluvchi bo'limi;

j) Jamiyat iqtisodiy hayotining eng muhim tomonlarini ifodalovchi iqtisodiy voqelikning ilmiy ifodasidir;

z) Iqtisodiy hodisalarning eng barqaror bog'lanishini olib, masalaning mohiyatiga putur etkazmaydigan ikkinchi darajali faktlarni ajratib olib, ularni yo'q deb faraz qilinadi yoki o'zgarmaydi deb olib tadqiq etilishi;

i) Empirik bilimdan abstraktsiyaga o'tish, xususiy xulosadan umumiy xulosa chiqarish metodi;

y) Funktsional bog'lanish, ya'ni bir miqdorning o'zgarishiga qarab boshqa miqdorning o'zgarishi o'rtasidagi bog'lanish asosida iqtisodiyotni tahlil etish;

k) Nazariyadan amaliyotga, umumiy xulosadan xususiy xulosa chiqarishga, ilgari surilgan gipotezani real iqtisodiy faktlar yordamida tekshirishga, tadqiq qilishga asoslangan metod.

Masala va mashqlar.

1. Iqtisodiyot nazariyasi fanini nisbatan eng to'liq va sipo qilib berilgan ta'rifini tanlang:

a) iqtisodiyot nazariyasi ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonida yuz beradigan munosabatlarni o'rganadi.

b) iqtisodiyot nazariyasi o'zgaruvchi miqdorlarni, ularni mil-liy iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi.

v) resurslarni cheklanganligi va ehtiyojlarni yuksalib bori-shi sharoitida samarali xo'jalik yuritish qonunlari va iqtisodiy faoliyat muammolarini o'rganadi.

g) iqtisodiyot nazariyasi ishlab chiqarish va iste'mol munosa- batlarini o'rganadi.

2. Hind rivoyatlaridan birida Budda va uning shogirdi o'rtasi-dagi quyidagi suhbat shunday hikoya qilinadi:

Bir kuni Budda shogirdidan so'rabdi:

-Yo'lga qarachi, kim kelayapti ekan?

- Yosh va go'zal bir ayol, - debdi shogirdi.
- Aniqrog'i? - debdi Budda.
- Yosh ayol.
- Aniqrog'i?
- Ayol.
- Aniqrog'i?
- Odam.
- Aniqrog'i?
- Skelet.

Diqqat qiling. Sizningcha, shogirdning qaysi javobida abst-raktsiya metodining bilish qadr-qimmati yo'qoldi? Nima sabab-dan?

3. Tilshunos olim, yozuvchi Lev Uspenskiy o'zining «So'z xaqida so'z» kitobida Avstraliya aborigenlari tilida «Tepalikda daraxt o'sib turibdi. Uning shoxida qush o'tiribdi, deb aytilmaydi. Abo-rigen tilida albatta, «Tepalikda kauri o'sib turibdi. Uni shoxida kakadu o'tiribdi» yoki «Evkalipt o'sib turibdi, uni tagida emu yuribdi», deyiladi. Ya'ni albatta o'simlik va hayvonning nomi aytiladi, deb yozadi.

Sizningcha, nima sababdan Avstraliyalik aborigenlar tilida «daraxt», «qush» va hokazo tushunchalari yo'q. U inson tafakkuri rivojining ma'lum bir bosqichi bilan bog'liq deb ayta olasizmi? O'zbek tilidan shunday misollar keltira olasizmi?

4. Quyidagi tushunchalarni diqqat bilan o'qib chiqing. Ulardan qaysi biri guruhga taalluqli bo'lmagan tushunchalar, aniqlang. Ularni ro'yxatdan chiqaring. Sababini izohlang.

Tushunchalar: Ilmiy abstraktsiya, induktsiya, deduktsiya, tajriba o'tkazish, tarixiylik, mantiqiylik, iqtisodiy-matematik model-lashtirish.

5. Taniqli klassik yozuvchi A. Qodiriyning o'g'li H. Qodiriy «Otam haqida» kitobida A. Qodiriy ko'rsatgan quyidagi misolni keltiradi: «Qarg'a o'ladi. Qarg'a qushlar turkumiga kiradi. Demak, qushlarning hammasi o'ladi».

Aksincha, «Qushlar o'ladi. Qarg'a qushlar turkumiga kiradi. Demak qarg'a ham o'ladi».[1]

Atoqli yozuvchimiz yuqoridagi parchada shunday sodda misol bilan qaysi metodni tushuntirib bergan? Uni iqtisodiyotga qiyoslab tushuntirib beraolasizmi?

Quyidagi bildirilgan fikrlar to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlang.

T/N

1. Nazariya amaliyotda qo'llanishi uchun har bir aniq holatda, voqe'likda o'z isbotini topishi kerak.
2. Iqtisodiyot nazariyasi aniq fan emas, lekin u statistik ma'lumot tahlilidan foydalanib, juda ko'p aniq muammolarni tadqiq etadi.
3. Ma'lum bir sharoitda ijobiy natija bergan iqtisodiy siyosat, boshqa bir sharoitda xato bo'lishi mumkin.
4. Agar iqtisodchilar iqtisodiyotning asosiy tamoyillarini bir xil sharhlasalar, demak, ular albatta vaziyatni baholashda hamfikr bo'lishadi.
5. Agar gipoteza praktikada tasdiqlansa, u holda foydala-nilayotgan nazariy asos bo'la oladigan xulosa doimo to'g'ri.
6. Iqtisodiy qonunlar tabiat qonunlariga o'xshash ob'ektiv xarakterga ega. Demak, iqtisodiy qonunlarni tabiat qonunlari bilan bir xil amal qiladi, deb ayta olamiz.
7. Iqtisodiyot nazariyasi ijtimoiy fan bo'lib, barcha iqtiso-diy fanlar uchun fundamental asos bo'lib xizmat qiladi.
8. Iqtisodiyotda avval dalillar, ma'lumotlar to'planadi, ular o'rganiladi. So'ngra xususiy va umumiy xulosalar chiqariladi.

Testlar

1. Iqtisodiy nazariya fan sifatida:
   a) kishilik jamiyati vujudga kelgandan boshlab;
   b) XVII-XVIII asrlar orasida;
   v) XIX asrda;
   g) A.Smitning «Xalqlar boyligi» kitobi chop etilishi bilan shakllandi.

[1] H. Qodiriy. Otam haqida. Toshkent: Ǵ. Ǵulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985, 50-bet

2. Quyidagilardan sanab o'tilganlardan iqtisodiyotni nazariy jihatdan o'rganishda amaliy ahamiyatga ega emas:

a) har bir kishi iqtisodiy jarayonlar ta'sirida bo'ladi va unga o'zi ham ta'sir ko'rsatadi;
b) har bir kishi o'z bilimi va tajribasidan u yoki bu faoliyatda foydalanib pul ishlab topadi. Iqtisodiy nazariya odamlarni yashay bilishga o'rgatadi;
v) har bir kishi siyosiy muammolar bilan to'qnashadi, ular-ning ko'pi esa iqtisodiyot bilan bog'liq;
g) har bir kishi iqtisodiyotning qonunlarini qanday amal qilishini bilsa, o'z iqtisodiy muammolarini to'g'ri echish-ga qodir bo'ladi.

3. Quyidagilardan qaysi biri iqtisodiy modelning mazmunini ifodalaydi:

a) iqtisodiy prognoz uchun instrument;
b) iqtisodiy tamoyillar kompleksi;
v) iqtisodiy jarayon va hodisalarning obektiv xususiyat-lariga va tadqiqot maqsadi va xarakteriga ko'ra abstrakt tarzda umumlashtirib ifodalangan reallikning konstruk-tsiyasi, maketi, andozasi;
g) iqtisodiyot va siyosatning ideal tipi bo'lib uni amalga oshirish uchun zarur.

4. Quyidagi ifodalangan iqtisodiy maqsadlardan qaysi biri-ni aniq raqamlar bilan o'lchash mumkin?

a) iqtisodiy kafolat;
b) iqtisodiy erkinlik;
v) to'la bandlik;
g) daromadlarni adolatli taqsimlash.

5. Agar qo'yilgan ikki iqtisodiy maqsad bir-biriga zid ekan-ligi ta'kidlansa, u holda

a) bir vaqtning o'zida ikkala maqsadni amalga oshirib bo'l-masligini;
b) O'zbekistonda amalga oshirilishi lozim bo'lgan maqsad sifatida qo'yib bo'lmasligini;
v) ulardan birini amalga oshirilishi ikkinchisini ham amalga oshirilganini;
g) bu maqsadlarni miqdor jihatdan o'lchash mumkinligini bildiradi.

6. Pozitiv iqtisodiy nazariya:

a) iqtisodiy hodisalarni qanday bo'lsa shunday o'rganadi;
b) iqtisodiy hodisalarni qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatadi;
v) iqtisodiy rivojlanishdagi ijobiy tendentsiyalarni o'rganadi;
g) bildirilgan fikrlarni tahlil qiladi.

7. Agar iqtisodiy jihatdan umumlashtirish dalillar, raqamlarga asos-lansa, u holda bunday tahlil metodi:

a) bayon qilish;
b) qiyosiy;

v) tarixiy;
g) deduktiv;
d) induktiv.

8. Agar iqtisodiyotda korxona, firma, uy xo'jaligi, alohida olingan bozorlar muammosi tadqiq qilinsa, bunday tahlil.

a) normativ;
b) pozitiv;
v) ilmiy abstraktiv;
g) mikroiqtisodiy;
d) makroiqtisodiy

Tarqatiladigan materiallardan namunalar:

1-tarqatma material



Iqtisodiyot deganda siz nimani tushunasiz? Yuqoridagi tasvirga yana nimani qo'shgan bo'lar edingiz?

2-tarqatma material
Iqtisodiy qonunlar va ularning turkumlanishi

Iqtisodiy qonunlar – iqti-sodiy hodisa va jarayonlar o'r-tasida muhim, barqaror, tak-rorlanuvchi, iqtisodiy zaruri-yatni taqazo etuvchi sabab, oqi-bat, sifat va miqdor bog'la-nishlari, aloqalari. U indi-vidlar va institutlar xatti-harakati, tanlash va qaror qabul qilish sababi, motiv-larini umumlashtirgan holda xarakterlab beradi.

Umumiqtisodiy qonunlar jamiyat taraq-qiyotining barcha bosqichlarida amal qila-di. Jamiyatning olg'a qarab rivojlani-shini ifodalaydi. Masalan: Ehtiyoj-larni yuksalib borishi, vaqtni tejash qonuni, ijtimoiy mehnat taqsimotini chuqurlashib borishi va hokazo.

Aloxida, davriy oraliq qonunlar. Amal qilish sharoiti saqlangan tarixiy davrlarga xos bo'lgan qonunlar bo'lib, turli sotsial-iqtisodiy tizimlarni birlashtirib, bog'lab turuvchi munosa-batlarga xos, masalan bozor iqtiso-diyotiga xos qonunlar.

Maxsus iqtisodiy qonunlar - muayyan sotsial iqtisodiy tizim doirasida amal qiluvchi qonunlar. Ular aniq tarixiy xo'jalik shaklining rivojlanish qonun-laridir. Masalan, ibtidoiy jamoa, qul-dorlik, krepostnoylik qonunlari va boshqalar.

Iqtisodiy qonunlar turkumlari bo'yicha misol keltira olasizmi?

Javoblar:

Asosiy tushunchalar:

1b), 2e), 3d), 4yo), 5g), 6j), 7v), 8z), 9i), 10k), 11y), 12a

Masala va mashqlar:

1. Keltirilgan fikrlar o'zaro bog'liq nazariy iqtisodiy muammolarni xarakterlaydi, nisbatan «v» javob to'laroq ifodalaydi.
2. Oxirgi javobda.
3. Inson eng avvalo hayvondan abstrakt tafakkur qilish bilan ajralib turadi. Kishilik jamiyati rivoji qancha yuqori bo'lsa, abstrakt fikrlash qobiliyati uning tilida ifodalanadi.

Abstrakt tushunchaga muvofiq ravishda so'zlar, bizni misolimizda daraxt, qush so'zlarini ishlatilmasligi abstrakt fikrlash taraqqiyotning nisbatan past darajada ekanligini ifodalaydi. o'zbek tilida tanga, pul so'zlarini kelib chiqishini izohlab berishimiz mumkin.

4. Bu tushunchalar fanning predmetini o'rganish metodlari bo'lib, shu guruhga qo'shilmaydigani tajriba o'tkazish. Qolganlari iqtisodiyot nazariyasini o'rganishning asosiy metodlari.

5. A. Qodiriy ana shu sodda misol bilan induktsiya va deduktsiya metodini osongina tushuntirib bergan. Birinchi alohidadan umumiy xulosa chiqarilayapti. Bu induktsiya metodi. Ikkinchi umumiydan alohida, juz'iy xulosa chiqarilayapti. Bu deduktsiya metodi. Bu metodlardan iqtisodiy fanlar, jumladan iqtisodiyot nazariyasi fanini o'rganishda ham keng foydalaniladi.

Iqtisodiyotdan misol: Korxona, firmalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortdi. Demak, mamlakat miqyosida iqtisodiy o'sishga erishiladi. Aksincha, ko'pchilik korxona va firmalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi qisqarsa, mamlakat miqyosida iqtisodiy tanazzul yuz beradi, deb aytish mumkin. Boshqa juda ko'plab misollar keltirish mumkin.

6. **T/N**

1N; 2T; 3T; 4N; 5N; 6N; 7T; 8T;

Testlar:

1b), 2b), 3d), 4v), 5a), 6a), 7d), 8g).

2-mavzu. Iqtisodiy resurslar va jamiyat ehtiyojlari

Asosiy tushunchalar:

1. Ehtiyoj
2. Extiyojlarning yuksalib borishi iqtisodiy qonuni
3. Iqtisodiy resurslar
4. Iqtisodiyotning bosh muammosi
5. Tanlovning muqobil qiymati
6. Ishlab chiqarish imkoniyati chegarasi
7. Ishlab chiqarish imkoniyat-lari egri chizig'i

a) Turli ehtiyojlarni qondiradigan ne'matlar ishlab chiqarish uchun zarur barcha vositalar va mehnatga layoqatli kishilar.

b) insonning yashashi, kamol topishi uchun hayotiy ne'matlarga bo'lgan obektiv zaruriyat.

v) resurslar cheklanganligi sharoitida jamiyat a'zolarining ehtiyoj-larini qondirish muammosi.

g) ishlab chiqarish va madaniyat rivojlanishi bilan inson ehtiyoj-larining yuksalib miqdoran o'sib, tarkiban yangilanib borishi.

d) tanlov natijasida voz kechilgan imkoniyat ichidan tanlovchi uchun eng katta naf keltiruvchi yoki qadrlanuvchi imkoniyat.

e) mavjud resurslardan to'la foydalanish evaziga turli kombi-natsiyalarda eng ko'p mahsulot ishlab chiqarishning grafikda ifodalanishi.

j) mavjud iqtisodiy resurslardan to'la foydalanish evaziga eng ko'p mahsulot ishlab chiqarish.

Masala va mashqlar.

1. Zahro opasi va singlisi Adiba bilan kichik korxona ochdi. Zahro bir yilda 400 ta qizlar ko'ylagi yoki 450 ta erkaklar ko'ylagi tika oladi. Opasi esa 350 ta qizlar ko'ylagi yoki 400 ta erkaklar ko'ylagi tika oladi. Singlisi esa 300 ta qizlar ko'ylagi yoki 350 ta erkaklar ko'ylagi tika oladi.

Oilaviy kichik korxonaning ishlab chiqarish imkonini hisoblang va uni grafikda tasvirlang.

2. Uch opa-singil oilaviy kichik korxona tashkil qilishdi. Korxonada jun va aralash iplardan bolalar uchun paypoq, nimcha to'qiladi. Opa-singillarning kattasi yil davomida 500 dona nimcha yoki 600 juft paypoq, ikkinchi singil esa 420 nimcha yoki 700 juft paypoq, uchinchi singil 300 nimcha yoki 600 juft paypoq to'qiy oladi. Oilaning ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'ini chizing.

4. Ota, qiz va o'g'il xovliga qulupnay terish va o'toq qilish uchun kelishdi. Uchastkada 6 soat ishlashlari mumkin. Ota soatiga 1 chelak, qiz ikki chelak, o'g'li 0,5 chelak qulupnoy teradi. Qiz o'toqni 2 soatda, o'g'il 7 soatda, otasi 6 soatda bajaradi. Oilada ishni qanday taqsimlash kerakki, o'toq qilib bo'lib, eng ko'p miqdorda qulupnay terishsin.

5. Respublikamizda avtomobil va traktor ishlab chiqariladi va u quyidagi jadvalda ifodalangan:

Avtomobil	5	4	3	2	1	0
Traktor	0	7	13	18	22	25

Muqobil (alternativ) xarajatlarni aniqlang.

a) Bitta qo'shimcha avtomobil ishlab chiqarish uchun;

b) Qo'shimcha bitta traktor ishlab chiqarish uchun.

5. Mamlakatda ikki xil A va V turdagi tovar ishlab chiqariladi deylik. Ularning imkoniyati chegarasi quyidagi jadval ma'lumotlarida ko'rsatilgan.

Mahsulot turlari	A	b	V	G
A tovar (dona)	0	1	2	3
V tovar (dona)	12	10	6	0

A) Jadval ma'lumotlari asosida ishlab chikarish imkoniyati egri chizig'ini grafikda tasvirlang.

B) A tovarning V tovarda ifodalangan muqobil qiymatini xisoblang.

V) V tovarning A tovardagi muqobil qiymati: o'suvchi, pasayuvchi yoki doimiymi? A tovarning V tovardagi muqobil qiymatichi, ko'rsating.

G) Agarda muqobil qiymat doimiy bo'lsa, imkoniyat egri chizig'i qanday shaklda bo'ladi? Jadval va grafikda tasvirlang.

6. Jamiyat doimo joriy iste'mol uchun hamda kelajak uchun tovarlar boshqacha aytganimizda, iste'mol mollari va investitsion tovarlar (ishlab chiqarish vositalari) ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, maorif, ta'lim, profilaktik meditsina(kasallikni oldini olish uchun chora tadbirlar)ga qanday miqdorda resurslar sarflashni tanlaydi.

A,V,S,D mamlakatlar uchun 1990 yili **a) rasm** va 2005 yili **b) rasm**da ishlab chiqarish imkoniyatlari ko'rsatilgan.



a) rasm



b) rasm

Har ikki rasmdagi imkoniyatlar egri chizig'ini taqqoslang va quyidagi savollarga javob bering.

A) Nima sababdan har bir mamlakat imkoniyati egri chizig'i (a rasm), 2005 yili b) rasmdagi darajaga ko'tarildi?

B) Nima sababdan S va D mamlakatlarida A va V mamlakatlariga qaraganda imkoniyat egri chizig'i yuqori.

V) Joriy iste'mol bu mamlakatlarda 2005 yilda qanday o'zgargan?

7. Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Tushunchalar orasida guruhga taalluqli bo'lmaganlarini aniqlang va ularni ro'yxatdan chiqaring. Sababini izohdang.

Tushunchalar: Makaron, tuz, kostyum-shim, uy, hovli, ish, non, sayohat.

T/ N

1. Individual ehtiyoj bu har bir oilaning, jamoaning ehtiyoji bo'lib, u birgalikda yashash va faoliyat yuritishga bo'lgan ehtiyojni o'z ichiga oladi.
2. Guruhiy ehtiyoj - bu oilaviy yoki kishilarning biron maqsadda birlashgan guruhlari: mehnat jamoasi, turli uyushmalar ehtiyojlari bo'lib, birgalikda yashash, faoliyat yuritish jarayonida vujudga keladigan umumiy ehtiyojlardir.
3. Umumjamiyat ehtiyojlari mamlakat miqyosida, qolaversa er shari miqyosida insonlarning bir butun bo'lib tarkib topgan ehtiyojlaridir.
4. Mahallada militsiya tayanch punkti ochildi. Uni individual ehtiyojga misol qilsa bo'ladi.
5. Atrof-muhitni holatini o'rganish uchun laboratoriya tashkil etildi. Bu umujamiyat ehtiyojini qondirishga kiradi.
6. Bizni ehtiyojlarimiz olgan axborotlarimizga ko'ra shakllanadi.
7. Ovqatga intilish har bir odamda kishi oshchqozonini kichik sig'imi bilan cheklanadi, lekin qulayliklarga hamda uy-joy, kiyim-kechak, uy sharoiti, uni anjomlar bilan bezashga intilish, aftidan cheksiz yoki muayyan chegaralarga ega bo'lmasa kerak, deb ta'kidlagan Gegel.
8. Komfort(qulaylik)- umuman tugamaydigan narsa degan, Gegel.
9. Qaror qabul qilish uchun turli muqobil variantlarni tanlash mezonlari asosida taqqoslanadi.
10. Resurslarni cheklanganligi ham, imkoniyatlar kattaligi ham tanlashni zarur qilib qo'yadi. Faqat tanlash mezonlari tubdan farq qiladi.
11. Talaba oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qildi. Bu individual ehtiyojga kiradi.
12. Korxona kiyim-kechak ishlab chiqarish uchun chet eldan so'nggi modadagi material xarid qildi. Bu individual ehtiyojni qondirish.

Testlar

1. Resurslar cheklanganligi muammosini echish mumkin:
   a) agar hamma odamlar resurslarni tejashsa;
   b) agar hamma ixtiyoriy ravishda o'z ehtiyojlarini cheklasa;
   v) kelajakda, fan va texnika taraqqiyoti tovar ishlab chiqarishni ko'paytirish imkonini bersa;
   g) muammoni echib bo'lmaydi.

2. Pulingiz etmagani sababli bir nechta qimmat, lekin sifatli, shu bilan birga bir nechta arzon daftar sotib oldingiz. Siz …
   a) resurslar cheklanganligi muammosiga;
   b) resurslar cheklanganligi tufayli murosali tanlovning zarurligiga;
   v) resurslar cheklanganligi, murosali tanlov zaruriyati va muqobil qiymatni baholash muammosiga;
   g) resurslar cheklanganligi va muqobil variantni baholash muammo-siga duch keldingiz.

3. Quyidagi keltirilgan qaysi iqtisodiy tushunchalar ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'ni ifodalaydi.
   a) talab va taklif;
   b) yalpi talab va yalpi taklif;
   v) ishlab chiqarish resurslari cheklanganligi, murosali tanlov, muqobil qiymat;
   g) mavjud ishlab chiqarish imkoniyati darajasida ehtiyojlarni qondirishning eng yaxshi usuli.

4. Ishga avtobusda yoki marshrut taksida borish mumkin. Siz marshrut taksida borishni yoqtirasiz. «Toshshaharyo'lovchitrans» shu liniyaga yangi «Mersedes» avtobuslarini qo'ydi, shu bilan birga yo'l xaqi ham oshirildi. Sizni marshrut taksidan foydalanish bo'yicha qaroringiz muqobil qiymati o'zgaradimi?
   a) o'sadi;
   b) aniqlab bo'lmaydi;
   v) kamayadi;
   g) o'zgarmaydi.

5. Iqtisodiyotning asosiy savollari quyidagi javob variantlaridan qaysi birida berilgan?
   a) nima ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kim uchun ishlab chiqarish?
   b) nima iste'mol qilinadi, qanday ishlab chiqariladi, kim ishlab chiqaradi?
   v) nima ishlab chiqariladi, qanday iste'mol qilinadi, kim ishlab chiqaradi?
   g) nima iste'mol qilinadi, qanday ishlab chiqariladi, kim iste'mol qiladi?

6. Muqobil tanlov muammosi:
   a) faqat alohida kishilar oldida;

b) faqat firmalar oldida;
v) faqat davlat organlari oldida;
g) kishilar, firmalar oldida ham, davlat organlari oldida ham turadi.

Tarqatiladigan materiallardan namunalar:

1-tarqatma material

Quyidagi grafiklarga qarang





Ularni solishtiring va javobingizni izohlang.

2-tarqatma material

Hayotdagi turli tuman vaziyatda tanlovning variantlari nihoyatda xilma-xil bo'lib, qaror qabul qilishni qiyinlashtiradi. Muqobil variantlardan birini tanlash uchun har bir kishi beixtiyor shu variantlarni taqqoslashga tushadi.

Taqqoslashdagi mezonlar juda ko'p va xilma-xil bo'lib, ular ma'lum sharoit, vaziyat, qo'yilgan maqsad va boshqalarga bog'liq. Xuddi shu fikrni muqobil variantlar haqida ham aytish mumkin. Muqobil variant ikki va undan ortiq bo'lsa tanlash, tanlash uchun esa taqqoslash zarur bo'ladi. Taqqoslash natijasida u yoki bu qarorga kelinadi. Bu jarayon alohida kishi, oiladan boshlab to butun mamlakat miqyosida amalga oshiriladi.

Qaror qabul qilish jarayonini quyidagi model orqali izohlash mumkin.

Qaror qabul qilishni qadam-baqadam modeli

1. Muammoni aniqlash. Eng avvalo muammo(erishish lozim bo'lgan natija)ni ajratish, ayni shu vaqt, shu vaziyat uchun qaysinisi asosiy hisoblanadi, aniqlash zarur.

2. Muqobil variantlarni aniqlab chiqish (belgilangan natijaga erishishning turli usullarini aniqlash). Masalan: auktsion, musobaqa, navbatda turish, boshliqning qarori, mulk egasining xohishi va boshqalar.

3. Mezonlarni belgilash. (Har bir variantni baholashning mezonlarini aniqlaydigan standartlarni belgilash.) Masalan: hammaga teng shans, naflilik, eng yuqori narx, mukofot, qadr-qimmat, omad va hokazo.

4. Muqobil variantlarni baholash (Har bir mezon har bir muqobil variant uchun qo'llaniladi).

5. Qaror qabul qilish (Turli variantlar mezonlari bo'yicha taqqosla-nadi va ulardan eng maqbuli tanlanadi).

3-tarqatma material
Qaror qabul qilish setkasi

Muqobil variantlar	Mezonlar					
	Hammaga teng shans	Eng yuqori narx	Qadr-qimmat, naf	Mulk egasining tanlovi	Omad	Mukofot
Boshliq (o'qituvchi)-ning qaroriga ko'ra						+
Lotereya o'tkazish	+				+	
Auktsion		+	+			
Konkurs	+		+			+
Mulk egasining xohishiga ko'ra				+		

Albatta boshqa narsalar, maqsadlar uchun muqobil variantlar va qaror qabul qilish mezonlari boshqacha bo'ladi. Masalan: tadbirkorning qanday faoliyat turini tanlashi muqobil variantlari, maktabni bitiruvchining kelajakda qanday kasb tanlashi variantlaridan farq kiladi. Albatta mezonlari ham. Oliy Majlisga deputat nomzodiga ovoz berishda ham albatta muqobil variantlar ichidan o'zimiz belgilagan mezonlarga ko'ra qaror qabul qilamiz.

Undan tashqari imkoniyat cheklangan sharoitda bir xil mezon tanlasak, imkoniyat nisbatan katta bo'lgan sharoitda boshqa xil mezon tanlanadi.

Siz oliy o'quv yurtiga o'qishga kirish uchun mutaxassislik tanlashda qanday mezonlarga asoslanib, qaror qabud qildingiz?

4-tarqatma material

O'zbekistonda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi (%)

	02/I	02/I-II	02/I-III	2002	03/I	03/I-II	03/I-III	2003
Iste'mol tovarlari	100	100	100	100	100	100	100	100
Oziq-ovqat mahsulotlari	47,8	47,5	47,2	47,1	44,4	43,2	42,6	43,8
Aroq-vino ichimliklari va pivo	7,7	8,2	8,9	8,4	7,5	8,3	8,4	8,2
Nooziq-ovqat tovarlari	44,5	44,2	43,9	44,5	48,1	48,4	49,0	48,0
J: Engil sanoat tovarlari	10,6	10,2	11,6	11,8	13,7	13,4	13,5	13,0

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi.

Jadvalni keyingi yillar ma'lumotlari bilan to'ldiring. Ular asosida qanday xulosalar chiqarish mumkin? Fikringizni bayon qiling.

5-tarqatma material

Aholining ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari bilan ta'minlanish darajasi dinamikasi

Yillar	Aholining ta'minlanganligi				
	1 yashovchi hisobiga turar joy bilan ta'minlanganlik, kv. m.	10 ming kishi hisobiga kasalxona joylari bilan	10 ming kishi hisobiga ambulatoriya-poliklinika muassasalari bilan	Markazlashti-rilgan suv ta'minoti bilan, %	Tabiiy gaz bilan %
1991	12,2	123,0	133,7	80,0	46,2
1995	13,0	83,7	137,6	71,5	59,4
2000	13,7	55,9	158,2	81,0	73,9
2001	13,9	55,8	160,4	81,0	76,5
200	14,2	57,8	163,1	81,4	77,4

2					
2003	14,4	57,3	164,9	82,2	78,2

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi

Jadval ko'rsatkichlari keyingi yillarda qanday o'zgarganligi haqida ma'lumotlar toping. Ularni solishtiring. Ular asosida qanday xulosalar chiqarish mumkin? Ko'rsating.

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:
1b), 2g), 3a), 4v), 5d), 6j), 7e).
Masala va mashqlar:
1). 1050 ta qizlar ko'ylagi yoki 1200 ta erkaklar ko'ylagi.
Grafik: x o'qida qizlar ko'ylagi, u o'qida erkaklar kuylagi ifodalangan imkoniyat chizig'i.
4. Bitta qo'shimcha avtomobil ishlab chiqarish xarajatlari 7,6,5,4,3 traktor, qo'shimcha bitta traktor ishlab chiqarish 1/7, 1/6, 1/5, 1/4, 1/3 avtomobilga teng
5. A) Ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'i quyidagicha bo'ladi.



B) A tovarning V tovarlagi muqobil qiymati 2, 4, 6.
V).Tovarlarning **muqobil qiymati doimiy, o'suvchi yoki pasayuvchi** ekanligini aniqlash uchun ularni ketma-ketlikda taqqoslaymiz.
V tovarning A tovar ishlab chiqarish evaziga yo'qotilgan muqobil qiymati o'sib boruvchi, chunki u 2 dan 4, 6 ga o'sdi.
A tovarning V tovarda ifodalangan muqobil qiymati esa pasayuvchi, chunki u 12, 10, 6, 0 ga teng.
G). Agarda **muqobil qiymat doimiy** bo'lsa A tovar ishlab chiqarishni kamayishi yoki ko'payishi, V tovarning **teng miqdorda ko'payishi yoki kamayishida** ifodalanadi.

Uni jadval yoki grafikda tasvirlasak quyidagicha bo'ladi.

Mahsulot turlari	a	b	V	g	D	e	Yo
A tovar (dona)	0	1	2	3	4	5	6
V tovar (dona)	12	10	8	6	4	2	0



Demak muqobil qiymat doimiy bo'lsa imkoniyat egri chizig'i to'g'ri chiziq shaklida bo'ladi.

6. A) Hamma mamlakatlarda ishlab chiqarish egri chizig'i fan-texnika taraqqiyoti natijasida o'ngga siljigan. chunki fan-texnika tarakqiyoti ishlab chiqarish imkoniyatini kengaytiradi.

B) S va D mamlakatlarida ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'i yuqori. Sababi, bu mamlakatlarda 1990 yili investitsion tovarlar miqdori ulushi yuqori bo'lgan.

V) 2005 yili barcha mamlakatlarda 1990 yilgi nisbatan joriy iste'mol o'sgan. Lekin S, D mamlakatlarida A, V mamlakatlariga nisbatan yuqori. Sababi, bu mamlakatlarda dastlab kelajak uchun tovarlar ko'prok ishlab chiqarilgan. Bu o'z navbatida ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'ini yuqori bo'lishiga, jumladan joriy iste'molni ham A, V mamlakatlariga nisbatan S, D mamlakatlarida yuqori bo'lishiga olib keladi.

7. Guruhga taalluqli bo'lmagani ish, sayohat. Qolganlari moddiy ehtiyojlar.

T/N:

1N; 2T, 3T, 4N; 5T, 6T, 7N(A. Smit), 8T, 9T, 10T,11T; 12N.

Testlar

1g), 2v), 3v), 4b), 5a), 6g).

1-tarqatma material

Birinchi grafikdagi imkoniyat egri chizig'i o'zgarmas, doimiy muqobil qiymatga ega ishlab chiqarish, ikkinchi grafik esa, A tovarni pasayib yoki V tovarning ortib borishini ko'rsatadi. Bunday tarzda transformatsiya egri chizig'i yoy shaklida bo'ladi.

3-mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning o'zgarishi

Asosiy tayanch tushunchalar:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim
2. Monostrukturali iqtisod
3. Polistrukturali iqtisod
4. Ierarxik boshqarishga asoslan-gan iqtisod
5. Aralash iqtisodiyot
6. An'anaviy iqtisod

a) **B**ir mulk shakli hukmron bo'lgan tizim.

b) Jamiyatdagi turli xo'jalik yurituvchi subektlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlar, aloqalar, jarayonlarni bir butun holda, muayyan tarzda tarkib topishi va tartibga solinishini ifodalaydi.

v) Iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish, tartibga solishni yakka boshliq hokimligiga tayanadigan axborot olish, buyruq va topshiriqlar asosida olib boriladigan iqtisodiyot.

g) Mulkchilikning turli-tumanligi va ularning tengligiga asoslangan iqtisodiyot.

d) Mulkchilikning turli-tumanligi, ularning tengligi, aralash tartibda boshqariladigan, iqtisodiyotni tartibga solishda ma'lum chegarada davlatning aralashuvini taqazo qiladigan iqtisod.

e) Cheklangan resurslardan foydalanish tartibi an'ana va urf-odatlar, udumlar asosida belgilanadigan iqtisod.

Masala va mashqlar:

1. Aytaylik, xususiy firma tovar partiyasini sotib olishga qaror qildi. Tovar sotib olish uchun shartnoma tuzish maqsadida menejer avvaldan potentsial sotuvchilarni topish, tovar bahosi, tovarni sotish, olib keltirish sharti, haq to'lash xaqida axborot to'plashga kirishdi.

Xalqaro telefonda gaplashishlar va telegrammalar uchun 1 mln. so'm sarfladi. Tovarlarni ko'rib kelish uchun transport xarajatlari 500 ming so'm, undan tashqari firma faoliyatining ishonchliligini tekshirish va shartnoma tuzish uchun yuridik xizmat ko'rsatuvchi firmaga 500 ming to'landi.

Oxir oqibat bitim tuzildi. Sotib oluvchi firma tovarlar partiyasi uchun 20 mln. so'm avvaldan haq to'ladi. Sotib oluvchi firmaning transaktsion xarajatlarni aniqlang va baholang. Qanday sharoitda transaktsion xarajatlar jamiyatda katta miqdorda va unchalik ko'p bo'lmagan miqdorni tashkil etadi, ko'rsating?

2. Beshinchisi ortiqcha.

Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Ulardan qaysi biri shu guruh uchun ortiqcha va nima sababdan ko'rsating.

Tushunchalar: Tadbirkorlik imkoniyatining kengayishi, iqtisodiyotni davlat va bozor mexanizmi orqali boshqarilishi, mamlakat miqyosida barcha tarmoqlar uchun rejalar ishlab chiqish, yalpi ichki mahsulotni xususiy va davlat sektori tomonidan yaratilishi, manfaatlarning rag'batlantirilishi.

T/N

1. Markazdan rejalashtiriladigan ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan, jamiyat uchun ham, an’anaviy jamiyat uchun ham, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat uchun ham umumiy iqtisodiy muammo bor:

2. «Nima ishlab chiqarish» muammosi faqat resurslar cheklan-ganligi tufayli kelib chiqqani sababli faqat xususiy biznes uchun xarakterli.

3. «Qanday ishlab chiqarish kerak?» muammosi mehnatga layoqat-li aholisi ko’p bo’lgan mamlakatlar uchun xos emas.

4. «Kim uchun ishlab chiqarish» muammosi markazdan rejalash-tiriladigan ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan jamiyat uchun xos emas.

5. Iqtisodiyotni tartibga solishni tahlil qilib, mashhur iqtisodchi R. Kouz iqtisodiy nazariyaga transaktsion xarajatlar degan tushunchani kiritdi.

6. Iqtisodiyotning tizim sifatida rivojlanishida bir-biriga qarama-qarshi ikki tendentsiya amal qiladi.

Testlar

1. Quyidagilardan qaysi biriga ierarxik boshqarish xos emas?
   a) «O’zdeuavto» korporatsiyasi doirasida avtomabil ishlab chiqarish;
   b) oilada oila a’zolarining uy yumushlarini bajarishi;
   v) fermer xo’jaligida mahsulot ishlab chiqarish;
   g) Toshkent Moliya institutida kafedraning faoliyatini boshqarish;
   d) Yaponiya milliy iqtisodiyoti miqyosida avtomobil ishlab chiqarish.

2. Quyidagi sanab o’tilganlardan qaysi birini transaktsion xa-rajatlarga qo’shmagan bo’lar edingiz?
   a) tijorat menejeri uchun uyali telefon sotib olindi;
   b) shartnoma tuzmoqchi bo’lgan korxonaning moliyaviy ahvoli xaqida ma’lumotlar to’plash;
   v) bitim tuzilganini tasdiqlash uchun notariusga xizmat xaqi to’lash;
   g) bitim tuzayotgan korxona egasiga o’z mahsulotingizdan sovg’a qildingiz;
   d) tuzilgan bitimni sherigingiz qanday bajarayotganini nazo-rat qilingani uchun haq to’ladingiz.

3. Qachonki iqtisodiy muammolar qisman bozor, qisman huku-mat tomonidan echilar ekan, bunday iqtisodiyot …
   a) markazdan boshqariladigan iqtisodiyot;
   b) bozor iqtisodiyoti;
   v) natural xo’jalik;
   g) aralash iqtisodiyot;
   d) an’anaviy iqtisodiyot.

4. Barcha iqtisodiy tizimlarda fundamental muammolar: nima, qanday, qancha, kim uchun mikro va makro darajada echiladi? Quyi-dagilardan qaysi biri mikro darajada echiladi?

a) to'la bandlikni qanday ta'minlash mumkin?
b) nima va qancha ishlab chiqarish zarur?
v) inflyatsiyadan qanday qutilish mumkin?
g) iqtisodiy o'sishni qanday rag'batlantirish mumkin?
d) yalpi daromad va yalpi xarajatlarni qanday muvozanatga keltirish mumkin?

5. Rivojlanish bosqichlariga tsivilizatsion yondashuvning asos-chisi kim?

a) Alfred Marshall;
b) Uolter Rostou;
v) Ronald Kouz;
g) Artur Pigu;
d) Karl Marks.

7. Tsivilizatsion yondashuv bo'yicha jamiyat taraqqiyoti 5 bosqichga bo'linib, u quyidagilardan iborat:

a) o'tkinchi jamiyat, industrial jamiyatga o'tish, industrial jamiyat, ommaviy iste'mol jamiyati, kommunistik jamiyat;
b) an'anaviy jamiyat, industrial jamiyatga o'tish, feodalizm, indus-trial jamiyat, kommunistik jamiyat;
v) an'anaviy jamiyat, quldorlik, industrial jamiyatga o'tish, industrial jamiyat, ommaviy iste'mol jamiyati;
g) an'anaviy jamiyat, o'tkinchi jamiyat, industrial jamiyatga o'tish, industrial jamiyat, ommaviy iste'mol jamiyati;
d) an'anaviy jamiyat, o'tkinchi jamiyat, kommunistik jamiyat, industrial jamiyat, ommaviy iste'mol jamiyati.

7. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni almashinish sabablarini formatsion yondashuvda qanday izohlanadi?

a) ishlab chiqarish kuchlari rivojlanish darajasiga ishlab chiqarish munosabatlarining mos kelishi;
b) ishlab chiqarish texnologik usulining o'zgarishi;
v) ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasiga ishlab chiqarish munosabatlarining mos kelmasligi;
g) resurslarning cheklanganligi bilan ehtiyojlar cheksizligi o'rtasidagi ziddiyat;
d) ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasiga ust-qurmaning mos kelmasligi

Tarqatma materiallardan namunalar:
1-tarqatma material

An'anaviy, ma'muriy, bozor iqtisodiyoti tizimlari

An'anaviy iqtisodiy tizim	Ma'muriy iqtisodiy tizim	Bozor iqtisodiyoti tizimi
Iqtisodiy qarorlar odatda avvalgi avlod yoki ilgari qabul qilingan qarorlarni takrorlaydi.	Iqtisodiy qarorlar assosan avtoritar masalan, feodal, lord tomonidan yoki davlat organi tomonidan qabul qilinadi.	Muhim iqtisodiy qarorlar alohida shaxslar va biznas firmalar tomonidan qabul qilinadi.
Iqtisodiy hayotda an'analarni davom ettirish qadrlanadi.	Reja organlari nima ishlab chiqarish, kimga sotishni hal qiladilar.	Bozor baholari ishlab chiqaruvchilar uchun xaridorlar nima xohlashi haqida signal beradi, uni asosida alohida shaxslar va biznes firmalar tomonidan qaror qabul qilinadi.

Aralash iqtisodiyot haqida nima degan bo'lar edingiz? U bozor iqti-sodiyoti tizimidan farqlanadimi? O'z fikringizni asoslang.

Mulkchilikning hukmron shakli va tartibga solish mexanizmiga ko'ra sotsial - iqtisodiy tizimlar

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar	Mulkchiliking hukmron shakli	Tartibga solish mexanizmi	Ishlab chiqarishni tashkil etish
An'anaviy iqtisod	Mulkchilikda merosxo'rlik, sulolalar mavqei hukmronligi	Iqtisodiy jarayonlar, aloqalar, urf-odatlar, an'analar, diniy qoidalar asosida tartibga solinadi	Dastlab tabiat ne'matlarini o'zlashtirishga asoslanadi. So'ngra natural, mayda tovar xo'jaligi kelib chiqadi
Bozor iqtisodiyoti	Xususiy mulk ustuvorligi	Iqtisodiy aloqalar, jarayonlar bozor mexanizmi orqali tartibga solinadi	Manufaktura, fabrika mashinalashgan ishlab chiqarish
Tsivilizatsiyalashgan yoki aralash iqtisod	Mulkchilikning turli shakllari mavjudligi va qonuniy tengligi	Iqtisodiy aloqalar, jarayonlar bozor mexanizmi bilan davlat mexanizmi hamkorlikda tartibga solinadi	Hozirgi zamon ishlab chiqarishi
Markazdan boshqariladigan ma'muriy rejali iqtisod	Davlat mulki ustuvorligi	Iqtisodiy aloqalar, jarayonlar bir markazdan ma'muriy buyruq yo'li bilan boshqariladi, uyg'unlashtiriladi, rejani bajarishga qaratiladi	Rejali asosda sotsialistik ishlab chiqarish

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:

1b)); 2a); 3g); 4v); 5d); 6e).

Masala va mashqlar:

1. Transaktsion xarajatlar 2 mln. so'm. Jami tovarlarning bahosiga nisbatan 2 x 100 = 20% ni tashkil etadi.

2. Ikkinchisi ortiqcha, u markazdan rejalashtiriladigan ma'muriy iqtisodiy tizimga xos, qolganlari aralash iqtisodiyotning tub belgilari hisoblanadi.

T/N

1T; 2N; 3N, 4N; 5T; 6T.

Testlar:

1d); 2a); 3g); 4b); 5b); 6g); 7v).

4-mavzu. Iqtisodiy faoliyat va uning samaradorligi

Asosiy tushunchalar

1. Ishlab chiqarish funktsiyasi
2. Ishlab chiqarish
3. Iqtisodiy faoliyat
4. Iste'mol
5. Izokvanta
6. Iqtisodiy samaradorlik
7. Me'yoriy mahsulot
8. Ayirboshlash
9. Taqsimot
10. O'rtacha mahsulot
11. Me'yoriy unumdorlik (daromad)ning pasayish qonuni.

a) Insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ne'matlar yaratish jarayoni;

b) Ishlab chiqarish natijalaridan foydalanish, ehtiyojni qon-dirish jarayoni;

v) Insonning ehtiyojini qondirish, ya'ni hayot kechirish, tirik-chilikni ta'minlashning vosita va usullari majmui;

g) Bir xil hajmda mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish omillarining turli variantlarda birlashuvini ifodalovchi nuqtalarning geometrik o'rnini ko'rsatuvchi egri chiziq;

d) Ishlab chiqarish omillarining har qanday to'plami bilan shu omillar yordamida maksimal imkoniyat darajasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bog'lanishni ifodalovchi funktsiya;

e) Qo'shimcha bir birlik har qanday o'zgaruvchi omil evaziga yaratilgan umumiy mahsulot (TR) hajmini o'zgarishi tushuniladi. Masalan, MP= TP/ L;

yo) Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida resurslarni, ishlab chiqarish omillarining egalari o'rtasida esa yaratilgan mahsulotni taqsimlanishini ifodalaydi;

j) Ma'lum miqdordagi ne'matlarni bir sub'ektdan boshqa sub'ekt ixtiyoriga o'tish jarayoni;

z) Bir omilning o'zgarishi va qolganlarini o'zgarmagani holda ma'lum chegaradan so'ng har bir qo'shimcha sarflangan omil avvalgisiga nisbatan kamroq unum(daromad) olib kelishini ifodalaydi.

i) Iqtisodiy xarajatlar evaziga erishilgan ishlab chiqarish nati-jasi, yaratilgan mahsulot.

y) Ishlab chiqarilgan umumiy mahsulot(TR)ning o'zgaruvchi ishlab chiqarish omillariga nisbatini ifodalaydi. Masalan, AR=TR/ L

Masala va mashqlar:

1. Boshqa omillar o'zgarmagani holda mehnat miqdori, ya'ni ishchilar sonining o'sishiga qarab, natura shaklidagi me'yoriy mahsulot quyidagicha o'zgargan

Ishchilar soni, kishi	Mahsulot miqdori. dona
1	200
2	300
3	350
4	380
5	390
6	395

Natura shaklida me'yoriy mahsulotni hisoblang. Raqamlar nimani ko'rsatadi, izohlang.

Agar mahsulot narxi 4000 so'm bo'lsa, ish haqi darajasi 60000 so'm bo'lsa, tadbirkor maksimal darajada nechta ishchini yollashi mum-kin?

Agarda uning mahsulotlariga talab kamayib, narxini 2200 so'mga tushirishga majbur bo'lsachi? U bu miqdorni qanday ko'rsatgich orqali aniqlaydi?

2. «Vaqt-pul» iborasi AQSh prezidenti Benjamin Franklinga tegishli. Bu fikrga nisbatan o'z nuqtai nazaringizni izohlang

3. Yagona o'zgaruvchi omil mehnat, qolgan omillar doimiy. Mehnat omilining o'zgarishiga ko'ra ishlab chiqarilgan mahsulot soni quyidagicha o'zgargan.

Ishchilar soni, kishi	0	1	2	3	4	5	6
Ishlab chiqarilgan mahsulot, dona	0	40	90	126	150	165	180

a) Me'yoriy mahsulot nechanchi ishchini qabul qilingandan so'ng qisqarishni boshlaydi ?

b) Oxirgi yollangan oltinchi ishchining me'yoriy mahsulotini hisoblang?

v) O'rtacha mahsulot nechanchi ishchini yollaganda maksimal darajaga etadi?

4. Oltinchisi ortiqcha.

Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Ulardan qaysi biri ortiqcha va nima sababdan ko'rsating.

Tushunchalar: ish haqi, foiz, amortizatsiya, divident, foyda, renta.

T/N

1. Noindustrial davrda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish ustun bo'lgan.
2. Postindustrial davrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ustun bo'lgan.
3. Ishlab chiqarish omillarini jalb qilish nuqtai nazaridan vaqtni qisqa va uzoq muddatlarga ajratish shart emas. Bu bilan hech nima o'zgarmaydi.
4. Ishlab chiqarish funktsiyasi bu ishlab chiqarishning formulada ifodalangan modeli.
5. Bozor iqtisodiyotida resurslarning taqsimlanishi bozor mexanizmi orqali amalga oshadi.

6. Bozor iqtisodiyotida daromad omillarning mahsulotdagi hissasiga qarab emas, balki belgilangan reja asosida taqsimlanadi.

7. Iste'mol ishlab chiqarish natijalaridan qanday maqsadda foydalanishiga ko'ra ikki turga ajratiladi.

8. Omillarning ma'lum nisbatda birikishi deganda, har qanday mahsulot ishlab chiqarish uchun ma'lum bir miqdorda er, kapital, mehnat, tadbirkorlik omilini talab qilishi tushuniladi. Aynan tadbirkor qolgan uch omilni eng optimal variantini topishi jiha-tidan boshqalardan ajralib turadi.

9. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish faqat tadbir-korlarga ko'proq foyda olish uchun zarur. Uning jamiyat uchun zaruriyati yo'q.

10. Ishlab chiqarish funktsiyasining ahamiyati shundaki, u omil-larning birlashuvi imkoniyatlarini muqobil variantlari borli-gini ko'rsatadi.

11. Ixtiyoriy ayirboshlashdan odamlar doimo yutishadi.

12. Bir omil o'zgarib, boshqa omillar o'zgarmaganda yaratilgan qo'shimcha mahsulot shu ishlab chiqarish omili uchun me'yoriy mahsu-lot bo'ladi degan fikr, mazmuni jihatidan qo'shimcha jalb qilin-gan resurs evaziga (boshqalari o'zgarmagani holda) olingan mahsu-lot me'yoriy mahsulot bo'ladi degan fikrdan farq qilmaydi.

Testlar:

1. Iqtisodiyotda ishlab chiqarish omillari unumdorligi pasayib borishi qonuni amal qiladi. U holda iqtisodiy o'sish qanday tarzda ta'minlanadi?

a) borgan sari kamroq resurslar talab qilinadi;
b) qo'shimcha resurslarning o'sishi ishlab chiqarish umumiy hajmini ko'paytirmay, balki kamaytiradi;
v) qo'shimcha resurslar zarur, lekin ularning narxi ortib boradi;
g) borgan sari ko'proq resurslar talab qilinadi, ularni te-jab ishlatish yo'llari topiladi;
d) resurslarni tejab-tergab ishlatish yo'llari topiladi.

2. Industrial bosqich quyidagi qaysi asosiy xususiyati bilan boshqa bosqichlardan ajralib turadi?

a) iqtisodiyotda asosiy rolni mashinalashgan sanoat ishlab chiqarishi o'ynashi;
b) xizmat ko'rsatish nihoyatda tez rivojlanishi;
v) moddiy ishlab chiqarish ustunligi;
g) qishloq xo'jaligi ustun bo'lishi;
d) nomoddiy ishlab chiqarish ustunligi.

3. Boylik faqat moddiy ishlab chiqarishda yaratiladi deb ta'-kidlash nimaga olib keladi?

a) xizmatlar ko'rsatishni nazar-pisand qilmaslikka, bu sfera-ning rivojlanishini sekinlashtirishga;

b) ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga;
v) aholini to'la bandligini ta'minlashga;
g) moddiy ishlab chiqarishda xarajatlarni pasaytirishga;
d) resurslarni tarmoqlar o'rtasida optimal tarzda taqsimla-nishiga olib keladi.

4. Ishlab chiqarishning to'rt omili er, kapital, mehnat, tadbir-korlik evaziga muvofiq ravishda yaratilgan mahsulotdagi ulushini uning egasi qaysi ketma-ketlik shaklida oladi?
a) er rentasi, ish haqi, foiz-divident, foyda;
b) er rentasi, foiz-divident, foyda, ish haqi;
v) er rentasi, foiz-divident, ish haqi, foyda;
g) foiz-divident, foyda, ish haqi, er rentasi;
d) foyda, er rentasi, ish haqi, foyda-divident.

5. Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi bu …
a) ishlab chiqarish natijalarini mehnat xarajatlariga nisbati;
b) ishlab chiqarish natijalarini kapital sarflariga nisbati;
v) ishlab chiqarish natijalarini er omiliga nisbati;
g) ishlab chiqarish natijasi (mahsulot)ni sarflangan xarajat-larga nisbati;
d) erga va kapitalga qilingan xarajatlar natijasidir.

6. Naflilikni pasayib borishi qonunining amal qilishini izohlashga quyidagilardan qaysi biri <u>to'g'ri</u> kelmaydi?
a) universal qonun bo'lib, doimo amal qiladi;
b) uning amal qilishi doirasi cheklangan bo'lib, eng avvalo, kundalik ehtiyojlarni qondiradigan tovar, xizmatlarga tegishli;
v) qisqa muddatli davrga xos;
g) ko'plab tovarlarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi;
d) naflilikni baholovchi yagona o'lchov yo'q.

7. F.Kene, A.Smit va Rikardolardan farqli ravishda A. Marshall boylikka:
a) ijtimoiy zaruriy mehnat natijasi deb;
b) moddiy ishlab chiqarish natijasi deb;
v) qishloq xo'jaligida yaratilgan moddiy ishlab chiqarishgan mahsulot deb;
g) savdo-sotiq natijasi deb;
d) inson ehtiyojlarini to'laroq qondirishi nuqtai nazaridan qarash to'g'riroq bo'lardi, deb ta'kidlaydi.

8. Izokvanta:
a) mahsulotning umumiy hajmi egri chizig'ini;
b) ishlab chiqarish funktsiyasini;
v) mavjud resurslar evaziga turli hajmda mahsulot ishlab chiqa-rishni;
g) o'rtacha mahsulot egri chizig'ini;
d) me'yoriy mahsulot egri chizig'ini ko'rsatadi.

Tarqatma materiallardan namunalar:

1-tarqatma material

I. Noindustrial bosqich xususiyatlari:

— iqtisodiyotning dastlabki sferasi — qishloq xo'jaligi ustun bo'ladi;
— aholi asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan band;
— asosan qo'l mehnatiga tayaniladi;
— mehnat taqsimoti nihoyatda past, natural xo'jalik yuri-tishga asoslanadi;
— aholi ehtiyojlari turg'un holatda bo'lgan ishlab chiqarishga xos.

Ishlab chiqarishning bu bosqichi hozir ham ayrim Afrika mamlakatlari (Mali, Gvineya) ga xos bo'lib, qishloq xo'jaligida band bo'lganlar mehnat unumi 2 kishini boqishga etadi.

II. Industrial bosqich xususiyatlari:

— iqtisodiyotda asosiy rolni mashinalashgan sanoat ishlab chiqarishi o'ynaydi;
— sanoat boshqa muhim tarmoqlar (qishloq xo'jaligi, qurilish, transport)ni ham qayta qurishga olib keladi;
— aholining asosiy qismi industrial tarmoqda band bo'ladi;
— mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ro'y berib, ko'plab yangi tarmoqlar vujudga keladi. Natijada iqtisodiyotda ishlab chiqarishni tashkil qilishning murakkab shakli — tovar ishlab chiqarish rivojlanadi;
— aholi urbanizatsiya (urbahis — shahar)si ro'y beradi.

Aholining asosiy qismi shaharlarda yashay boshlaydi;
— ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi turli-tuman ehtiyojlarni qondirish uchun yo'l ochadi.

III. Postindustrial bosqich xususiyatlari:

— iqtisodiyotning muhim sferasi — xizmat ko'rsatish nihoyatda tez rivojlanadi. Unda ishlovchilarning 50-70% band bo'ladi; — fan bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanadi. Fan yutuqlari natijasida ishlab chiqarishda, tabiatda mavjud bo'lmagan mahsulotlar yaratiladi; — xo'jalikning barcha tarmoqlarida va maishiy maqsadlarda informatika va hozirgi zamon hisoblash texnikasi yutuqlari-dan keng foydalaniladi. Jismoniy va aqliy mehnatni ham avtomatlashtirish kuchayadi; — korxonalarda ilmiy xodimlar va yuqori malakali muta-xassislarning roli tezlik bilan oshib boradi; — barcha turdagi resurslarni iqtisod qiladigan, mahsulotni yuqori sifatli bo'lishini ta'minlaydigan yuqori texnologiyaga o'tish amalga oshadi; — barcha kishilarning eng zarur ehtiyojlarini to'la qon-di-rishni ta'minlash, yuqori darajadagi ehtiyojlarni kengayti-rish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Ko'rsatilgan har bir bosqichning hususiyatlariga yana nimalarni qo'shgan bo'lar edingiz? Ko'rsating.

2-tarqatma material
Qisqa muddatli davrni uzoq muddatli davrdan farqi

Qisqa muddatli davr	Uzoq muddatli davr
Bu shunday vaqtki, firma-ning ishlab chiqarish omil-larini barchasini o'zgartirish uchun vaqt etmaydi, lekin firmaning kattaligi o'zgar-magani holda ayrim omil-arni o'zgartirish uchun etarli bo'ladi.	Bu shunday vaqtki, u firmaning ishlab chiqarish omillarini barchasini miqdorini shu jumladan firmaning ishlab chiqarish quvvati (katta-kichikligi)ni o'zgartirish uchun etarli bo'ladi.
Bu vaqt mobaynida firmaning quvvati (katta-kichikligi) o'zgarmaydi.	Bu vaqt mobaynida firmaning quvvati (kattaligi) o'zgaradi.
Ba'zi xarajatlar o'zgaruvchi, ba'zi xarajatlar doimiy bo'ladi.	Barcha xarajatlar o'zgaruvchi bo'ladi.
Tarmoqda firmalar soni o'zgari-shi uchun vaqt juda qisqalik qiladi.	Tarmoqda mavjud firmalarni chiqib ketishi va yangilarini kirib kelishi uchun vaqt etarli.
Hamma ishlab chiqarish bevo-sita amalga oshiriladi.	Uzoq muddatli davrni rejalash-tirish uchun gorizont tariqasida qarash mumkin.

Nima sababdan iqtisodiyotni qisqa va uzoq muddatli davrga bo'lib o'rganiladi? O'z fikringizni ayting.

3-tarqatma material

Chizmaga diqqat qiling. axborot resurslarini qaysi omillarga kiritish mumkin yoki ularga alohida omil sifatida qarash kerakmi? Keyingi paytda ayrim adabiyotlarda moliyaviy resurslar ham alohida ishlab chiqarish omllari sifatida talqin qilinmoqda. Siz bunga qanday qaraysiz? Iqtisodiy resurslar bilan ishlab chiqarish omillarining qanday farqi bor? Fikringizni bildiring.

Ishlab chiqarish omillari tarkibi:



4-tarqatma material

Ishlab chiqarish dinamikasi (Avvalgi yilga nisbatan, foizda)

Hududlar	Yalpi hudud mahsuloti			Ishlab chiqarish hajmi			Xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish		
	2000	2001	2002	2000	2001	2002	2000	2001	2002
Qoraqalpog'i s-ton Respublikasi	88,6	96,8	101,6	106,0	97,4	98,1	106,2	111,6	104,0
Viloyatlar:									
Andijon	103,2	108,8	103,4	88,6	128,9	107,1	80,5	125,6	98,9
Buxoro	104,5	103,3	102,7	102,9	108,7	104,6	105,9	108,2	104,8
Jizzax	104,0	104,2	109,5	124,1	118,9	133,1	125,9	122,4	164,3

Qashqadaryo	100,1	105,3	110,1	103,4	105,7	111,2	113,7	116,4	106,9
Navoiy	104,4	102,7	104,8	102,7	100,1	106,4	116,6	100,2	113,2
Namangan	108,2	104,8	103,7	123,7	120,8	112,0	125,4	118,0	115,7
Samarqand	103,9	104,2	107,6	100,5	104,1	109,6	92,4	105,4	109,2
Surxondaryo	104,8	108,0	104,0	105,9	105,9	110,1	111,2	107,7	114,3
Sirdaryo	101,6	105,2	98,3	112,2	122,8	101,6	107,8	112,4	101,3
Toshkent	110,3	104,5	103,1	112,0	112,6	110,0	118,2	115,7	109,8
Farg'ona	107,1	100,3	105,1	109,3	102,9	111,0	113,6	102,7	108,8
Xorazm	94,7	103,5	102,9	104,5	100,6	104,9	108,6	103,0	102,0
Toshkent sh.	104,2	104,1	102,6	11,5	112,1	117,7	109,7	106,5	133,1
O'zbekiston Respublikasi	104,0	104,5	104,2	106,4	108,1	108,5	107,7	110,9	111,8

Manba: O'zR iqtisodiyot vazirligi

Jadvalni keyingi yillar ma'lumotlari bilan to'ldiring. Ularni taqqoslang va xulosa chiqaring.

5-tarqatma material
Qishloq xo'jaligi rivojlanishining
asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	1995	1996	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003
Paxta xom-ashyo	ming t.	3934	3350	3646	3206	3600	3002	3265	3122,4	2822,5
Don	ming t.	3115	1562	3776	4148	4331	3929	4072	5792,6	6262,3
Kartoshka	ming t.	440	514	692	691	658	731,1	744	777,2	827,8
Sabzavotlar	ming t.	2713	2497	2384	2404	2680	2644	2778	2935,6	3299,2
Meva va xo'l meva	ming t.	602	605	548	544	489	791	801	842,9	758
Uzum	ming t.	621	478	512	336	344	624,2	573	516,4	401,4
Poliz	ming t.	472	470	376	461	518	451,4	466	479,1	583,3
Go'sht (tirik vaznda)	ming t.	853	854	801	807	822	842	854	865	935,5
Sut	ming t.	3665	3390	3806	3498	3543	3633	3665	3721,3	4030,3
Tuxum	mln. dona	1232	1057	1075	1165	1240	1254	1288	1368	1611,4

Manba: O'zR iqtisodiyot vazirligi

Jadvalni keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. O'zgarishlarni tahlil qiling, xulosa chiqaring.

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:

1d), 2a), 3v), 4b), 5g), 6i), 7e), 8j), 9yo), 10y), 11z);

Masala va mashqlar:

1)

Ishchilar soni, kishi	Mahsulot miqdori. dona	Natura shaklida me'yo-riy mahsulot, dona
1	200	200 (200-0)
2	300	100 (300-200)
3	350	50 (350-300)
4	380	30 (380-350)
5	390	10 (390-380)
6	395	5 (395-390)

Mahsulot narxi: 4000 so'mdan bo'lganda 5 ishchi;

2200 so'mdan bo'lganda 4 ishchi;

Maksimal darajada yollanishi kerak bo'lgan ishchilar soni yaratilgan me'yoriy mahsulot miqdoriga qarab aniqlanadi.

2) Hamma narsaning bahosi bor. Vaqtning ham. Maqsadsiz, besamar o'tkazilgan vaqtda bir qancha boshqa ishlarni bajarish mumkin. Turli faoliyat bilan shug'ullanib, pul ishlash mumkin. Ayniqsa, har bir inson uchun eng cheklangan resurs bu vaqt. Undan qay tarzda foydalanishga qarab muqobil qiymati aniqlanadi.

3. a) 3 – ishchidan so'ng

b)15 dona

v) 2 - ishchi

4. Ortiqchasi amortizatsiya, qolganlari ishlab chiqarish omillari egalarining oladigan daromad shakllari

5. **T/N**

1T, 2N, 3N, 4T, 5T, 6N, 7T, 8T, 9N, 10T, 11T, 12T.

Testlar:

1g), 2a), 3a), 4v), .5g), 6a), 7d).

5-mavzu. Mulkchilik iqtisodiy tizim asosi

Asosiy tushunchalar

1. Mulk
2. Mulk-iqtisodiy kategoriya
3. Mulk-huquqiy kategoriya
4. O'zlashtirish.
5. Mulkka egalik qilish.
6. Mulkdan foydalanish.
7. Mulkni tasarruf etish
8. Mulk huquqi.
9. Manfaatlar
10. Iqtisodiyotni erkinlashtirish

a) Mulkdorlik huquqining mulk egasi qo'lida saqlanib turishi, yaratil-gan mahsulotni o'zlashtirishning ijtimoiy shakli

b) Kishilarning narsaga (mulkka) nisbatan kelib chiqadigan munosabat-lar qonun va huquqiy hujjatlarda, davlat tomonidan belgilangan va har bir fuqaro uchun majburiy tartib-qoidalarni ifodalaydi

v) Mulk bo'lgan boylikni taqdirini mustaqil hal etish, ya'ni undan kelajakda qanday maqsadda foydalanish, ishlatishni belgilash

g) Mulkka nisbatan, uni o'zlashtirish, xo'jalik yuritish uchun ishlatishch jarayonida kishilar o'rtasida yuz beradigan munosabatlar

d) Mulkni ishlatib, ko'zlangan maqsadga, natijaga erishish: daromad topish yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish

e) Kishilar o'rtasida ne'matlar va ulardan foydalanish natijasida vujudga keladigan munosabatlarni jamiyat tomonidan qabul qilingan qoidalari (qonunlar, an'analar, urf-odatlar, ma'muriy farmoyishlar)

yo) Cheklangan ne'matlarni qabul qilingan tartib asosida o'z-lashtirish

j) Mulkchilikni mazmunini ifodalab, egalik qilish, foydala-nish va tasarruf etish yaxlitligi

z) Odamlar ehtiyojini munosabatlar orqali ifodalanishi

i) Davlatning iqtisodiy faoliyatdagi hukmronligini, monopol mavqeini sindirib, iqtisodiyotni boshqarishda yagona davlat mexa-nizmi o'rniga aralash iqtisodiyotga xos bo'lgan bozor mexanizmiga keng yo'l berish

Masala va mashqlar

1. Sentyabr oyida davlat korxonalarida 25 ming kishi ishlab 19,5 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Xususiy kichik korxonalarda 22 ming kishi band bo'lib, 17,5 mln. so'mlik mah-sulot yaratildi. Chet elliklar bilan birgalikda tashkil etilgan qo'shma korxonalarda esa 24 ming kishi band bo'lgani holda 30,5 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

O'rtacha har bir ishlovchiga to'g'ri keladigan mahsulot miqdorini (mehnat unumdorligini) hisoblang. Mehnat unumdorligi nuqtai nazaridan qaysi mulk shakli samarali ekanligini aniqlang. Siz-ningcha buni sababi nimada, izohlang.

2. Qo'shningiz ekkan baqaterak tezda o'sib, sizning qulupnay ek-kan eringizga soya sola boshladi. Siz kelishmovchilik vaziyatini hal qilish uchun qanday chora qo'llagan bo'lar edingiz. Mulk huquqi nuqtai nazaridan qaysi biri eng ratsional hisoblanadi?

a) mahalliy sudga murojaat qilasiz;
b) mahalla oqsoqoliga murojaat qilasiz;
v) bildirmaygina baqaterakni eydigan hashorot to'la idishni tashlaysiz;
g) qo'shni bilan teragini qirqsa, tovon tariqasida 2 chelak qulupnay berishga kelishasiz;
d) qulupnay etishtirishga «bor-e deb, qo'l siltaysiz»

3. Nima sababdan madaniyatli kishi tsivilizatsiyalashgan dunyoda birovning narsasini o'g'irlamaydi?

a) jinoyat qilgani uchun jazolanishdan qo'rqadi;
b) jamiyatdagi urf-odatlarga bo'ysunadi;
v) bunga uning ichki axloqiy qarashlari yo'l bermaydi;
v) kelajakda amaldor bo'lish imkoni yo'qotiladi

4. Quyidagi keltirilgan vaziyatlarni tahlil qilib aytingchi, amalga oshirilgan faoliyat tufayli «mulk huquqi» dastasining qaysi bir elementi realizatsiya qilinadi?

a) Fermer er uchastkasini ijaraga oldi, unda bug'doy etishtirib, davlatga sotdi.
b) Erkinjon "Neksiya" avtomobilini sotib oldi va unda dala hovli-siga qatnab turibdi.
v) Korxona o'zining tsexi binosini boshqa firmaga ijaraga berdi.
g) Tadbirkor Odiljon boshqa tadbirkordan uncha katta bo'lmagan ikkita xonani sotib oldi. Bitta xonani buzib, ikkinchisini kengaytirib, ta'mirladi.
d) Xo'jalik sudi tadbirkor Rahimovdan ishlatib turgan uskunasini qarzini to'lamagani uchun, qarz evaziga olib qo'yishga qaror qildi.
e) Fuqaro Akbarova o'zi yashab turgan uyini o'g'illariga vasiyat qildi.
j) Davlat korxonasi birovning bog'idan avtomobil yo'li o'tkazdi. Bunda uning egasiga qirqilgan daraxtlar uchun kompensatsiya to'lanmadi.
z) Avtomobilning egasi undan foydalanmay, avtostoyankaga qo'yib qo'ygan. O'rtoqlari undan avtomobilidan foydalanishga ruxsat so'rashsa bermadi.
i) Uyidagi mulkini o'g'irlab ketishgani uchun fuqaro militsiyaga murojaat qildi.
k) Sud korxonani tozalanmagan oqavasini anhorga tashlagani uchun jarima soldi.
l) Fuqaro mulk qilib olgan er uchastkasiga ishlov berdi. Kelajakda uni sotmoqchi emas.

5. Quyidagi jadval raqamlariga e'tibor bering. Unda mamlakatimizda 2002-2003 yillarda iqtisodiyotni erkinlashtirishni chuqurlashtirishni amalga oshirish jarayoni aks etgan. Berilgan raqamlar asosida tashkil etidgan nodavlat korxonalari hajmida

aktsionerlik jamiyatlari, xususiy korxonalar va boshqa turdagi korxonalar ulushini hisoblang.

Undan qanday xulosa chiqarish mumkin? Mulkchilik nuqtai nazaridan qarasak, korxona maqomi mahsulot ishlab chiqarish turlarini tanlashda rol o'ynaydimi? Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish bilan xususiylash-tirishni farqi bormi? Iqtisodiyotni erkinlashtirishnichi?

Xususiylashtirish jarayonida tashkil qilingan nodavlat korxonalari soni (dona)

Davrlar	Jami tashkil qilindi	Shu jumladan		
		Aktsiyadorlik jamiyatlari	Xususiy korxonalar	Boshqa shakllardagi korxonalar
02/I	268	26	211	31
02/II	331	45	249	37
02/III	481	86	287	108
02/IV	720	66	505	149
03/I	301	19	255	27
03/II	342	5	301	36
03/III	332	19	160	153
03/IV	477	32	265	180

Manba: O'zR Davlat mulk qo'mitasi.

6. Buyuk allomalardan biri Pifagor avlodlarga vasiyatomuz xitob qilgan ekan: «Ey, xaloyiq! Qonunga ega bo'lishdan oldin axloqli bo'ling, chunki axloq – inson o'ylab topgan ilk qonun». Siz bu fikrga nima deysiz?

7. Oltinchisi ortiqcha.

Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Ulardan qaysi biri ortiqcha va nima sababdan ko'rsating.

Tushunchalar: tikuvchilik tsexi joylashgan bino, stanok, aktsiya, yuk mashinasi, oilaning o'zi foydalanayotgan uy anjomlari, kichik korxonadagi mahsulot ishlab chiqarish uchun sotib olingan xom ashyo.

T/N

1. Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi.

2. Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarni buzmasligi kerak.

3. Er, er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

4. Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlariga xos bo'lgan mulk shakli bor. Bu shaxsiy mulk.

5. Klassik iqtisod maktab vakillari iqtisodiy nazariyaga «Mulk huquqi dastasi» tushunchasini kiritishdi.

6. Iqtisodiy manfaatlar kishilarni harakatga keltiruvchi, ularning sa'y-harakatini, intilishini, tanlovini belgilovchi kuchdir.

7. Mulkni iqtisodiy jihatdan alohidalashuvi doirasida manfaatlar: shaxsiy, oilaviy, jamoa, jamiyat manfaatlari sifatida yuzaga chiqadi.

Testlar

1. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda qaysi mulk shakli eng ko'p tarqalgan hisoblanadi?
   a) aktsionerlik jamiyati;
   b) kooperativ;
   v) individual va xususiy mulk;
   g) jamoa;
   d) qo'shma korxonalar

2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish natijalari …
   a) resurslar kimning mulki ekanligiga ko'ra;
   b) mehnat omili tomonidan;
   v) moddiy resurs egalari tomonidan;
   g) menejerlar tomonidan;
   d) davlat tomonidan o'zlashtiriladi.

3. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, bu …
   a) davlat mulkini fuqarolarga sotish;
   b) davlat mulkini imtiyozli bo'lib berish;
   v) davlat mulkini nodavlat mulk va xo'jalik yuritish shakllariga aylantirish;
   g) davlat mulkini xususiy mulkka aylantirish;
   d) davlat mulkini yuridik shaxslarga sotish.

4. Manfaatlarning bir tomondan ob'ektivligiga sabab, …
   a) har bir kishining inson sifatida ehtiyoji mavjudligi;
   b) ehtiyojlarning ob'ektivligi va uni qondirish zaruriyati;
   v) insonlar uchun umumbashariy qadriyatlarning umumiyligi;
   g) kishilarning manfaati mos kelishi zaruriyati;
   d) shaxsiy, guruh, umumjamiyat manfaatlari mavjudligi.

5. Manfaatlarning ikkinchi tomondan sub'ektivligiga sabab, …
   a) insonni shaxs, mulk egasi sifatida manfaatlari mavjudligi;
   b) insonlar uchun umumbashariy qadriyatlarning mavjudligi;
   v) sub'ektning shaxsiy, oila, jamoa, jamiyat manfaatlarini mujassamlashtirishi;
   g) manfaat doimo ikki sub'ektga tegishli;

d) manfaat har bir insonning o'zida mujassamlashgan.

6. Aktsionerlik jamiyatida mulk egalari kim?
   a) jamiyatning prezidenti;
   b) boshqaruv a'zolari;
   v) nazorat kengashi;
   g) aktsionerlar;
   d) ijrochi direktor va menejerlar.

Tarqatma materiallardan namunalar:

1-tarqatma material

Mulkchilik bilan bog'liq bosh sotsial-iqtisodiy masalalar

- Iqtisodiy hukmronlik kim(qaysi xo'jalik yurituvchi sub'ekt)ning qo'lida;
- Ishlab chiqarish omillari va natijalari qanday o'zlashtiriladi?
- Qanday iqtisodiy aloqalar, o'zlashtirish resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi?
- Xo'jalik faoliyati yuritishdan olinadigan daromad kimga tegishli bo'ladi va qanday taqsimlanadi?

Mulkchilik iqtisodiy munosabatlarning yagona tizimi sifatida:

- Ishlab chiqarish omillari va natijalarini o'zlashtirish;
- Iqtisodiy resurslardan xo'jalik yuritishda foydalanish;
- Mulkchilikni iqtisodiy realizatsiya qilish amalga oshiriladi.

Bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, har biriga misol keltira olasizmi?

2-tarqatma material

Mulk tip(tur)lari va shakllari



Shaxsiy mulk xususiy mulkdan nimasi bilan farqlanadi? Uni qaysi guruhga kiritish mumkin?

3-tarqatma material

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonida tashkil qilingan nodavlat korxonalari soni (dona)

Ko'rsatkichlar	1995	1996	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003
Davlat tasarrufidan chiqarilgan korxonalar soni	8537	1915	1231	451	448	374	1449	1912	1519
Tashkil etilgan nodavlat mulki shaklidagi korxonalar soni	8537	1915	899	266	373	372	1238	1800	1452
Aktsiionerlik jamiyatlari	1026	1257	456	110	141	152	227	223	75
Xususiy korxonalar	6036	420	260	103	156	103	827	1252	981
Boshqa tashkiliy-xuquqiy shakldagi korxonalar	1475	238	183	53	76	117	184	325	396
Xususiylashtirishdan tushgan mablag'(mlrd.so'm)	2,4	5,3	4,4	8,9	9,1	14,3	23,3	43,6	56,1

Manba: O'zR Davlat mulk qo'mitasi.

Izoh: Bir qator aktsiyadorlik jamiyatlari bir nechta davlat korxonalari mulkini birlashtirish yoki bitta korxona mulkini bo'lish yo'li bilan tashkil qilingan. Misol uchun, shu tariqa 2003 yili 142 ta davlat korxonalari negizida 75ta aktsionerlik jamiyatlari tashkil qilingan.

Jadvalda keltirilgan raqamlarga diqqat qiling. Uni keyingi yillar ma'lumotlari bilan to'ldiring. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish necha bosqichga bo'linadi va ular qanday farqlanadi? Kichik guruhlar chiqargan xulosalarni darsda muhokama qiling

Davlat korxonalarini xususiylashtirishning asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2000	2001	2002	2003	2004	2005
Xususiylashtirilgan korxonalarning soni	374	1449	1912	1519	1228	980
Xususiylashtirilgan mulklar bazasida tashkil qilingan nodavlat mulk shaklidagi korxonalar soni	372	1238	1800	1452	1228	980
Aktsionerlik jamiyatlari	152	227	223	75	28	3
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	117	184	325	396	162	75
Xususiy korxona	103	827	1252	981	1038	902
Xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar (mlrd.so'm)	14,3	23,2	43,6	56,1	78,4	80,5

Xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar taqsimotining tarkibi (%)

Taqsimlanish yo'nalishlari	2003	2004	2005
Respublika byudjeti	32,0	39,7	42,7
Mahalliy byudjet	8,1	19,9	10,6
Savdo-sanoat palatasi	4,9*	3,4	2,2
Davlat monopoliyadan chiqarish qo'mitasi	-	1,0	0,6
Xususiylashtirilayotgan korxonalar	8,1	3,3	1,1
Alohida hukumat qarorlari asosida taqsim-langan	46,9	37,1	42,8
JAMI	100	100	100

Jadval ma'lumotlariga e'tibor qarating. Ular asosida xulosa chiqaring.

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:

1yo); 2g); 3b); 4j); 5a); 6d); 7v); 8e); 9z); 10i).

Masala va mashqlar:

1.Har bir kishiga o'rtacha to'g'ri keladigan mahsulot(mehnat unumdorligi) davlat mulkchiligiga asoslangan korxonalarda 78000 so'm, xususiy korxonalarda 79500 so'm, qo'shma korxonalarda 127100 so'm. Demak qo'shma korxonalarda eng samarali.

2. To'g'ri javob g).

3. a), b) va v) javoblar to'g'ri

4. a) Vaqtincha egalik, nazorat qilish, foydalanish, boshqarish, tasarruf qilish va daromad olish huquqi.
   b) Egalik qilish, foydalanish va boshqarish, tasarruf qilish huquqi.
   v) Foydalanish huquqi.
   g) Egalik qilish, tasarruf qilish va foydalanish huquqi.
   d) Qarzini to'lash javobgarligi, mulkdan qarzini to'lash uchun foyda-lanish huquqi.
   e) Tasarruf qilish, meros qoldirish huquqi.
   j) Mulk huquqi buzildi.
   z) Egalik qilish, tasarruf qilish huquqi.
   i) Mulk huquqi buzildi.
   k) Tashqi muxitga, birovga zarar keltiradigan tarzda foydalanish usullarini taqiqlash huquqi.
   l) Egalik qilish tasarruf qilish foydalanish huquqi.

5. Ortiqchasi oilaning o'zi foydalanayotgan uy anjomlari, u shaxsiy mulk. Qolganlari xususiy mulk, ular daromad topish uchun foydalaniladi.

T/N

1.T (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 53-modda); 2T(54-modda); 3T(55-modda); 4T; 5N(institutsional yo'nalish namoyondalari kiritishgan); 6T; 7T.

Testlar:

1a); 2a); 3v); 4b); 5d); 6g).

II BO'LIM. BOZOR IQTISODIYOTI NAZARIYASI ASOSLARI

6-mavzu. Iqtisodiy tizimda tovar va pul

Asosiy tayanch tushunchalar

1. Natural xo'jalik
2. Tovar xo'jaligi
3. Tovar
4. Naflilik
5. Me'yoriy naflilik
6. Pul massasi
7. Likvidlik darajasi

a) Insonning biror-bir ehtiyojini qondirib, ayirboshlash (sotish) uchun ishlab chiqarilgan ne'matga aytiladi.

b) Mahsulot ishlab chiqaruvchining o'z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xo'jalik yuritishning yopiq shakli.

v) Tovar ishlab chiqarishga asoslangan, ishlab chiqarish bilan iste'mol bozor orqali bog'lanadigan xo'jalik yuritish shakli.

g) Xaridorning o'z ehtiyojini qondirish, ne'matni iste'mol qilishdan oladigan qoniqishi.

d) Pul va naqd pulga aylantirish imkoniyati turlicha bo'lgan naqd bo'lmagan pul va kvazi pullar, qimmatli qog'ozlar.

e) Qo'shimcha iste'mol qilingan mahsulotdan qo'shimcha olinadigan naf.

yo) Pul massasini naqd pulga aylantirish imkoniyati.

Masala va mashqlar

1. Quyidagi sanab o'tilgan ne'matlardan qaysi birlari iqtisodiy, qaysi birlari noiqtisodiy ne'matlarga ajratiladi?

a) siz nafas olayotgan havo;
b) qishda yoqqan qor;
v) restoran, barlar va boshqalarda ishlatilayotgan muz;
g) qishda ariqlardagi muz;
d) uyingiz yaqinidagi buloq suvi;
e) chinni idishlar tayyorlashda ishlatiladigan tuproq;
yo) bog'ingizda ekilgan daraxt.
Javob bering va uni asoslang.

2. Barcha iqtisodiy ne'matlarning nafliligi haqida qanday fikr yuritish mumkin? Masalan, narkotiklar, spirtli ichimliklar, pornografiya, nafaqat insonning jismiga balki ruhini sog'lomligiga ham qattiq zarar etkazadi! Siz mana shu fikrga qo'shilasizmi? Iqtisodiyot nazariyasida naflilik deganda nimani tushunish kerak?

3. Sizda 1 mln. so'm naqd pul bor. Do'stingizda esa shuncha so'mlik aktsiyalar bor. Ikkinchi do'stingizda 1 mln. so'mga baholangan dala hovli bor. Kimning

mulki yuqori darajada likvidli? Doimo mulkni likvidli shakliga qarab saqlash ratsional hisoblanadimi?

4. Topqirlik mashqi.

Katakchalarga mos ravishda iqtisodiy tushunchalarning harfini joylash-tiring.



1) insonning biron-bir ehtiyojini qondirib, ayirboshlash uchun ishlab chiqarilgan ne'mat;

2) raqobatlashuvchi tomonlar;

3) sotuvchi va xaridorning tovar, ish, xizmatlarni pul vositasida ayirboshlash munosabati, ya'ni oldi-sotdi aloqalari va ularni ma'lum bir tartib asosida amalga oshiriladigan joy.

4) Er va boshqa tabiiy resurslar keltiradigan daromad;

5) xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xo'jalik va moliyaviy operatsiyalarining to'g'ri yuritilishi, ularni qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlarga mosligi, talabga javob berishini tekshirish va qonunda belgilangan boshqa xizmatlar ko'rsatishni o'rganadigan fan;

6) pul mablag'lari bilan ta'minlangan ehtiyojni bozorda namoyon bo'lishi yoki to'lov qobiliyatiga ega ehtiyoj;

7) savdo-sotiq ishlari, tovarlar narxi kotirovkasini aniqlash, narx oshkoraligini ta'minlpshga xizmat qiluvchi tijorat muassasasi;

8) biror ish yuzasidan keyinchalik hisob-kitob qilish sharti bilan oldindan beriladigan pul, oziq-ovqat va h.k;

9) ayirboshlash, olish-sotish bilan bog'liq muomala, savdo-sotiqdan tushgan pul, oldi-sotdi jarayonida narx ustida tortishuv, qiyishuv;

10) er egasiga mahsulot shaklida to'lanadigan renta;

11) biror narsa yoki kishi haqida boshqalarni ishontirib, mas'uliyatni o'z zimmasiga oluvchi, kafolat beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

12) biror narsaning cheklangan normasi, foydalanish uchun belgilangan muayyan miqdor;

T/N

1. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi:
   1) mehnat taqsimoti va uning chuqurlashuvi;
   2) ishlab chiqaruvchilarni mulk egasi sifatida iqtisodiy alohidalashuvi sabab bo'ladi.
2. Tovar ikki xossaga ega:
   1) biror-bir ehtiyojni qondirish;
   2) ayirboshlash.
3. Naflilikni yagona o'lchov bilan o'lchash mumkin.
4. Me'yoriy naflilikni pasayib borish qonuni universal qonun. U barcha ne'matlar uchun ham umumiy.

5. Xaridor o’z pulini ratsional sarflash uchun shunday yo’l tanlaydiki, natijada eng yuqori naf olishga erishadi.

Testlar

1. Quyidagilardan qaysi biri noiqtisodiy ne’mat hisoblanadi?
   a) harbiy kema;
   b) teatr, kontsert zali;
   v) bilim, malaka;
   g) quyosh nuri;
   d) ko’prik, yo’l;

2. Buyuk Aristotel har xil iste’mol qiymatlari, ya’ni tovarlarni ayirboshlash uchun nima bo’lish kerak deydi:
   a) tenglik bo’lishi, tenglik bo’lishi uchun esa taqqoslash mumkin bo’li-shi kerak;
   b) tovar miqdorini o’lchashni bilish kerak;
   v) har xil tovarlarni ayirboshlash uchun miqdor jihatidan umumiy o’lchov birligini topish kerak;
   g) ayirboshlash uchun narxni adolatli bo’lishini ta’minlash kerak;
   d) tovarlarni ayirboshlash uchun ularning nafliligini tengligini ta’minlash kerak.

3. Qaysi nazariyada tovarning qiymati unga sarflangan ijtimoiy zaruriy mehnat xarajatlari bilan o’lchanadi deyiladi?
   a) marjinal nazariyasida;
   b) klassik nazariyasida;
   v) ratsionalistik nazariyasida;
   g) institutsional nazariyasida;
   d) neoliberalizm nazariyasida.

4. Qaysi nazariyada tovarning qiymati uning naf keltirishiga qarab, xaridorning iqtisodiy psixologik nuqtai nazaridan aniqlanadi deyiladi?
   a) marjinal nazariyada;
   b) klassik nazariyada;
   v) ratsionalistik nazariyada;
   g) institutsional nazariyada;
   d) neoliberalizm nazariyada;

5. Naflilikni pasayib borishi qonunini amal qilishini izohlashda quyidagilardan qaysi biri to’g’ri kelmaydi?
   a) qonunning amal qilishi qisqa muddatli davrga xos;
   b) universal qonun bo’lib, doimo amal qiladi;
   v) amal qilish doirasi cheklangan bo’lib, shaxsiy extiyojni qondira-digan, eng avvalo kundalik ehtiyojlarni qondiradigan tovar, xiz-matlarga tegishliligi;
   g) ko’plab tovarlarga nisbatan qo’llab bo’lmaydi;

d) naflilikni baholovchi yagona o'lchov, ko'rsatkich yo'q;

6. Hozirgi zamon pulining qadr-qimmati …
   a) undagi oltin miqdori;
   b) narxlar darajasi;
   v) mutloq likvidliligi;
   g) muomaladagi pul miqdori;
   d) mamlakatning oltin zahirasi bilan o'lchanadi.

7. Pul agregatlari, bu …
   a) likvidlik darajasi turlicha bo'lgan barcha pul turlarini muayyan nisbatlardagi yaxlit massasi;
   b) naqd pullar va elektron pullarning ma'lum nisbatdagi pul massasi;
   v) cheklar, qimmatli qogozlar kompleksi;
   g) naqd bo'lmagan pullarning ma'lum nisbatdagi massasi;
   d) naqd pullar va qimmatli qorozlarning ma'lum nisbatdagi massasi
8. Demonitizatsiya deganda …
   a) qog'oz pullarning qadrsizlanishi;
   b) pulni yaroqsiz holga kelishi;
   v) qogoz pulni erkin ravishda oltinga almashtirish;
   g) pulning baho masshtabini almashtirish;
   d) oltinning pul funktsiyasini bajarishini to'xtatilishi tushuniladi.

Tarqatma materiallardan namunalar:
1-tarqatma material



Qiymat shakllari	Nisbiy	Ekvivalent
Oddiy , tasodifiy	1 Qop don	1 ta bolta
To'la yoki kengaytirilgan	20 metr bo'z	1 ta kostyum yoki 2 qop don 2 ta bolta
Umumiy	1 ta kostyum 2 qop don 2 ta bolta	20 kg tuz
Pul	20 metr bo'z 1 ta kostyum 2 ta bolta	5 gr. oltin

Sizningcha, qaysi yondashuv haqiqatga yaqin?

2-tarqatma material

Pulning funktsiyalariga diqqat qiling. Pulga klassik va hozirgi zamon iqtisodiy nazariyasi nuqtai nazaridan berilgan tariflarni solishtiring.

O'z fikringizni bildiring.

Pulning funktsiyalari



Pul bu –umumiy ekvivalent rolini o'ynovchi maxsus tovar.

Hozirgi zamon pul tizimida

pulning funktsiyalari



Hukumat tomonidan belgilangan har qanday tovar (xizmatga) ayirboshlash yoki qarz to'lashga qabul qilinadigan har qanday vosita (narsa) pul deyiladi.

Har ikki tarif o'rtasida farq bormi? Izohlang.

3-tarqatma material



Pul turlarini yana qanday guruhlarga ajratgan bo'lar edingiz?

Javoblar:

Asosiy tayanch tushchunchalar:

1b); 2v); 3a); 4g); 5v); 6d); 7e)..

Masala va mashqlar:

1) a), b), g), d) - noiqtisodiy ne'matlar
v), e), yo) - iqtisodiy ne'matlar

2. Naflilik – bu tovarning inson ehtiyojini qondirish xususiyati. Ma'naviy-axloqiy jihatdan berilgan baholar qanday bo'lishidan qat'i nazar uni hisobga olinmaydi.

3. Sizni mulkingiz likvidli. Lekin inflyatsiya, noaniqlik sharoitida mulkning asosiy qismini likvidliligiga qarab saqlashning ma'nosi yo'q.

4. Topqirlik mashqi: 1.Tovar; 2. Raqib; 3. Bozor; 4. Renta; 5. Audit;

6. Talab; 7. Birja; 8. Avans; 9. Savdo; 10. Obrok; 11. Kafil; 12. Limit;

T/N

1T; 2T; 3N; 4N; 5T.

Testlar:
1g); 2a); 3b); 4a); 5v); 6g); 7a); 8d).

7-mavzu. Bozor iqtisodiyoti va uning umumiy tasnifi. Bozor iqtisodiyotida noaniqlik va risk

Asosiy tushunchalar:

1. Tub belgilar
2. Bozor (aralash) iqtisodiyoti
3. Dastlabki bozor iqtisodiyoti
4. Erkin(klassik) bozor iqtisodiyoti
5. Deformatsiyalashgan bozor iqtisodiyoti
6. Bozor iqtisodiyoti belgilari
7. Bozor iqtisodiyoti ob'ekti
8. Bozor iqtisodiyoti sub'ektlari

a) Davlatning mulk monopoliyasi, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan markaziy rejalashtirilgan iqtisod.

b) Har bir hodisa, jarayon, tizimning boshqalardan ajratib turuvchi, uning sifat jihatdan farqlanishiga sabab bo'lgan xususiyatlarga aytiladi

v) Turli – tuman mulkchilik va iqtisodiy faoliyat erkinligiga, aralash tarzda tartibga solishga asoslangan, har bir insonni o'z faoliyat natijasini o'ylab, oqilona xo'jalik yuritishga undovchi demokratik iqtisodiyot.

g) Munosabatlar va aloqalar nimaga qaratilganligini, nimaga nisbatan yuz berishini ifodalaydi. Bozor iqtisodiyotining ob'ekti tovar va pul (pul massasi)dir.

d) Tovar ishlab chiqarish vujudga kelishi bilan shakllana boshlagan, oddiy tovar ishlab chiqarish hukmron iqtisodiyot.

e) Yakka xususiy mulkchilik, erkin raqobatchilik, bozorga xos munosabatlar hukmron iqtisod. Uning dastlabki bosqichi bilan keyingi bosqichlari farqlanadi.

yo) Munosabatlar, aloqalar kimlar o'rtasida yuz berishini ifodalaydi. Bozor iqtisodiyoti sub'ektlari: uy xo'jaligi, firma (korxona), davlat,

j) Bozor iqtisodiyotining boshqa sotsial-iqtisodiy tizimlardan farqlanishiga sabab bo'luvchi xususiyatlari.

Masala va mashqlar

1. Ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotda barcha ishlar yuqoridan beriladigan buyruq bilan amalga oshiriladi. Bu qanday oqibatlarga olib kelishini quyidagi masala yordamida ko'rib chiqamiz.

Shaharda bo'yi 64 m. va eni 64 m. avtomobil to'xtash joyi bor. Mamlakatda 3 xil avtomobil bo'lib, engil avtomobil eni 2 m. va bo'yi 4 m. joy egallasin. O'rtacha avtomobillar esa eni 3 m. va bo'yi 6 m., katta avtomobillar eni 4 m. va bo'yi 8 metrli joyni egallasin deylik. Mashinasini to'xtash joyiga qo'ymoqchi bo'lgan uchchala turdagi avtomobil shofyorlari juda ko'p. Aytaylik,

a) avtomobil to'xtash joyini eng qisqa muddat davomida to'ldirish zarur degan buyruq olindi. U holda avtomobillar qanday tarzda joylashtirilgan bo'lardi? Nima sababdan, izohlang.

b) avtomobil to'xtash joyiga eng ko'p mashina sig'dirishiga ko'ra musobaqa g'olibiga mukofot beriladi degan buyruq olindi. Unday buyruq nimaga olib keladi, izohlang.

v) barcha avtomobil turlari teng miqdorda joylashtirilsin, degan buyruq olindi. U xolda nechtadan avtomobil sig'ishi mumkin, izohlang.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu masala qanday hal etilgan bo'lar edi? Fikringizni bildiring.

2. Korxonada har bir kattalar paltosini tikish uchun moddiy xarajatlar 70 ming so'mni tashkil qiladi. Agarda yoqasiga mo'yna o'rnatilsa 140 ming so'mga etadi. Bolalar paltosi uchun esa 30 ming so'm xarajat qilinadi. Mehnat sarfi bir xil bo'lib, o'rtacha 30 ming so'mga to'g'ri keladi. Agar har bir paltodan olinadigan foyda xarajatlarga nisbatan 10% ni tashkil qilsa, korxona rejani tezda bajarish uchun qanday palto va qancha tikkan bo'lar edi. Korxona quvvati kuniga 50 ta paltoga teng. Ish kuni 24 kun va bir smenali deb hisoblang.

1) Agar mo'yna yoqali, oddiy yoqali va bolalar paltolariga talab teng desak, talab bo'yicha palto tikkanda korxona rejani necha foizga bajargan bo'lar edi?

2) Qanday paltolarni tikish bilan korxona rejani bajarishi mumkin? a) U qanday oqibatga olib keladi? b) Bozor iqtisodiyotida bu masala qanday hal etiladi?

3. Ishlatilgan kompyuterlar bozorida ikki guruh sotuvchilar mavjud. Bir guruh sotuvchilar kam ishlatilgan, hali ancha-muncha foydalansa bo'ladigan, texnik jihatdan yaxshi kompyuterlar bilan savdo qilishadi. Sotuvchilar ularni 400 ming so'mdan kamiga berishmaydi. Potentsial xaridorlar esa 450 ming so'mgacha to'lashga tayyor.

Ikkinchi guruh sotuvchilar o'z resursini deyarli to'la ishlatib bo'lgan kompyuterlarni sotishadi. Ular 150 ming so'mdan yuqori har qanday narxga sotishga tayyor. Iste'molchilar bunday kompyuterlarga 180 ming so'mdan ortiq pul to'lashmaydi. Axborot asimmetriyasi tufayli bozorda kompyuterlarni sotish bahosi qancha bo'ladi? U qanday oqibatlarga olib keladi?

4. Siz «Panasonic» firma magazinidan videomagnitofonni 500 ming so'mga sotib olishingiz mumkin. Xuddi shunday magnitofonni «Ippodrom» bozoridagi audio-video texnika rastasidan 400 ming so'mga olishingiz mumkin. Boshqa sharoitlar teng. Bu farqni sababi nimada deb o'ylaysiz?

T/N

1. Ma'muriy buyruqbozlik tizimi sotsialistik doktrinaga asoslangan bo'lib, uning o'ziga tortadigan jihati, kishilik jamiyati doimo diqqatini qaratgan 2 muammoni echishni zimmasiga olishi bo'lib, bu:

a) notinchlikni yo'q qilish;

b) jamiyat hayoti va har bir kishining hayotini jamiyatning yuqori organlari tomonidan tartibga solish, iqtisodiyot va jamiyatni boshqa sferalarini ratsional va ilmiy boshqarish orqali insonni baxtiyor yashashini ta'minlash.

2. Ma’muriy buyruqbozlikka tayangan sotsializm kishini o’ziga tortadigan g’oyani ilgari surishiga qaramay, inqirozga yuz tutdi. XX asr tarixida markaziy o’rinni real sotsialistik jamiyatning vujudga kelishi, rivojlanishi, inqirozi egallaydi.

3. Ma’muriy buyruqbozlikka tayangan sotsializmni inqirozga uchrashiga sabab, uning xususiy mulkni, bozorni, raqobatni tan olish, jamiyatni demokratiyalashuvi printsiplariga amal qilishi bo’ldi.

4. Markazdan rejalashtirishga asoslangan sotsialistik tizim xo’jalik yuritishda balanslashtirish, muvozanat buzilgani, hayot kechirish pastligi, oxirgi o’n yillikda bo’lsa, fan – texnika taraqqiyotini qabul qilmasligi bilan ajralib turgan.

5. Bozor iqtisodiyoti hozirgi davrga qadar o’z rivojlanishida qator bosqichlarni bosib o’tdi.

6. Bozor (aralash) iqtisodiyot mukammal iqtisodiyot bo’lgani uchun ham umuminsoniy iqtisodiyot deb ataladi.

7. Bozor iqtisodiyotida erkin iqtisodiy faoliyat yuritishning asosi mulkning turli – tumanligi va uning xuquqiy jihatdan bir xilda muhofaza qilinishidir.

8. Bozor iqtisodiyotining zaif tomonlarini davlatning ko’rgan chora tadbirlari orqali yo’qotiladi.

9. Iqtisodiy nazariyada odamlarning tavakkalchilik xatariga munosabat-larini hisobga olib, uch guruhga: tavakkalchilikka neytral, tavakkal-chilikka o’ch, ishqivoz; tavakkalchilikni yoqtirmaydigan yoki unga qarshilarga bo’linadi.

10. Odiljon uyining yonidagi magazindan 70 ming so’mga kostyum – shim olmay, bozorga borib kelish uchun 1000 so’m sarflab, bozordan xuddi shunday kostyum – shimni 68 ming so’mga sotib oldi. U to’g’ri qildi. Bunda sanoq nuqtasi effekti hech qanday rol o’ynamaydi.

11. Bozorda “Nobop tanlov”ni yuz berishidan manfaatdor shaxslar axborotni asimmetrik tarqalishiga harakat qilishadi.

12. Bozor iqtisodiyotida olib – sotarlik va chayqovchilik bo’lmaydi.

Testlar

1. Sotsialistlar inson tengligi deganda eng avvalo birinchi o’ringa … ni qo’yishgan.

a) moddiy tenglik;
b) huquqiy tenglik;
v) qonunlar oldidagi tenglik;
g) siyosiy xuquqda tenglik;
d) hududiy tenglik;

2. Davlat mulk monopoliyasi va majburiy rejalashtirishni tekischilik g’oyasi bilan qo’shilib ketishi:

a) moddiy ne’matlarning adolatli taqsimoti;
b) moddiy ne’matlarning noiqtisodiy taqsimoti;
v) nomoddiy ne’matlarning adolatli taqsimoti;
g) nomoddiy ne’matlarning iqtisodiy taqsimoti;
d) jamiyatda adolat o’rnatilishiga olib keldi;

3. Bozor (aralash) iqtisodiyoti asosini … tashkil etadi.
a) mulkchilikning turli – tumanligi va ularning tengligi qonun tomonidan birday muhofaza qilish;
b) xususiy mulkchilikni qonun asosida alohida qo'llab – quvatlanishi;
v) hamkorlikdagi mulk alohida qo'llab – quvatlanishi;
g) jamoa mulkiga alohida e'tibor berilishi;
d) davlat mulkining asosiy o'rin tutishini ta'minlanishi;

4. Bozor iqtisodiyotini harakatlantiruvchi kuch, bu - …
a) iqtisodiy faoliyat erkinligi, xususiy mulkning ustunligi, daro-madlarni cheklanmaganligi;
b) iqtisodiy faoliyat erkinligi, raqobat, daromadlarni cheklanmagan-ligi;
v) raqobat, davlatning qo'llab-quvvatlashi, daromadlarni cheklanma-ganligi;
g) iqtisodiy faoliyati erkinligi, davlatning qo'llab quvvatlashi, daromadlarni cheklanmaganligi;
d) raqobat, iqtisodiy faoliyati erkinligi, xususiy mulk ustunligidir.

5. Bozor iqtisodiyotining ob'ekti:
a) tovar, korxona;
b) tovar, jamoa xo'jaligi;
v) tovar, pul (agregati)
g) pul, korxona;
d) pul, pul kompleksidir.

6. Bozor iqtisodiyotining sub'ekti:
a) firma, korxona, uy xo'jaligi, tovar;
b) firma, korxona, uy xo'jaligi, davlat, pul;
v) firma, korxona, uy xo'jaligi, moliyaviy institutlar;
g) firma, korxona, davlat, moliyaviy institutlar;

7. Bozor iqtisodiyotining muhim afzalliklaridan biri cheklangan resurslar sharoitida:
a) iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash;
b) resurslarni qimmatga sotish;
v) resurslarni arzon sotib olish;
g) resurslarni qimmatga sotib olish;
d) resurslarni arzon sotishni ta'minlash.

8. Faoliyat natijasi qanday bo'lishi ehtimolini bilgan holda, bari bir oqibati qanday tugashini aniq, aytib bo'lmaydigan vaziyat, ya'ni noaniqlik … ni ifodalaydi.
a) tavakkalchilik yutug'i;
b) risk mardlik belgisi;
v) xatarning namoyon bo'lishi;
g) tavakkalchilik xatari;
d) tavakkalchilik natijasi;

9. Biz ko'pincha sifatsiz tovar sotib olganimizda aldagan sotuvchini jazolashga urunmaymiz. Sababi, …

a) yuz – xatir qilamiz;
b) rahmimiz keladi;
v) asabimizni buzishni xohlamaymiz;
g) olgan nafimiz, qilgan transaktsion xarajatlarimizni qoplamaydi;
d) sifatsiz bo'lsa ham zarur;

10. Chayqovchilik faoliyati …

a) qonun asosida ish yurituvchi tadbirkorlar uchun riskni orttiradi;
b) narxlarni beqarorligi tendentsiyasini kuchaytiradi;
v) iqtisodiy bum va retsessiyaga olib keladi;
g) doimo foyda olishga olib keladi;
d) tadbirkorlar uchun riskni kamaytiradi.

Tarqatma materiallardan namunalar:
1-tarqatma material

Bozor iqtisodiyotining tub belgilari:

- Mulkchilikning turli –tumanligi va huquqiy jihatdan tengligi. Xususiy mulk ustuvorligi;
- Iqtisodiy erkinlik**.** Narxlarning liberallashuvi;
- Manfaatlarning rag'batlantirilishi;
- Iqtisodiyotga davlat aralashuvi cheklanib, bozor mexanizmiga keng yo'l berilishi;
- Tadbirkorlikni qo'llab quvvatlanishi;
- Raqobatchilik muhitining yaratilishi.

Bozor iqtisodiyoti afzalliklari va kamchiliklari.

Afzalliklari:

- Resurslarni samarali taqsimlaydi.
- Iqtisodiy erkinlikni ta'minaydi.
- Bozorning moslashuvchanligi va safarbarligining yuqoriligi.
- Tejamli xo'jalik yuritishni rag'batlantiradi va isrofgarchilikka barham beradi.
- Mulkdan asrab avaylab foydalaniladi.
- Fan – texnikalarni tezda joriy qilinishga imkon yaratadi.
- Tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni rag'batlantiradi.
- Raqobat asosiy o'rinda turadi.
- Ishlab chiqarish iste'molchi manfaatlariga, xaridor izmiga bo'ysinadi.
- Daromad topishning cheklanmaganligi.

Kamchiliklari:

- Ish bilan ta'minlash va narxlar barqarorligini kafolatlamaydi.

- Aholining tabaqalanishini kuchaytiradi.
- Fanda fundamental tadqiqotlar olib borish imkoniyatlarini cheklaydi.
- Foyda keltirmaydigan yoki zarar keltiradigan ijtimoiy tovar (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishni rag'batlantirmaydi.
- Qayta tiklanmaydigan resurslarni asrash, tabiatni, ekologiyani muhofaza qilishni ta'minlamaydi.
- Monopolistik tendentsiya mavjud.
- Doimo noaniqlik va riskning mavjudligi.

Siz, ko'rsatilganlarga yana nimalarni qo'shgan bo'lar edingiz?

2-tarqatma material

Bozor iqtisodiyotining sub'ektlari.



Uy xo'jaligi: bir yoki bir necha kishidan iborat oila. U mehnat resurslari etkazib beradi. Boshqa resurslarning egasi hisoblanadi. Yaratilgan mahsulotlar iste'molchisi.

Firma, korxona: iqtisodiy faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlari bo'lib, iqtisodiy resurslarni sotib olib, ishlab chiqarish omillariga aylantiradi. Ulardan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishda foydalaniladilar. Foyda olish uchun harakat qiladilar.

Moliyaviy institutlar: bozorning firma (korxona)larning normal faoliyat yuritishini ta'minlaydilar.

Davlat: uning barcha idora, mahkama va tashkilotlari mamlakatning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun huquqiy, siyosiy hokimiyat orqali xo'jalik sub'ektlarini, bozorni zarur darajada nazorat qiladi. Shu bilan birga ishlab chiqarish va iste'mol bilan ham shug'ullanadilar.

Javoblar:

Asosiy tushunchalar:

1b), 2v), 3d), 4e), 5a), 6j), 7g), 8yo);

Masala va mashqlar:

a) 128 ta katta avtomobil joylashtiriladi. Kichik va o'rtacha avtomo-bil egalari norozi bo'ladilar.
b) 512 ta kichik avtomobil joylashtiriladi. Katta va o'rtacha mashina egalari to'xtash joyiga qo'yilmagani uchun norozi bo'ladilar.
v) Har biridan 70 tadan avtomobil joylashtiriladi, lekin 32 kv. metr joy bo'sh qoladi. Bozor iqtisodiyotida sharoitga ko'ra talab va taklif nisbatiga qarab qaror qabul qilinadi.

2. 24 ish kunida o'rtacha 1200 ta palto
1) teng miqdorda tikilsa, reja 67,3% bajariladi.
2) korxona eng qimmat mo'yna yoqali paltoni tikib, rejani 104,1% ga bajaradi.
a) Natijada nisbatan arzon palto va bolalar paltosi etishmaydi yoki umuman yo'q.
b) Bozor iqtisodiyoti sharoitida palto bozorning talabiga ko'ra ishlab chiqariladi. Etishmasa ishni 2 smenada tashkil qilish mumkin yoki aksincha ortiqcha bo'lsa, palto tikishni kamaytirish mumkin, ya'ni bozor talabiga moslashgan holda ishlab chiqariladi.

3. Sotish narxi 315 ming so'm darajasida o'rnatiladi. Bu o'z navbatida sifatli tovarni sifati past tovarlar qisib chiqarishiga olib keladi.

4. Magnitofonning sifati haqida axborotning etarli emasligi katta risk bilan bog'liq.

T/N

1T; 2T; 3N; 4T; 5T; 6N; 7T; 8N; 9T; 10N; 11T; 12N.

Testlar

1a); 2b); 3a); 4b); 5v); 6d); 7a); 8g); 9g).

8-mavzu. BOZOR IQTISODIYoTIGA O'TISh DAVRI VA UNING O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIYaTLARI

Asosiy tushunchalar

1. Uklad
2. Ijtimoiy – iqtisodiy uklad
3. Ko'p ukladli iqtisodiyot
4. Tamoyil
5. Kontseptsiya
6. Iqtisodiy islohotlar.
7. O'tish davri
8. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish kontseptsiyasi

a) Mamlakatning iqtisodiy sektorida ishlab chiqarish omillariga mulkchilikning biron – bir shakli, tartibga solish mexanizmiga muvofiq vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar, xo'jalik yuritish shakli.

b) Faoliyat uchun asos qilib olinadigan qonun – qoida, nuqtai nazar, qarashlar

v) Kishining xayot kechirishi, xo'jalik yuritish printsipida o'rnatil-gan yoki joriy qilinadigan tartib.

g) Turli mulk shakllari va har xil xo'jalik turlari yaxlitligidan tashkil topgan iqtisodiyot.

d) Iqtisodiyotda o'tkazilgan, amalga oshirilgan tub o'zgartirishlar.

e) Qarashlar, fikr yuritish, dunyoni anglash usuli.

yo) Markaziy rejalashtiriladigan ma'muriy – buyruqbozlikka asos-langan totalitar iqtisodiy tizimdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning qonun – qoidalari va uning O'zbekistondagi o'ziga xos xususiyatlariga oid ilmiy qarashlar majmui.

j) Ma'muriy buyruqbozlik tizimi o'rniga bozor iqtisodiyotiga xos mexanizmni shakllantirish uchun zarur vaqt yoki postsotsializm, postkom-munizmning bozor iqtisodiyotiga transformatsiyasi davri.

Masala va mashqlar

1. Kuyidagilarni o'qing, diqqat qiling: bu o'zgarishlar iqtisodiy islohotlarning qaysi sohalariga xos.

1) Mahalladagi sartaroshxona, do'koncha, poyafzal tuzatish ustaxonasi xususiylashtirildi.
2) Moliya Vazirligi va Markaziy Bankning tizimi va vazifalari o'zgartirildi.
3) Kiyim – kechaklarga qat'iy narx belgilash bekor qilindi.
4) Yilni zarar bilan yakunlagan "Besh buloq" shirkati asosida fermer xo'jaliklari tashkil etildi.
5) Respublikamizda 1995 yilga kelib shaxsiy tomorqa uchun ajratilgan er 700 ming gektarga etdi.
6) Respublika tovar, xom ashyo birjasi tashkil etildi.
7) Xom ashyo narxlarini davlat tomonidan tartibga solish to'xtatildi.
8) Toshkent to'qimachilik kombinati aktsionerlik jamiyatiga aylantirildi.

9) Respublika fond birjasi tashkil etildi.
10) Uy – joy fondi xususiylashtirildi.
11) Bojxona tarmoqlari ishlab chiqildi.
12) Ruxsatnoma asosida chetga chiqariladigan mahsulot turlari 1994 yilning o'zidayoq 74 tadan 11 taga kamaytirildi.
13) Ish haqi va pensiyalarning eng kam miqdori bir necha marta oshirildi.
14) 2000 yili O'zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil qilindi.
15) Respublikamizda non va non mahsulotlariga dotatsiyalar saqlab qolindi.
16) Valyuta birjasi tashkil etildi.
17) O'zbekiston 1994 yili Tariflar va savdo Bosh Bitimi (GATT)da kuzatuvchi maqomini oldi
18) Ayollarga 54 yoshdan pensiyaga chiqish joriy qilindi.
19) Respublika ko'chmas mulk birjasi tashkil etildi.

2. Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Tushunchalar ichida guruhga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlang va uni ro'yxatdan chiqaring. Sababini izohlang.

Tushunchalar: Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi, davlat — bosh islohotchi, qonunlarning ustuvorligi, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni zarur axborot bilan ta'minlash, bozor iqtisodiyotiga asta-sekin, bosqichma-bosqich o'tish.

T/H

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning klassik modelining o'zi 3 guruhga bo'linib, uning mezonlari qilib:
a) davlat dasturlarining maqsadi;
b) iqtisodiyotni tartibga solish usullari;
v) iqtisodiyotda davlat sektorining ulushi;
g) ish haqidagi farqlar olingan;
2. Sotsial bozor iqtisodiyoti modeli guruhiga kiruvchi mamlakatlarning mulkda davlat ulushi nisbatan pastligi, jamiyat tabaqalanishining kuchayishi bilan farqlanadi.
3. Aralash yoki erkin bozor iqtisodiyoti modeli davlat tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida ahamiyat berishi; iqtisodiyotda davlat mulki hissasining kamligi; ish xaqidagi farq kattaligi va aholi tabaqalanishi kuchliligi bilan ajralib turadi.
4. Korporativ iqtisodiyot modeli davlatning yirik biznes manfaatini himoya qilish, asosiy ustuvor tarmoqlarni aniqlab, ularning rivojlanishiga yordam berishi, davlat mulki hissasi pastligi ish haqidagi farq katta emasligi bilan xarakterlanadi
5. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning tarixiy nuqtai nazardan iqtisodchilar ikki guruxga bo'ladilar:
1) Ґarbiy Evropa va boshqa rivojlangan mamlakatlar yo'li;
2) Sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'li;
6. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning Janubiy Koreya modeli boshqa modellardan davlatning iqtisodiyotni tartibga soluvchi ta'siri nihoyatda kuchliligi bilan ajralib turadi.

7. Xitoy modeli iqtisodiy islohotlarni qishloq xo'jaligini isloh qilishdan boshlanishi bilan xarakterlanadi.

8. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'zbek modeli ham bir tomondan, bozor iqtisodiyoti modellarining umumiy jihatlariga asoslanadi, shu bilan birga boshqa mamlakatlardan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

9. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarishda boshqa mamlakatlar yo'lidan borildi.

10. Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichidagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan birinchi va ehtimolki, asosiy vazifa davlat mulkini xususiylashtirish yo'lida boshlangan ishni oxiriga etkazishdir.

Testlar

1.O'zbekiston modelining o'ziga xos tomonlari bozor iqtisodiyotiga o'tishning quyidagi tomoyillarida o'z aksini topgan.

a) Iqtisodiyotning mafkuradan xoli, siyosatdan ustuvorligi; Davlat – bosh islohotchi; Qonunlar ustuvorligi; Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayo-nida kuchli ijtimoiy siyosati yuritish; Bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o'tish.

b) Iqtisodiyotning mafkuradan xoli siyosatdan ustuvorligi; Davlat – bosh islohotchi; Erkin narxlar ustuvorligi; Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish; Bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o'tish.

v) Iqtisodni siyosatdan ustuvorligi; Davlat – bosh islohotchi; Qonunlar ustuvorligi; Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida erkin narxlar siyosatini yuritish; Bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o'tish.

g) Siyosatning iqtisodiyotdan ustuvorligi; Qonunlar ustuvorligi; Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida kuchli ijtimoiy siyosati yuritish; Bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o'tish.

d) Siyosatning iqtisodiyotdan ustuvorligi; Qonunlar qabul qilish ustuvorligi; Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish; Bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o'tish.

2. Iqtisodiy faoliyatni ijtimoiy hayotning birlamchi asosi ekanligi qaysi tamoyilda o'z aksini topgan?

a) Iqtisodni siyosatdan ustuvorligi;
b) Davlat – bosh islohotchi;
v) Qonunlar ustuvorligi;
g) Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish;
d) Bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o'tish.

3. Nima sababdan O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida aholini ijtimoiy himoya qilishga alohida ahamiyat berildi?

a) ishsiz qolgan aholini daromad bilan ta'minlash maqsadida;
b) ko'p bolali oilalarga yordam berish maqsadida;

v) aholii turmushi darajasini xaddan tashqari pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun;
g) bozor iqtisodiyotiga o'tishda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish tamoyilini amalga oshirish uchun;
d) qariyalarni inflyatsiya oqibatlaridan himoya qilish uchun;

4. Bozor iqtisodiyotiga o'tishni amalga oshiruvchi bosh islohotchi.
a) Jamoat tashkilotlari;
b) Siyosiy partiyalar;
v) Kasaba uyushmalari;
g) Davlat
d) Xotin – qizlar tashkiloti.

5. Prezidentimiz I.A.Karimov "Besh tamoyilning hammasi ham demok-ratik va iqtisodiy o'zgarishlarni muvoffaqiyatli isloh qilib borishda birday muhim ahamiyatga egadir, shu bilan birga …
a) Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi;
b) Davlatning bosh islohotchi bo'lishi;
v) Iqtisodiyotni mafkuradan batamom xoli qilish ustuvorligi;
g) Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish;
d) Bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o'tish tamoyili alohida e'tiborga loyiq. Bu etakchi tamoyillardan biridir. U iqtisodiy islohotlarning butun ichki mantiqini rivojlanib borishi va xarakterini belgilab beradi", – deb ta'kidlaydi.

6. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida ikkita xal qiluvchi vazifa birdaniga amalga oshirildi. Birinchisi, ma'muriy buyruqbozlik tizimi oqibatlarini engish; tanglikka barham berish; iqtisodiyotni barqarorlashtirish; ikkinchisi, respublikaning o'ziga xos sharoit va xususiyatlarini hisobga olgan holda
a) institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish;
b) bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish;
v) agrar islohotlarni amalga oshirish;
g) iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;
d) o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish.

7. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning rivojlangan mamlakatlar yo'li yoki klassik yo'li:
a) 3 guruhga;
b) 2 guruhga;
v) 4 guruhga;
g) 5 guruhga;
d) 6 guruhga bo'linadi.

8. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning klassik yo'li:
a) sotsial bozor iqtisodiyoti modeli, neoklassik modeli, korporativ iqtisodiyot modeli;

b) aralash yoki erkin bozor iqtisodiyoti modeli, korporativ iqti-sodiyot modeli;
v) sotsial bozor iqtisodiyoti modeli, aralash yoki erkin bozor iqtisodiyoti modeli, korporativ iqtisodiyot modeli;
g) sotsial bozor iqtisodiyoti modeli, aralash yoki erkin bozor iqtisodiyoti modeli;
d) sotsial bozor iqtisodiyoti modeli, aralash yoki erkin bozor iqtisodiyoti modeli, neoklassik modeli.

Tarqatma materiallardan namunalar:

1-tarqatma material

Chizmalardagi bildirilgan fikrlarga siz yana nimalarni qo'shgan bo'lar edingiz?



2-tarqatma material

Bozor (aralash) iqtisodiyotiga o'tish modelini ishlab chiqishda hisobga olingan O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekistonning qadimdan taraqqiyoti evolyutsion tarzda rivojlanishi, Osiyoda ishlab chiqarishning an'analari saqlanib qolishi:
- Dehqonchilik asosan sug'oriladigan erlarda olib boriladi;
- Ko'p ishlar jamoa bilan hashar yordamida bajarilishi;
- O'z – o'zini boshqarishning mahalla tizimi mavjud;
- Mayda ishlab chiqarish, mayda savdo – sotiqqa moyillik;
- Mayda dehqon xo'jaligini yuksak darajada tovar xo'jaligi bo'lishi.

Qator xususiyatlar bir tomondan, sotsialistik iqtisodiy tizim va ikkinchi tomondan sovet imperiyasi tarkibida rivojlanish bilan bog'liq.

O'ziga xos demografik vaziyat mavjud:
- Aholining asosiy qismi qishloqlarda yashaydi. Aholiining tarkibida yoshlar ko'p.
- Aholi milliy urf – odat, an'analarni hurmat qiladi, ular hayot tarziga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Ўзбекистон табиий ресурсларга бой мамлакат.

MDH mamlakatlarida yalpi ichki mahsulot (1991 yilga nisbatan % hisobida)

	1999	2000	2001	2002	2003
O'zbekiston	94,0	98,6	102,7	107,0	111,4
Ozarbayjon	53,3	59,3	65,1	72,0	80,1
Armaniston	72,5	76,8	84,2	95,0	108,2
Belorusiya	84,8	89,7	94,0	98,7	105,4
Gurjiston	46,7	47,6	49,8	52,5	57,1
Qozog'iston	71,0	78,0	88,5	97,2	106,1
Qirg'iziston	68,5	72,2	76,1	76,1	81,2
Moldova	41,0	42,0	45,0	48,5	51,6
Rossiya	64,4	70,8	74,3	77,8	83,3
Tojikiston	38,0	41,0	45,0	49,3	54,3
Ukraina	44,7	47,4	51,7	54,2	58,8

Jadvalni keyingi yillar ma’lumotlari bilan to’ldiring. YaIM 1991 yilga nisbatan o’sishi bo’yicha O’zbekiston MDH mamlakatlari orasida etakchilikni saqlab kelmoqda.

Jadval ma’lumotlari asosida yana qanday xulosalar chiqarish mumkin?

Manba: MDH statistika qo’mitasi ma’lumotlari va muallif hisob-kitoblari

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:

1v); 2a); 3g); 4b); 5e); 6d); 7j); 8yo).

Masala va mashqlar:

1.

1),8),10) Mulkiy munosabatlarini isloh qilishga.

4),5) Agrar islohotlar

3),7) Moliya – kredit va narx – navo islohoti

2),6),9),14),16),19) Boshqarish tizimini islox qilish va bozor infra-strukturasini yaratish

11),12),17) Tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti

13),15),18) Ijtimoiy islohotlar.

2. Guruhga taalluqli bo’lmagani beshinchisi, qolganlari «O’zbekiston modeli»ning o’ziga xos tomoni, boshqa mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o’tish modellaridan farqini mujassamlashtiruvchi bozor iqtisodiyotiga o’tish tamoyillari

T/N

1T; 2N; 3T; 4T; 5N; 6T; 7T; 8T; 9N; 10T;

Testlar:

1a); 2a); 3v); 4g); 5d); 6b); 7a); 8v).

9-mavzu. Bozor va uning tuzilishi

Asosiy tayanch tushunchalar

1. Bozor
2. Bozorning to'yinish darajasi
3. Bozor tuzilishi
4. Bozor hajmi
5. Bozor infrastrukturasi
6. Tovar, xom ashyo birjasi
7. Milliy bozor
8. Jahon bozori
9. Bozor segmenti

a) Har xil mezonlar asosida bozor tarkibini turkumlash.

b) Nazariy jihatdan sotuvchi va xaridorning tovarlarini pul vosita-sida ayirboshlash yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar, aloqalardir.

v) Bozorning talabni qondirish darajasini ko'rsatadi.

g) Turli-tuman bozor sub'ektlari o'rtasida ayirboshlashni normal amalga oshirilishini ta'minlaydi.

d) Bozordagi tovaroborot hajmi bilan aniqlanadi.

e) Mehnat orqali bir-biriga bog'langan turli mamlakatlar o'rtasida barqaror ayirboshlash munosabatlaridir.

yo) Har bir mamlakatning milliy chegarasi doirasidagi bozori.

j) Ma'lum doirada ulgurji savdo-sotiq ishlarini bajaruvchi korxo-nadir.

z) Savdo-sotiqning shart-sharoitlariga ma'lum belgi, alomatlari, mezonlariga qarab bo'g'inlarga ajratish.

Masala, mashqlar

1. Bozorning vujudga kelishi shart-sharoitlariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

a) ijtimoiy mehnat taqsimoti;
b) pulning vujudga kelishi;
v) xususiy mulkka asoslangan tovar ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy jihatdan alohidalashuvi;
g) markazlashgan davlatning vujudga kelishi;
d) ayirboshlashning vujudga kelishi;
e) xo'jaliklarda yaratilgan ortiqcha mahsulotni sotish zaruriyati.

Sizningcha to'g'ri javob qanday bo'lishi kerak?

2. Viloyat hududida ikkita bozor mavjud bo'lib, har ikkisining maydoni 5 gektarni tashkil etadi.

Birida 1000 ta savdo o'rni bo'lib, 500 tasida kuniga o'rtacha 10 donadan o'rtacha narxi 12 ming so'mlik mol sotiladi. 300 tasida 30 ming so'mdan 5 donadan mol sotilsa, 100 tasida 5 ming so'mdan 20 donadan, qolgan 100 tasida o'rtacha 50 ming so'mlikdan oldi-sotdi qilinadi.

Ikkinchi bozorda esa 900 ta savdo o'rni bor bo'lib, rastalar o'rtasidagi yo'lak birinchi bozorga nisbatan kengroq qoldirilgan. 400 ta savdo o'rnidan kuniga o'rtacha 11 ming so'mdan 15 donadan tovar sotiladi. 300 tasida esa 20 ming so'mdan 10 donadan, 100 tasida 4 ming so'mdan 20 donadan, qolgan 100 tasi o'rtacha 55 ming so'mlik oldi-sotdi qiladi. Qaysi bozor hajmi katta? Aniqlang. Bozor hajmiga savdo o'rni, tovar miqdoridan tashqari yana qanday omillar ta'sir qiladi, ko'rsating?

3. Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Ulardan qay birini qaysi bozor iqtisodiyoti sub'ektiga: uy xo'jaligi, firma(korxona), moliyaviy institut, davlat tarkibiga kiritiladi.

a) jismoniy shaxsning shaxsiy iste'moli uchun sarflashga mo'ljal-langan bankdagi joriy raqami;
b) aktsiya egasi;
v) fermer xo'jaligi;
d) metallar birjasi;
e) Moliya instituti professor o'qituvchilari;
yo) Yo'ldoshevlar oilasi byudjeti;
j) korxonaning bankdagi joriy schyoti;
z) er ijarachisi;
i) ish qidirayotgan institut bitiruvchisi;
y) fond birjasi;
k) «Paxta bank» aktsionerlik tijorat banki.

4. Quyidagi sanab o'tilganlardan qaysi biri bozor, qaysi birlari nobo-zor aloqa faoliyatlarni bildiradi?

a) gazetaga reklama berish;
b) uy sharoitida ovqat tayyorlash;
v) davlat tomonidan ishsizlik nafaqasi tayinlash;
g) davlatning harbiy texnika sotib olishi;
d) o'z ehtiyoji uchun tomorqada kartoshka, sabzavotlar etishtirish;
e) dehqon bozorida kartoshka sotildi;
yo) bozorda sotish uchun qulupnay etishtirildi

5. Quyidagilarni diqqat bilan o'qib chiqing:

1) ayirboshlash orqali iste'mol bilan ishlab chiqarishni bog'lash;
2) iste'mol tovarlari va xizmat ko'rsatish bozori;
3) ishlab chiqarish vositalarini korxona tashkilotlarga etkazib berish orqali iqtisodiyotning moddiy asosini takror yaratish va rivojlantirish;
4) jamiyat a'zolari talab ehtiyojlarini ishlab chiqaruvchilarga etkazish;
5) resurslar bozori;
6) tovar ishlab chiqarishga ketgan sarf xarajatlarni, ularni jamiyat tomonidan qay darajada tan olinishini aniqlaydi, xarajatlarni pasaytirishga undaydi;
7) regional bozor;
8) qimmat baho qog'ozlar bozori – fond birjalari;

9) narxlarni o’zgarishi orqali talab va taklifni moslashtirish, pulni tovarlar bilan ta’minlash orqali pul muomalasini barqaror bo’lishini ta’minlash;
10) milliy bozor;
11) intellektual tovarlar bozori;
12) axborot bozori
13) xalqaro va davlatlar o’rtasidagi bir-biriga bog’liqlikni kuchay-tirish, teng huquqli iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash;
14) mehnat bozori;
15) jahon bozori;
16) ko’chmas mulk bozori.

Sanab o’tilganlardan qaysi birlari:
a) bozorning funktsiya, vazifalarini;
b) ta’sir doirasi, hududiy qamrovi jihatidan;
v) ayirboshlash munosabatlarining ob’ekti jihatidan bozor tuzilishi-ni ifodalaydi, ko’rsating?

6. Topqirlik mashqi.
Katakchalarga mos ravishda iqtisodiy tushunchalarning harfini joy-lashtiring.



1. Har xil mezonlar asosida bozor tarkibini turkumlash
2. Talab va taklifni miqdor va tarkibi jihatidan bir-biriga muvofiq kelishi.
3. Turli-tuman bozor sub’ektlari o’rtasida faoliyat yuritish, ayirbosh-lashni normal amalga oshirilishini ta’minlaydigan soha.
4. Turli – tuman mulkchilik va iqtisodiy faoliyat erkinligiga, aralash tarzda tartibga solishga asoslangan, xar bir insonni o’z faoliyat natija-sini o’ylab, oqilona xo’jalik yuritishga undovchi demokratik iqtisodiyot
5. Savdo-sotiqning shart-sharoitlariga, ma’lum belgi, alomatlari, me-zonlariga qarab, bo’g’inlarga ajratish.

T / N

1) Bozor resurslarni samarali taqsimlashni amalga oshiradi
2) Ishlab chiqarilgan tovar(xizmat)lar naqadar sifatli, talabga javob bera olishini bozorda aniqlash qiyin. Uni ishlab chiqaruvchilar maxsus nazorat orqali aniqlab sortlarga ajratishlari zarur.
3) Bozor resurslarni tejashga, xarajatlarni iqtisod qilishga undaydi.

4) Avtomashinalarga benzin quyish shoxobchasi – bozorga misol bo'la oladi

5) Ko'p qavatli uylar oldida kichkina bozorchalardagi mayda chayqovchilik ko'pincha tanqid qilinsa ham ixtiyoriy ayirboshlash asosida sotuvchi ham, xaridor uchun ham o'zaro manfaatli.

6) Bozor maydoni qancha katta bo'lsa, bozor hajmi ham shuncha katta bo'ladi.

7) Bozorni rivojlanishi uchun bozor infrastrukturasini shakllantirish shart emas.

8) Ikkilamchi bozorni shakllantirmay qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirib bo'lmaydi.

9) «Bozor» deganda odamlar gavjum savdo-sotiq qilinadigan joy, dehqon bozori, iste'mol mollari ya'ni kiyim-kechak, uy-ro'zg'or uchun zarur narsalar sotiladigan joyni tushuniladi. Bu bir yoqlamalilik, bozor bu faqat oldi-sotti qilinadigan maxsus joy emas.

10) Bozor deganda sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi ayirboshlash, oldi-sotti munosabati, savdo amalga oshiriladigan joy, ayirboshlashni amalga oshirish tartibotlarini tushunamiz

11) Taqchil bozor tovarlar talabga etarli darajada bo'lgani uchun narxlar barqarorligi bilan ajralib turadi

12) Ko'chmas mulk bozorida obligatsiyalar, valyuta, ssuda kapitali, tovar va xizmatlar oldi-sotdi qilinadi.

Testlar

1. Qaysi bozor monopolist bo'lishi mumkin?
   a) don bozori;
   b) gullar bozori;
   v) shokolad mahsulotlari bozori;
   g) qishloqdagi benzin quyish shoxobchasi;
   d) non bozori.

2. Birjada tovarlar oldi-sotdisini amalga oshirilishi uchun:
   a) sotuvchi va xaridor qatnashishi shart;
   b) tovar naqd bo'lishi kerak;
   v) xaridor oladigan tovarini sifatini o'zi ko'rib, tekshirishi kerak;
   g) tovardan namuna bo'lishi shart emas;
   d) tovardan namuna, sertifikati etarli.

3. Doiraviy aylanish modeli jihatidan qarasak bozor
   a) ikki: resurslar va tovar, xizmatlar bozoridan;
   b) uch: resurslar, ishlab chiqarish omillari, ishlab chiqarish vosita-lari bozoridan;
   v) ikki: tovar, xizmatlar va kapital bozoridan;
   g) to'rt: er, kapital, mehnat, tadbirkorlik omillari bozoridan;
   d) uch: tovarlar, xizmatlar, kapital bozoridan iborat.

4. Doiraviy aylanish modeli nuqtai nazaridan bozorda qatnashuvchi sub'ektlar:

a) ikki guruh: uy xo'jaligi, individual faoliyat yurituvchi oilaviy xo'jalik;
b) ikki guruh: firma(korxona)lar, uy xo'jaligi;
v) uch guruh: savdo muassasalari, birjalar, savdo shoxobchalari;
g) uch guruh: firma, korxona, savdo muassasalari;
d) ikki guruh: uy xo'jaligi, savdo tashkilotlari.

5. Mehnat bozori boshqa bozorlardan,
a) mehnat omili egasi, ish kuchi bilan unga muhtoj o'rtasidagi munosabati bilan;
b) ish kuchi uning egasini mulki bo'lib qolaverishi va ishga yollani-shida mehnat shartnomalari tuzilishi bilan;
v) ishga vaqtinchalik mehnat shartnomalari asosida yollanish bilan;
g) ish kuchining boshqa tovarlardan farq qilib ishga yollanishi bilan;
d) shartnoma tuzilgach mehnat omiliga aylanishi bilan farqlana-di.

6. Birlamchi va ikkilamchi bozorlar …
a) ssuda kapitali bozoriga;
b) valyuta bozoriga;
v) sug'urta bozoriga;
g) qimmatli qog'ozlar bozoriga;
d) pul (pul majburiyatlari) bozoriga xos.

7. Mehnat birjalari … bilan shug'ullanadi.
a) ishsizlarni ro'yxatga olish, ularni o'qitish, ishga joylash, oilaviy sharoitini o'rganish bilan;
b) ishsizlarni ro'yxatga olish, ishga joylash, korxonalardagi bo'sh o'rinlarni aniqlash;
v) ishsizlarni ro'yxatga olish, ishga joylash, zarur kasbga qayta tayyorlash, ijtimoiy himoya qilish;
g) ishsizlarni ro'yxatga olish, ishga joylash, farzandlari sonini aniqlash;
d) ishsizlarni ishga joylash, yangi kasbga o'rgatish, ishsizlik nafaqa-sini tayinlash.

8. Hozirgi paytda birjalarning asosiy roli …
a) tovarlar narxi va kotirovkasini aniqlash, narx oshkoraligini ta'minlash, real talab va taklifni aniqlash, narxlar tebranishini sug'urta qilish;
b) tovar narxlarni kotirovkasi, tovarlarni bitim bo'yicha etkazib berishni ta'minlash;
v) narxlarni aniqlash va katta partiyada bitimlar tuzish, bitim asosida tovarni etkazib berish;
g) tovarlar narxi kotirovkasi real talab va taklifni aniqlab, ularni muvozanatga keltirish;
d) tovarlarga real talab va taklifni aniqlash, ularni reklama qilish, narx tebranishlarini sug'urta qilish.

Tarqatma materiallardan namunalar

1-tarqatma material

ko'rsatkichlar	Mukammal raqobat	Monopolistik raqobat	Oligopoliya		**Monopoliya**
			Bir xil mahsulot bilan oligopoliya	Tabaqalashgan mahsulot bilan oligopoliya	
Firmalar soni	Juda ko'p	Ko'p	Uncha ko'p bo'lmagan etakchi firmalar	Uncha ko'p bo'lmagan etakchi firmalar	Bitta
Tabaqalashgan yoki bir xil mahsulot	Bir xil	Tabaqalash-gan	Bir xil	Tabaqalashgan	Noyob, yaqin o'rinbosar yo'q
Tarmoqqa kirish osonligi	Oson, to'siqlar yo'q	Nisbatan oson, to'siqlar kam	Qiyin to'siqlar mavjud	Qiyin to'siqlar mavjud	Bozorga kirish to'silgan
Narx belgilash imkoniyati	Yo'q	Mahsulotni tabaqalashti-rilganda ay-rim paytlarda, ba'zi bir holatlarda	Narx belgilashda etakchilik va bitim tuzish imkoniyatiga ko'ra ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.	Narx belgilashda etakchilik va bitim tuzish imkoniyatiga ko'ra ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi	Katta, talabga bog'liq
Bahosiz raqobat	Yo'q	Ma'lum bir darajada	Ma'lum bir darajada	Katta	Reklama, jamoatchi-lik bilan aloqalar
Misollar	Qishloq xo'jalik mahsulotlari, baliq. Aktsiya va obligatsiyalar	Chakana sav-dodagi kichik magazinlar, kiyim-kechak, poyafzal ish-lab chiqarish	Po'lat, pivo, alyuminiy, mis	Avtomobil, alkogol-siz ichimliklar, sovun, don, maishiy elektronika	Suv, gaz, elektr ta'minoti, telefon va boshqa kom-munal xizmatlar

Bozor turlari bo'yicha sotiladigan mahsulotlarga o'zingiz misollar keltiring.

2-tarqatma material

Bozorning funktsiyalari



Chizmadagi bo'sh kataklarni to'ldiring.

3-tarqatma material
Ijtimoiy infratuzilmani rivojlanishi

Yillar, choraklar	Ishga tushirildi						Qurilgan tarmoqlar	
	Turar joy ming. kv. m.	Maktablar, o'quvchi o'rinlari	Akademik litseylar, o'quvchi o'rinlari	Kasb-hunar kol-lejlari o'quvchi o'rinlari	Kasalxona, o'rin-joylari	Poliklinikalarga tashrif buyuruv-chilar soni	Suv quvurlari, km.	Gaz quvurlari, km.
02/I	1116,5	352	600	7050	-	200	303,5	511,2
02/I-II	3783,7	5243	1200	9950	80	2905	1044,5	1730,2
02/I-III	6178,1	11674	2250	59155	80	9940	1521,4	2994,0
02/I-IV	7572,0	18932	5175	86610	300	16845	1960,6	3380,2
03/I	1131,	1430	-	-	-	340	282,2	506,1

	4							
03/I-II	3436,3	4553	-	12600	160	8260	1352,4	2090,8
03/I-III	5466,4	14172	2725	62660	160	8260	1352,4	2090,8
03/I-IV	6739,7	22127	4375	94190	160	15460	1747,5	2982,9

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi

Jadvalni keyingi yillar ma'lumotlari bilan to'ldiring. Ularni taqqos-lab xulosalar chiqaring.

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:

J 1b); 2v); 3a); 4d; 5g; 6j); 7yo); 8e); 9z);

Masala va mashqlar:

1. Bozorning vujudga kelishining asosiy ikki shart-sharoiti bu - ijtimoiy mehnat taqsimoti va xususiy mulkka asoslangan tovar ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy jihatdan alohidalashuvi.

2. Birinchi bozorning bir kunlik savdo oboroti 120 mln so'mlik, ikkinchisiniki esa 139,5 mln so'mlik, oylik savdo oboroti muvofiq ravishda birinchi bozorni 3120 mln so'mlik , ikkinchi bozorniki 3627 mln so'm. Ikkinchi bozorda savdo o'rinlari 100 taga kam bo'lishiga qaramay ko'proq oldi-sotti qilingan. Ikkinchi bozorning hajmi katta.

3. a),yo),i) – uy xo'jaligi
   b),v),d),j),z) – firma, korxona
   g),e) – davlat(hukumat)
   y),k) – moliyaviy institut

4. a, g, e, j – bozor faoliyati
   b, v, d – nobozor faoliyati

5. a) 1,3,4,6,9,13.
   b) 2,5,8,11,12,14,16.
   v) 7,10,15.

6. 1) Bozor tuzilishi, 2) Bozor muvozanati, 3) Bozor infratuzilmasi 4) Bozor (aralash) iqtisodiyoti, 5) Bozor segmenti.

T/N

1T; 2N; 3T; 4T; 5T; 6N; 7N; 8T; 9T; 10T; 11N; 12N;

Testlar

Javob: 1g, 2d, 3a, 4b, 5b, 6g, 7v, 8a.

10-mavzu. Talab, taklif va iste'molchi tanlovi nazariyasi. Bozor muvozanati

Asosiy tushunchalar

1. Talab.
2. Talab egri chizig'i
3. Talab qonuni.
4. Talab elastikligi
5. Me'yoriy naflilik
6. Taklif
7. Taklif egri chizig'i
8. Taklif qonuni
9. Taklif elastikligi
10. Talab va taklif muvozanati
11.Bir-birini to'ldiruvchi tovarlar
12. Talab o'zgarishi
13. Talab miqdorining o'zgarishi
14. Bozor muvozanati

a) Narxning o'zgarishi ishlab chiqaruvchi(sotuvchi)larga qanday ta'sir qilishi, ya'ni ularning reaktsiyasini ifodalovchi ko'rsatkich.

b) Pul mablag'lari bilan ta'minlangan ehtiyojni bozorda namoyon bo'lishi yoki to'lov qobiliyatiga ega ehtiyoj.

v) Tovar narxlari bilan talab miqdorini teskari nisbatda sabab oqibatli funktsional bog'lanishi.

g) Ma'lum bir vaqt mobaynida turli narxlar bo'yicha xaridorlarni sotib olishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorini grafik orqali ifodalanishi.

d) Xaridorga narxning o'zgarishi qanday ta'sir qilishini, ya'ni narxning 1%ga o'zgarishi sotib olinadigan tovar miqdorini qanchaga o'zgarishini ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkich.

e) Iste'molchining tovar yoki xizmatni qo'shimcha birligidan ko'rgan nafi, ya'ni umumiy nafga qo'shilgan nafni bildiradi.

yo) Ma'lum bir vaqt mobaynida turlicha narxlar bo'yicha sotuvchilarning sotishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorini grafikda ifodalanishi.

j) Bozorda mavjud yoki bozorga olib kelinishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar.

z) Narxlar bilan sotiladigan tovarlar miqdorini to'g'ridan-to'g'ri sabab- oqibatli, funktsional bog'lanishi.

i) Talab va taklifni miqdor va tarkibi jihatidan bir-biriga muvofiq kelishi.

y) Tovarlar juftligida birini narxining o'sishi ikkinchisiga talabni kamayishiga olib keladigan tovarlar.

k) Talab miqdori(hajmi)ning o'zgarishi, talab egri chizig'i bo'yicha narxning o'zgarishiga qarab siljishi.

4. Quyidagi jadvalda narxning o'zgarishiga ko'ra taklif haj-mining o'zgarishi berilgan. Ma'lumotlar asosida taklif elastik-ligi koeffitsentini aniqlang. Jadvalni to'ldiring. Elastiklik koeffitsienti deganda nimani tushunamiz? Uni hisoblashning qanday ahamiyati bor? Elastiklik koeffitsientining birga teng bo'lishi, birdan katta yoki kichik bo'lishi nimani bildiradi? Fikringizni izohlab bering.

Tovar turlari	Narx, so'm	Taklif hajmi, dona	Narxga ko'ra taklif elastikligi koeffitsienti	Elastik-ligi
A	1 2	2 4		
B	4 4	6 10		
V	8 10	12 5		

5. Quyidagilarni diqqat bilan o'qing:

«Jevons fikricha, sub'ektiv jihatdan naflilikni miqdoran aniqlash va baholash faqat tovar, xizmatlar va ishlab chiqarish omillarining bozor bahosida namoyon bo'ladi.[2]

Pareto esa nazariyaga sub'ektiv naflilikning mikdoriy tu-shunchasi o'rniga tartibli, ya'ni sub'ektiv jihatdan tanlash afzal-ligini ketma-ketlik asosida alohida ne'matlarning nafliligini solishtirish o'rniga ularning to'plamini taqqoslashni kiritdi.[3]

Har ikki parchani tahlil qilib, ordinalistik va kardinalis-tik yo'nalishlari mazmunini aniqlang.

6. Quyidagi jadvalda turli omillarning talab va taklifga ta'-siri ko'rsatilgan.

Omil (boshqa shartlar teng)	Talab egri chizig'i siljishi	Talab egri chizig'i bo'yicha	Taklif egri chizig'i siljishi	Taklif egri chizig'i bo'yicha
1. Raqobatdosh tovarlarga baho o'zgarishi				
2. Yangi texno-logiya joriy qilindi				
3. Tovarga mo- da o'zgardi				
4. Daromad o'zgardi				
5. Xom ashyo-ning bahosi o'zgardi				

Omillarning ta'sirini talab va taklif egri chizig'i yordamida tushuntirib bering. Omillarning o'zgarishi egri chiziqda qanday ifodalanishini jadval ustunlari bo'yicha belgilar orqali ifoda-lang.

7. Aytaylik iste'molchining byudjeti 10 ming so'm. U bozor-dan go'sht xarid qilmoqchi. Qo'y go'shtinig kilosi 2500 so'm, mol go'shti esa 2000 so'm. Agarda

[2] Vsemirnaya istoriya ekonomicheskix misli. M.: 1989g., t.3, s.157

[3] Vsemirnaya istoriya ekonimicheskix misli. M,: 1989g., t.3, s.164

puli 1500 so'mga ko'paysa yoki aksincha 5000 so'mga kamaysa, xaridor o'z pulini go'sht olish uchun qanday sarflashi mumkin? Uni mumkin bo'lgan variantlarini ko'rsating, grafikda tasvirlangan javobingizni izohlang.

8. Erkinjondan mavjud uch xil tovar: kostyum-shim, videomagni-tafon, entsiklopediya kitobini nafliligi nuqtai nazaridan sanab chiqing, deyildi. Lekin videomagnitafonga etadigan pul berilgan-da videomagnitafondan ancha arzon turadigan kostyum shim sotib oldi. Iqtisodiy nuqtai nazardan uning bunday qilishi, ya'ni qa-rorga kelishini qanday tushuntirish mumkin?

a) Erkinjon aniq bir tovarni o'zi uchun nafliligini to'g'ri baholay olmaydigan iste'molchi;
b) olingan pulni sarflash haqida qaror qabul qilar ekan, faqat uch tovar nuqtai nazaridan emas, balki shu pulga sotib olish mumkin bo'lgan boshqa tovarlar nafliligini hisobga olgan;
v) bepulga olish mumkin bo'lgan tovarlar nafliligi bilan pul to'lab sotib olish kerak bo'lgan tovarlar nafliligi bilan taqqoslagan;
g) tovarlarni nazariy jihatdan nafliligi bilan ularni pulga sotib olgandagi nafliligi tubdan farq qiladi;
d) talab qonuni bo'yicha xaridor narxi qimmat tovarlarga nisbatan arzon tovarlarni ko'proq sotib oladi;
e) tovar bahosi tushganda sotib olish rejalashtirilgan to-varlar hajmi ortishini
yo) tovar bahosi ko'tarilganda taklifni kamayishini ko'rsa-tadi.

9. Quyidagilar berilgan:
Tovarga bo'lgan talab funktsiyasi $Q_d = 700 - P$;
Taklif funktsiyasi: $Q_s = 2P - 200$;
P - tovar narxi, so'm, Q – tovar miqdori, ming dona.

Quyidagilarni hisoblang:
1) Berilganlar asosida tovarning muvozanat bahosi va miqdo-rini aniqlang.
2) A), B) va V) punktlar bir-biriga bog'liq bo'lmagan vaziyat-larda:
A) davlat organlari tomonidan tovarga 200 so'm miqdorida baho (qayd qilingan) belgilab qo'yildi. Taklif miqdorini, sotilgan tovar va taqchillik miqdorini aniqlang.
V) ishlab chiqaruvchilarga har bir sotilgan tovar uchun 150 so'm miqdorida dotatsiya belgilandi. Tovarning muvozanat narxi va miqdorini aniqlang.
G) har bir tovarga 150 so'm miqdorida egri soliq (qo'shilgan qiymat solig'i) belgilandi. Yangi muvozanat narxini hisoblang.

T/N

1. Bozor iqtisodiyotida kimning puli ko'p bo'lsa, u shuncha ko'p tovar sotib olishi mumkin .
2. Tovar ishlab chiqarish hajmi va usuli ishlab chiqarish re-surslarining bahosiga bog'liq.
3. Mukammal raqobatga asoslangan iqtisodiyotda alohida tovar ishlab chiqaruvchi mahsulot miqdorini kamaytirish orqali narxga ta'sir etadi.

4. Bozor iqtisodiyotida qanday tovar ishlab chiqarish zarurli-gini oxir-oqibat iste'molchilar hal qilishadi.

5. Avtomashinalarga benzin quyish shoxobchasi – bozorga misol bo'la oladi.

6. Talab egri chizig'i narxning pasayishi tufayli, talab hajmi-ni o'sishini ko'rsatadi.

7. Kishilarning daromadlarini ortishi barcha tovarlarga talab-ni oshiradi.

8. Resurslar bahosining har qanday o'zgarishi talab va taklif muvoza-natini taklif egri chizig'i bo'yicha yuqori yoki pastga tomon o'zgartiradi.

9. Bir vaqtning o'zida tovar taklifi va iste'molga ajratilgan daromadning o'sishi natijasida baholar o'zgarmasligi mumkin.

10. Taklif egri chizig'ini o'ngga siljishi ishlab chiqaruvchi-larning har bir narx darajasida avvalgiga qaraganda kamroq tovar taklif qilinayotganini ko'rsatadi.

Testlar

1. Ishlab chiqarish texnologiyasining takomillashuvi,
   a) muvozanat bahosining o'sishiga;
   b) taklif egri chizig'ining chapga siljishiga;
   v) taklif egri chizig'ining o'ngga siljishiga;
   g) talab egri chizig'ining o'ngga siljishiga;
   d) talab egri chizig'ining chapga siljishiga olib keladi

2. Ishlab chiqaruvchilar tayyorlagan mahsulotlariga ko'zlangan muddatga nisbatan avvalroq yuqori narx belgilashga majbur bo'-lishdi, u holda ...
   a) talab qisqaradi;
   b) talab ortadi;
   v) taklif kamayadi;
   g) taklif ortadi;
   d) talab o'zgarmaydi.

3. Aytaylik, qurg'oqchilik sababli bug'doy taklifi kamaydi. Agarda bug'doy non tayyorlash uchun asosiy xom ashyo bo'lsa iste'-molchilar nonning o'rniga kartoshka iste'molini ko'paytirishlari mumkinligi kutilsa, u holda bug'doy narxi
   a) ortadi, non taklifi ortadi, kartoshkaga talab ortadi;
   b) ortadi, non taklifi pasayadi, kartoshkaga talab esa o'sadi;
   v) ortadi, non taklifi pasayadi, kartoshkaga talab kamayadi;
   g) tushadi, non taklifi ortadi, kartoshkaga talab o'sadi;
   d) tushadi, non taklifi pasayadi, kartoshkaga talab o'sadi.

4. Quyidagi tushunchalardan qaysi biri odamlarni biron narsa olish va haq to'lash qobiliyatlarini ifodalaydi.
   a) ehtiyoj;
   b) o'zini ko'rsatish;
   v) zaruriyat:
   g) xohish;
   d) talab.

5. Odamlarni mahsulotlarni qo'shimcha ravishda arzon sotib olishga tayyorligi, nisbatan …

a) o'rinbosish effektida;
b) me'yoriy naflikning pasayishida;
v) daromad effektida;
g) taklif qonunida;
d) T. Veblen effektida to'laroq ifodalanadi.

6. Tovar va xizmatlar bozori muvozanat holatda bo'ladi, agar …

a) talab taklifga teng bo'lsa;
b) narx xarajatlar plyus foydaga teng bo'lsa;
v) texnologiya darajasi sekinlik bilan o'zgarsa;
g) talab hajmi taklif hajmiga teng bo'lsa;
d) tovarlar sifati talabga javob bersa.

7. Agar tovarga taklif va talab ortsa u holda …

a) tovarning umumiy miqdori ortadi;
b) narx ko'tariladi;
v) narx barqaror bo'ladi;
g) jamiyatni faravonligi oshadi
d) tovarlarning umumiy miqdori kamayadi.

8. Agar tovar narxi talab egri chizig'i bilan taklif egri chizig'i kesishgan nuqtadan past bo'lsa, u holda:

a) ortiqcha miqdorda tovarlar hosil bo'ladi;
b) tovar taqchilligi yuz beradi;
v) xom ashyo ortiqchaligi;
g) xom ashyo etishmovchiligi kelib chiqadi;
d) resurslar narxi ko'tariladi.

9. Talab va taklifning narxni tartibga solishdagi rolini tushuntirish uchun:

a) tovar bozorini;
b) resurslar bozorini;
v) valyuta bozorini;
g) har qanday bozorni;
d) xizmatlar bozorini
misol qilib ko'rsatish mumkin

10. Agar ikki tovar bir-birini o'rnini bossa, u holda birining narxi-ning o'sishi:

a) ikkinchi tovarga talabning pasayishiga;
b) ikkinchi tovarga talabni o'zgarmasligiga;
v) ikkinchi tovarga talab hajmining ortishiga;
g) ikkinchi tovarga talab hajmining pasayishiga;
d) ikkinchi tovarga talabni ortishiga olib keladi.

11. Tovarning narxi 1,5 ming so'mdan 2 ming so'mga ko'tarildi, talab hajmi esa 1000 dan 900 donaga tushdi, deylik. U holda narxga nisbatan talab elastikligi … teng.

a) 3,00;
b) 2,71;
v) 0,37;
g) 0,33;
d) 1,5;

12. Qaysi holatda bahoga nisbatan talab elastikligi yuqori bo'ladi?

a) birinchi darajali zarur tovarlarga nisbatan zeb-ziynat buyumlari-ga;
b) iste'molchilar mazkur tovardan eng samarali foydalanishsa;
v) tovar ishlab chiqarish uchun muqobil xarajatlar ko'p bo'lsa;
g) iste'molchiga tovar shuncha kam zarur bo'lsa;
d) zeb-ziynat buyumlariga nisbatan eng zarur tovarlarga.

13. Tovar taklifining qisqarishi nimaga olib keladi?

a) o'zaro o'rin bosuvchi tovarlarga talabning ortishiga;
b) agar bahoga ko'ra tovarga talab elastik bo'lsa, umumiy tushumni ortishiga;
v) agar daromadga ko'ra tovar talab noelastik bo'lsa, umumiy tushum-ning ortishiga;
g) bu tovarga talabni ortishiga;
d) o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tovarlarga talabni ortishiga olib keladi.

14. Agar tovarning bahosi 1%ga tushishi unga bo'lgan talabni 2%ga ortishiga olib kelsa, u holda talab:

a) noelastik;
b) elastik;
v) yagona elastik;
g) mutlaq noelastik;
d) mutlaq elastik bo'ladi.

15. Agar narx 5%ga pasaysa, umumiy taklif hajmini 8%ga qisqarishiga olib keladi, u holda taklif:

a) noelastik;
b) yagona elastik;
v) elastik;
g) mutlaq elastik;
d) mutlaq noelastik.

16. Har qanday tovar miqdori bir xil baho bo'yicha sotilsa, u holda bunday tovarga talab:

a) mutlaq noelastik;

b) mutlaq elastik;
v) elastik;
g) noelastik;
d) yagona elastik.

17. Taklif qonuni, narxlarning o'sishi, boshqa sharoit (omillar) o'zgarmagani holda ...
a) taklifning o'sishida;
b) taklifning kamayishida;
v) taklif hajmining o'sishida;
g) taklif hajmining kamayishida;
d) taklifning o'zgarmasligida namoyon bo'ladi.

18. Talab qonuni …
a) taklifni talabga nisbatan ko'pligi narxning pasayishini;
b) agar iste'molchilarning daromadi ortsa, tovarlarni ko'proq sotib olishini;
v) talab egri chizig'ini odatda musbat tomonga og'ishini;
g) tovar bahosi tushganda, sotib olish rejalashtirilgan tovarlar hajmi ortishini;
d) tovar bahosi ko'tarilganda taklifning kamayishini taqozo qiladi.

19. Mahsulotning narxini tushishiga sabab bo'lishi mumkin:
a) xususiy tadbirkorlikka soliqlarning ortishi;
b) iste'molchilar daromadining ortishi;
v) bir-birini o'rnini bosuvchi tovarlar narxining o'sishi;
g) o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tovarlar narxining tushishi;
d) ishlab chiqarish resurslari narxining tushishi.

Tarqatma materiallardan namunalar
1-tarqatma material

Talab elastikligi bozorda narxning o'zgarishi xaridorga qanday ta'sir qilishi(reaktsiyasi)ni ko'rsatadi. U elastiklik koeffitsienti orqali ifodalanadi.

Elastiklik koeffitsienti (narxga ko'ra, daromadga ko'ra hisoblanadi).

Narxga ko'ra elastiklik koeffitsienti tovar narxining 1% ga o'zgarishi talabni necha foizga o'zgarishini ko'rsatadi.

Daromadga ko'ra elastiklik koeffitsienti daromadning 1% ga o'zgarishi talabni necha foizga o'zgarishini ko'rsatadi.

p
ED = Q1 : P1 ; yoki Q1 ; Q0 ; yoki **Q o'zgarish foizi;**

i Q0 : P0 P1 : P0 P o'zgarish foizi

$$ED = \frac{Q1}{Q0} : \frac{I1}{I0};$$



Siz yana qanday omillarni qo'shgan bo'lar edingiz? Ko'rsatilgan omillarga misollar keltiring.

2-tarqatma material

Taklif elastikligi – bozorda narxlarning o'zgarishi sotuvchiga, ishlab chiqaruvchiga qanday ta'sir kilishini, reaktsiyasini ko'rsa-tadi. U taklif elastikligi koeffitsienti orqali ifodalanadi.

Taklif elastikligiga ta'sir etuvchi omillar

- Vaqt omili:
  *nihoyatda qisqa bozor davri
  *qisqa muddatli davr
  *uzoq muddatli davr
- Ishlab chiqarish jarayonining xususiyatlari
- Tovarlarni saklash mum-kinligi va saqlash xarajatlari

$$E_s^p = \frac{Q_1}{Q_0} : \frac{P_1}{P_0}; \quad \textbf{ёки} \quad \frac{Q_1 : Q_0}{P_1 : P_0}$$

Taklif elastikligiga ta'sir etuvchi omillar guruhi bo'yicha misollar keltira olasizmi?

Javoblar:
Asosiy tayanch tushunchalar:
1b), 2g), 3v), 4d), 5e), 6j), 7yo), 8z), 9)a, 10m), 11y), 12l), 13k), 14i).

Masala va mashqlar:

1. O'tgan yili 5 mln. so'm bu yilgi 6 mln. so'mga to'g'ri keladi. 5 x 120 = 6 mln. so'm. Yil davomida eskirganini hisobga olsak, aytaylik, amortizatsiya 10% bo'lsa, 50000 desak 5,95 mln. so'm bo'ladi. O'tgan yilga qaraganda arzon sotdi.
2. Ikkinchi haftada talab elastikligi koeffitsienti 1,4 ga, birinchi haftaga nisbatan uchinchi haftada E = 1ga, to'rtinchi xaftada esa E = 0,46 ga teng. Bozor bunday kostyui-shimlarga to'yinib borayapti, xarajatlarni pasaytirib, yana narxini tushirish, buning iloji bo'lmasa ishlab chiqarish hajmini qisqartirish va boshqa turdagi mahsulot ishlab chiqarishga o'tish kerak.

3.

Narx, so'm	Talab, dona, bilet	Tushum, so'm	Talab elastikligi	Normal foyda
700	300	210000	-	-15000
600	400	240000	1,14	15000
500	500	250000	1,19	25000
400	600	240000	1,14	15000
300	700	210000	1,00	-15000

Umumiy xarajatlar 225000 so'm. Eng optimal varianti 500 so'mdan narx belgilash

4.

Tovar turlari	Narx, so'm	Taklif hajmi, dona	Narxga ko'ra taklif elastikligi koeffitsienti	Elastikligi
A	1 2	2 4	E=1	Yagona elastik
B	4 4	6 10	E=0,6	Noelastik
V	8 10	12 5	E=1,44	Elastik.

5. Kardinalizm naflilikni absolyut miqdorini o'lchash yo'llarini qidirsa, ordinalizm naflilikni nisbatan tarzda o'lchashni taklif qiladi.

6.

Omil (boshqa shartlar teng)	Talab egri chizig'i siljishi	Talab egri chizig'i bo'yicha	Taklif egri chi-zig'i sil-jishi	Taklif egri chizig'i bo'yicha
1. Raqobatdosh tovarlarga baho o'zgarishi	+			+
2. Yangi texnologiya joriy qilindi		+	+	
3. Tovarga moda o'zgardi	+			+
4. Daromad o'zgardi	+			+
5. Xom ashyoning bahosi o'zgardi		+	+	

7. Echish:

Iste'molchining cheklangan daromadi (puli) bo'yicha olishi mumkin bo'lgan mahsulot

Kombinatsiya (variant)	Qo'y go'shti kg	Mol go'shti kg	Byudjet, so'm
A	4	0	2500·4=10000
B	3	1.25	3·2500+1.25+2000=10000
V	2	2.5	2·2500+2.5·2000=10000
G	1	3.75	1·2500+3.75·2000=1000
D	0	5	5·2000=10000

Byudjet chizig'i (A, D)iste'molchining mol go'shti bilan qo'y go'shtini tanlashda murosali tanlovini ko'rsatadi.



8. b) javob to'g'ri;

9. Muvozanat narxi **300 so'm,** muvozanat miqdori **400 ming dona**.

Masalaning ikkinchi sharti bo'yicha:

A) taklif miqdori **200 ming dona**; tovar **taqchilligi 300 ming dona**;

B) **muvozanat bahosi 200 so'm; miqdori 500 ming dona**.

V) **muvozanat narxi 400 so'm, miqdori 300 ming dona.**

T/N

1T; 2N; 3N; 4T; 5T; 6T; 7N; 8T; 9T; 10N;

Testlar:

1v); 2a); 3b); 4d); 5b); 6g); 7a); 8b); 9g); 10d); 11v); 12g); 13a); 14b); 15v); 16b); 17v; 18g; 19d;

III BO'LIM. MIKROIQTISODIYOT NAZARIYASI ASOSLARI

11-mavzu. Bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyati va tadbirkorlik kapitali

Asosiy tushunchalar

1. Tadbirkorlik
2. Biznes.
3. Tadbirkor
4. Biznesning tashkiliy shakli
5. Firma
6. Tadbirkorlik ob'ekti.
7. Mudofaaga asoslangan strategiya
8. Asosiy kapital
9. Hujumkorlikka asoslangan strategiya
10. Aylanma kapital
11. Aktiv kapital
12. Passiv kapital
13. Amortizatsiya
14. Oborot mablag'lari

a) Tadbirkorlik qobiliyatini ishga solish, faoliyatga aylantirishning tashkiliy shakli.

b) Risk qilgan holda mablag'larni samarali sarflab, faoliyat yuritishning tashkiliy shakli.

v) Maksimal darajada daromad olish maqsadida ishlab chiqarish omillari(er, kapital, mehnat)ni eng smarali nisbatini topib ishga tushirish.

g) Bir yoki bir necha korxona va faoliyat turini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

d) Raqiblar faoliyatini kuzatish asosida, ular erishgan natijadan foydalanib ish yuritish strategiyasi.

e) Tadbirkorlik qilish qobiliyatiga ega inson.

yo) Yangiliklarni joriy qilishga, boshqalar qo'llamagan usullarni qo'llashga asoslangan strategiya.

j) Mulkiy maqomi, tashkiliy-huquqiy asoslari, xo'jalik yuritish, boshqarish uslublariga ko'ra faoliyat yuritishning namoyon bo'lishi.

z) Kapitalning ko'p yil xizmat qilib, bir necha ishlab chiqarish tsiklida(doiraviy aylanish)da qatnashib, qiymatini ishlab chiqarilayotgan tovarga asta -sekinlik bilan o'tkazadigan, ishlab chiqarish jarayonida o'z xossasini o'zgartirmaydigan qismi.

i) Aylanma kapital va muomaladagi kapitalning birgalikdagi ifodasi.

y) Asosiy kapitalning mahsulot yaratish uchun zarur miqdorining bahosi, ya'ni mahsulotga ko'chgan, xarajatlarda ifodalangan qismi.

k) Kapitalning bir ishlab chiqarish tsikli(doiraviy aylanish)da qatnashib, o'z qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga to'la o'tkazadigan, ishlab chiqarish jarayonida o'z xossasini o'zgartiradigan qismi

l) Asosiy kapitalning ishlab chiqarish jarayonida faol qatnashadigan qismi; odatda mashina, mexanizmlar, asbob-uskuna kabilar kiritiladi.

m) Asosiy kapitalning faoliyat yuritish uchun sharoit yaratuvchi, ancha uzoq xizmat qiluvchi, ishlab chiqarishda passiv qatnashuvchi qismi.

Masala va mashqlar

1. Mulkdor bilan tadbirkor tushunchasi birmi? Quyidagi javoblardan qaysi biri to'g'ri?

A) Yo'q. Bu ko'proq yakka egalik asosida tashkil etilgan korxona shchakliga xos. Korporatsiyalarda mulkdor bilan tadbirkor tamomila farq qiladi. Siz biron-bir firma aktsiyasiga ega bo'lishingiz bilan hamkorlikdagi mulkka sherik bo'lasiz. Tadbirkorlikka esa hech qanday aloqangiz yo'q.

B) Ha. Mulkdor bo'lgandan keyin tadbirkor bo'ladi. Mulkka yakka egalik qilish shart emas. Tadbirkor o'zi mulkka ega bo'lgandagina tadbirkor bo'lishi mumkin. Tadbirkorlik bilan shug'ullanar ekan, mulkdor bo'lishi shart.

2. Iqtisodiy nazariyadan ma'lumki, tadbirkorlik risk bilan bog'liq. O'ylab ko'ringchi, bu risk aniq nima bilan bog'liq, deb o'ylaysiz?

a) pul yo'qotish bilan;
b) obro'-e'tiborni yo'qotish bilan;
v) bozor iqtisodiyotiga xos xususiyat noaniqlik uning doimiy yo'ldo-shi ekanligi bilan;
g) axborot asimmetriyasi bilan;
d) mol-mulkni yo'qotish bilan;
e) to'g'ri qaror qabul qila bilmaslik bilan;
yo) qat'iyat etishmasligi bilan;

Bulardan qaysi biri siz uchun shaxsan katta ahamiyatga ega? Tadbir-korlik bilan shug'ullanadigan bo'lsangiz qaysi biriga ko'proq ahamiyat bergan bo'lardingiz?

3. Firmada sizning ulushingiz 500000 so'm. Sizdan boshqa teng huquqli 19 ta sherik bor. Firmaning ustav kapitali 10 mln. so'm. Firma 50 mln. so'mlik zarar ko'rdi. Unga bankrotlik xavf solib turibdi. Agar korxona bankrotlikka uchrasa, sizning zimmangizga tushadigan mablag'ni hisoblang:

a) agar mas'uliyati cheklanmagan;
b) aktsionerlik jamiyati bo'lsa;

4. 2003 yili «Toshqishloqmash» OAJ 1630 mln. so'mlik mahsulot sotdi. «O'zqishloqmash» OAJda esa 764 mln. so'mlik mahsulot sotildi. Asosiy kapital(asosiy fond)ning o'rtacha qiymati muvofiq ravishda 3476 mln. so'm va 845 mln. so'm. Inlab chiqarish quvvati esa 3167 mln. so'm va 1421 mln. so'm. Korporatsiyalarning kapital(fond) unumdorligi, kapital(fond) sig'imi, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasini hisoblang. Natijani taqqoslang va ularning faoliyatiga baho bering. Ana shu iqtisodiy ko'rsatkichlarni yuqori darajada bo'lishi uchun sizningcha nimalar qilish kerak? Fikringizni asoslab bering.

5. AQShda biznesning tashkiliy-huquqiy shakllari quyidagicha

Biznes shakllari	Firmalar soni Ularning umumiy sotish hajmidagi ulushi,%da
Individual, xususiy firmalar* Sherikchilik Korporatsiyalar	14783000 6 1554000 4 3717000 90
Hammasi	100

*Fermer xo'jaliklarini qo'shmaganda

Biznesning tashkiliy- huquqiy shakllari bo'yicha ulushlarini hisoblang.

Sotish hajmi va firmalar soni ulushlarini diagrammalarda ifodalang. Ularni taqqoslash asosida qanday xulosalar chiqarish mumkin. Javobingizni izohlang.

6. Topishmoq: Bir vosita borki, u barcha-tartib qoidalari bilan sotiladigan bo'lsa, tadbirkor uchun mahsulot ishlab chiqarishga qaraganda ham ma'qulroq, sababi u hech qachon qadrini yo'qotmaydi.

T/N

1. Y. Shumpeter tadbirkorni novatorligiga alohida e'tibor berib, tadbirkor ishlab chiqarish omillarini yangi nisbatlarini izlovchi, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi kishi deb ta'riflaydi.
2. Tadbirkorlikni a) iqtisodiy kategoriya, b) xo'jalik yuritish uslubi, v) iqtisodiy fikr yuritishning o'ziga xos tipi sifatida qarab o'rganish zarur.
3. Tadbirkorning mustaqilligini ta'minlash huquqiy jihatdan asoslangan va himoyalangan bo'lishi shart emas.
4. Iqtisodiy kategoriya sifatida tadbirkorlikning ob'ekti maksimal darajada darommad olish maqsadida ishlab chiqarish omillarini samarali nisbatini topib ishga tushirishdir.
5. Tadbirkorlik qilishni hamma eplaydi, qiyini hujjatlarni rasmiylashtirish.
6. Kichik korxonaning muhim afzalligi uni tez tashkil etish mumkinligi, kapital aylanish tezligini yuqoriligi, bozor talabiga tezda moslashuvchanligi
7. Tikuvchilik korxonalarining asosiy xom ashyosi material. Shuning uchun uni asosiy kapitalga misol qilib keltirish mumkin.
8. Amortizatsiya normasi asosiy kapitalni jismoniy eskirishini hisobga olgan holda belgilanadi.

Testlar

1. Tadbirkorlikka iqtisodiy adabiyotlarda uch jihatdan qaraladi:
   a) iqtisodiy kategoriya, xo'jalik yuritish uslubi, iqtisodiy fikr yuritishning o'ziga xos tipi sifatida;
   b) iqtisodiy kategoriya, xo'jalik yuritish uslubi, mulk egasi sifatida;
   v) xo'jalik yuritish uslubi, iqtisodiy fikr yuritishning o'ziga xos tipi sifatida mulk egasi sifatida;

g) xo'jalik yuritish uslubi, mulk egasi, daromad topishning o'ziga xos tipi sifatida;
d) iqtisodiy kategoriya, xo'jalik yuritish uslubi, daromad topishning o'ziga xos tipi sifatida;

2. Jahon iqtisodiy adabiyotida tadbirkorlikning uchta funktsiyasi ajratib ko'rsatiladi:
a) resurslar bilan ta'minlash, tashkilotchilik, ijodkorlik;
b) resurslar bilan ta'minlash, kapital bilan ta'minlash, ijodkor-lik;
v) kapital bilan ta'minlash, xomashyo bilan ta'minlash, ijodkorlik;
g) resurs bilan ta'minlash, tashkilotchilik, omillarni birlash-tirish;
d) tashkilotchilik, omillarni birlashtirish, ijodkorlik;

3. Quyidagi sanab o'tilganlardan qaysi biri yakka tartibdagi mehnat faoliyatiga asoslangan individual tadbirkorlikka to'g'ri kelmaydi:
a) individual mulkka asoslanadi;
b) o'zi mehnat qiladi;
v) olingan natija uning o'ziga tegishli bo'ladi;
g) mulkidan daromad topish maqsadida foydalanadi;
d) yollangan xodimlarga ish haqi to'laydi;

4. Quyidagi sanab o'tilganlardan qaysi biri xususiy mulkka asoslangan tadbirkorlik faoliyatiga mos emas:
a) xususiy mulkka asoslanadi;
b) ishlab chiqarish natijasi mulk egasiga tegishli bo'ladi;
v) chetdan ishchi yollaydi;
g) kapital omiliga jamoa egalik qiladi;
d) mustaqil erkin faoliyat yuritadi;

5. Asosiy va aylanma kapitalning farqlanuvchi jihatlariga quyidagi-lardan qaysi birini qo'shib bo'lmaydi?
a) o'z qiymatlarini ishlab chiqarish natijasi-mahsulotga o'tkazishi;
b) doiraviy aylanishda qatnashishiga ko'ra;
v) ishlab chiqarish jarayonida o'z xossasini o'zgartirishi;
g) amortizatsiya ajratmalarini hisoblash;
d) sarflangan mablag'ning qaytishi.

6. Quyidagilardan qaysi biri biznesning korporatsiya shakli kamchili-giga kirmaydi?
a) kapitalni jalb qilishning keng imkoniyatlari;
b) tashkil etishning tashkiliy-moliyaviy murakkabliklari;
v) boshqarish xarajatlarining ko'pligi;
g) ikki tomonlama soliqqa tortish sub'ekti;
d) mulk va nazoratning ajratilishi.

7. Chayqovchilik faoliyati …
   a) qonun asosida ish yurituvchi tadbirkorlar uchun riskni orttiradi;
   b) narxlarni beqarorligi tendentsiyasini kuchaytiradi;
   v) iqtisodiy bum va retsessiyaga olib keladi;
   g) doimo foyda olishga olib keladi;
   d) tadbirkorlar uchun riskni kamaytiradi.

Tarqatma materiallardan namunalar
Tarqatma material 1

Biznesning tashkiliy shakllarining afzalligi va kamchiligi

Biznesning tashkiliy shakli	Afzalligi	Kamchiligi
Individual xususiy korxona	Tez tashkil etish, nisbatan erkin faoliyat yuritish, nazo-ratning oddiy, osonligi	Moliya resurslarining chek-langanligi, barkarorlikning etar-li emasligi, to'la moliyaviy ja-vobgarligi, nazorat va bosh-qarishni qo'shib olib bo-rishning qiyinligi
Sherikchilik	Tez tashkil etish, indivi-dual korxonaga qaraganda bosh-qarishda nisbatan ixtisosla-shuv hamda moliyaviy imkoniyatga ega bo'lish (pul mablag'lari bir-lashtiriladi). Davlat tomoni-dan ta'sir ko'rsatish cheklangan.	Boshqarishda manfaatlar ajralishining vujudga kelish ehtimoli, faoliyat yuritishda kelishmovchiliklar kelib chi-qishi, sheriklardan birorta-sining ketishi bilan fir-maning tugatilishi mumkinli-gi, moliyaviy resurslar chek-langanligi, to'la moliyaviy javobgarligi
Korporatsiya	Kapitalni jalb qilishda keng imkoniyatlar mavjudligi, mas'uliyatning cheklanganligi (javobgarlik ustav kapitali, aktsiya qimmati doirasida cheklangan), kapitallar birla-shuvi imkoniyati, yuridik shaxs sifatida barqarorligi, maxsus boshqaruvchilarni yollash imko-niyati mavjudligi	Tashkil etishning tashkiliy-moliyaviy murakkabliklari, tash-kil etish va boshqarish xarajat-larining ko'pligi, ikki tomonlama soliqqa tortish sub'ekti ekan-ligi: korporativ daromad va divi-dentdan soliq to'lash, mulk va nazoratni ajralishi (rahbar-ijro etuvchi muammosi)

Bildirilgan fikrlarning qaysi biriga qo'shilmaysiz?

Tarqatma material 2

Korporatsiyaning afzalliklari:

- Kapital jalb qilish imkoniyati katta;
- Boshqarish bilan mutaxassis menejerlar shug'ullanadi;
- Yuridik shaxs sifatida barqaror. Jamiyatdan bir-ikki kishining chiqishi bilan uning faoliyati to'xtamaydi;
- Mas'uliyati cheklanganligi. Aktsiya egalarining javobgarligi aktsiya qimmati doirasida cheklangan.

Korporatsiyaning kamchiliklari:

- Daromad solig'i ikki marta to'lanadi(foydadan va divedentdan);
- Iqtisodiy jihatdan suiste'mol qilish imkoniyati bor. Real qiymatga ega bo'lmagan aktsiyalarni chiqarib sotishi mumkin;
- Tashkil etishning moliyaviy murakkabliklari mavjudligi;
- Tashkil etish va boshqarish xarajatlarining ko'pligi;
- Mulk va nazoratning ajralishi

Siz korporatsiyaning afzalliklari va kamchiliklariga nimalarni qo'shgan bo'lar edingiz?

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:

1b); 2a); 3e); 4j); 5g); 6v); 7d); 8z); 9yo); 10k); 11l); 12m); 13y); 14i);

Masala va mashqlar:

1. a) javob to'g'ri
2. Barchasi bilan to'qnash kelish mumkin.
3. a) 2,5 mln so'm; b) 10 mln. so'mdan 5% yoki ulushingiz bo'yicha 0,5 mln. so'm.
4. kapital(fond) unumdorligi 1) 0,44 so'm; 2) 0,9 so'm;
   Karital(fond) sig'imi 1) 2,3 so'm; 2) 1,1 so'm;
   Ishlab chiqarish quvvatidan 1)48,5%; 2) 53,9% foydalanilgan
5. Korporatsiyalarning umumiy firmalar sonidagi ulushi 18% bo'lgani holda sotishdagi ulushi 90%. Bu ularning etakchi rol o'ynashini ko'rsatadi.
6. Topishmoq: Omilkor aql.

T/N

1T; 2T; 3N; 4T; 5N; 6T; 7N; 8N;

Testlar

1a); 2a); 3d); 4g); 5g); 6 a); 7b;

12-mavzu. Sarf-xarajatlar va foyda nazariyalari

Asosiy tushunchalar

1. Iqtisodiy yoki zimmadagi xarajatlar
2. Tashki xarajatlar
3. Ichki xarajatlar
4. Doimiy xarajatlar
5. O'zgaruvchan xarajatlar
6. Umumiy xarajatlar
7. O'rtacha xarajatlar
8. Me'yoriy xarajatlar
9. Iqtisodiy foyda
10. Normal foyda

a) Qo'shimcha birlik mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq umumiy xarajatlarning o'sishi.

b) Tanlangan resurslarni eng ma'qul ishlatish, o'zgalar ishlatishiga yo'l qo'ymay, ularni sotib olish uchun resurslar egasiga to'langan haq.

g) Mahsulot birligiga sarflangan xarajatlar.

d) Miqdori ishlab chiqarish hajmiga bog'liq xarajatlar.

e) Chetdan jalb etilgan iqtisodiy resurslarga to'langan pul.

yo) Ma'lum miqdorda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar, boshqacha aytganda barcha xarajatlar.

j) Hech bo'lmaganda bir resursning o'zgarmagani holda boshqa resursni o'sishi evaziga umumiy mahsulotni ko'payishi.

z) Firma, korxonaning ixtiyoridagi resurslar qiymatining puldagi ifodasi;

j) Tadbirkorlik qobiliyatini ishga solishning alternativ qiymati;

i) Ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmagan xarajatlar;

v) Umumiy tushum bilan iqtisodiy xarajatlar o'rtasidagi farq.

Masala va mashqlar

1.«O'qish uchun to'langan haq, sizning qizingiz yoki o'g'lingizni o'qishi uchun ketadigan xarajatlarning 43% ini qoplaydi, xolos. Shuning uchun sizlarni universitetimizda bilim berishning asosi bo'lgan faoliyat turlarini qo'llash uchun ehson qilishlaringizga umid qilamiz» Bu so'zlar amerikadagi obro'li universitetlardan birining ota-onalarga yuborgan xatidan olingan. Bu universitetda yillik o'qish haqi 10 000 dollar atrofida.

Agar student o'qish xaqining 43%ini to'lasa, o'qish xaqining umumiy summasini hisoblang.

Agarda student o'qishni tashlasa universitetning xarajatlari 23 356 dollarga kamayadimi?

2. Erkinjonlarning 6 sotix tomorqasi bor. U har kuni tomorqada 30 minutdan ishlar edi. Endi u kuniga 1 soatdan ishlashga qaror qildi. Endi oladigan hosil 2 marta ko'payadimi? O'z fikringizni asoslang.

3. Nargiza pechene pishirayapti. Xamirga u ikki barobar ko'prok shakar soldi. Nargizaning pishirgan pechenesi 2 barobar ko'payadimi? Undan qanday xulosa chiqarish mumkin?

4. Fermerning oilasi 20 ga erda hosil etishtiradi, shu erga to'lanadigan bonitet bali bo'yicha renta (er solig'i)1 ga uchun 2000 so'm, yollanma ishchilarga to'lanadigan haq yiliga 600 ming so'm, material, urug'lik, mineral o'g'it, yonilg'i va boshqa xarajatlari 700 ming so'm, olingan qarzlarga bankka to'lanadigan yillik foiz 140 ming so'm, asosiy kapital amortizatsiyasi (mexanizmlar xizmat muddati 10 yil) – 400 ming so'm, Agarda fermer mexanizmlarini sotib, bankka qarzini to'lasa, unda 3 million so'm qoladi.

Fermer asosiy kapital bilan bankka qarzi o'rtasidagi farqni biznesga qo'yib, shu summadan 12 % miqdorida daromad olishdan voz kechgan. Fermerga yillik 600 ming so'm daromad bilan ishlashni taklif qilishayapti. Uning ayoli ham fermada ishlaydi. Boshqa joyda ishlaganda 200 ming so'm haq olgan bo'lar edi. Fermer o'zining tadbirkorlik talantini 600 ming so'm baholaydi.

Fermer xo'jaligining yillik buxgalteriya va iqtisodiy xarajatlarini aniqlang.

Agar fermer oilasining daromadi 3 million so'm bo'lsa, buxgalteriya va iqtisodiy foydani hisoblang. Ularni aniqlashdan qo'yilgan asosiy maqsad nima?

6. Mahsulot ishlab chiqarishning o'zgarishiga ko'ra, iqtisodiy xarajatlar va uning tarkibi quyidagicha o'zgaradi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot	FS	VC	TS	MS	AFS	AVS	ATS
0	120	0	120		-	-	-
1	120	90	210		120	90	210
2	120	170	290		60	85	145
3	120	240					
4	120	300					
5		370					
6		450					
7		540					
8		650					
9		780					
10		930					

Doimiy xarajatlar FS; O'zgaruvchan xarajatlar VC; Umumiy xara-jatlar TS; Me'yoriy xarajatlar MS; O'rtacha xarajatlar ATS; O'rtacha doimiy xarajatlar AFS;

O’rtacha o’zgaruvchi xarajatlar AVS; Bu kategoriyalarni aniklashni tushunish uchun eng ma’quli masaladan hamda grafik shaklidan foydalanish.

A) Berilganlar bo’yicha xarajatlarni hisoblab, jadvalni to’l-diring. Ularni grafik orqali ifodalang.

B) Bunda doimiy, o’zgaruvchan va umumiy xarajatlar egri chiziqlarini bitta grafikda ifodalang:

- doimiy va o’zgaruvchan xarajatlar o’rtasida qanday farq bor?
- nima sababdan FS gorizontal chiziqni ifodalaydi?
- nima sababdan TS egri chizig’i VC egri chizig’iga o’xshash? Izohlang.

V) O’rtacha doimiy AFS, o’zgaruvchi AVS, umumiy ATS va me’yoriy xarajatlar egri chizig’ini bitta grafikda ifodalang:

-mahsulot o’sishi bilan AFS egri chizig’i qanday o’zgaradi? Nima sababdan?
- AVS egri chizig’i qanday o’zgaradi? Nima sababdan?
- o’rtacha xarajatlar qanday o’zgaradi, nima sababdan?
- me’yoriy xarajatlar-chi, nima sababdan? Izohlang.

6. Quyidagilarni diqqat bilan o’qing. Uning qaysi birlarini o’zgaruvchan xarajatlarga, qaysi birlarini doimiy xarajatlarga qo’shamiz va nima sababdan?

1) bino, inshoat, asbob uskuna amortizatsiyasi;
2) ishchilarni ish xaqi;
3) korxona direktorining belgilangan maoshi;
4) mulk solig’i;
5) elektr energiyasi va suv xarajatlari;
6) xom ashyo xarajatlari;
7) material va instrumentlar sotib olish xarajatlari;
8) qo’yilgan o’z pul mablag’lariga boy berilgan protsent;
9) er solig’i

7. Ishlab chiqarilgan mahsulotning bozor bahosi 7000 so’m, umumiy xarajatlar eng optimal miqdor 12 ta mahsulot ishlab chiqarganda 96000 so’mga teng. O’zgaruvchi xarajatlar (AVC) esa 60000. O’rtacha va o’rtacha o’zgaruvchi, doimiy xarajatlarni hisoblang. Sizningcha menejer qisqa muddatli davrda qanday qarorga kelishi kerak?

Ishlab chiqarishni to’xtatib, tarmoq, bozorni tashlab ketishi kerakmi yoki yo’q. Javobingizni izohlang. Grafikda ko’rsating.

8. 100 dona mahsulot ishlab chiqarish uchun umumiy xarajatlar TS 300 ming so’m, 500 dona ishlab chiqarish uchun esa 600 ming so’m sarflanadi. Agar xarajatlar funktsiyasi to’g’ri chiziqda ifodalansa, 400 dona mahsulot ishlab chikarish uchun xarajatlarni hisoblang.

9. Aytaylik, 200 dona mahsulot ishlab chiqarish uchun 200 ming so’m, 201 donasiga 201 ming so’m, 202 donasiga 202 ming so’m sarflanadi. Hozirgi paytda 201 ta mahsulot ishlab chiqarganda firma foydasini maksimal darajaga etkazadi. Firmaga shoshqaloq xaridor murojaat qildi. Qo’shimcha bitta 202-mahsulot uchun

u 3000 to'lashga tayyor ekanligini uqtirdi. Agar qo'shimcha bitta mahsulot ishlab chiqarish va sotish firmaning boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishi va sotishiga xalaqit bermasa, u 202-mahsulotni ishlab chiqarishga rozi bo'lishi kerakmi? Javobingizni izohlang.

10. Olimjon firmada injener bo'lib, oyiga 50 ming so'm maosh olardi. U kichik korxona tashkil qildi. Buning uchun 150 ming so'm bankdagi jamgarmasini olib ishlatdi. Undan tashqari bankdan 300 ming so'm kredit oldi. Undan 300 ming so'mni uskunalar sotib olishga sarfladi.

Agar yillik kredit protsenti 20%, bankdagi saqlayotgan puliga yillik foiz 12% bo'lsa, iqtisodiy va buxgalteriya xarajatlarini hisoblang.

11. Mukammal raqobat sharoitida firma yiliga 20 ming dona telefon ishlab chiqaradi. O'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar 17500 so'm. O'rtacha iishlab chiqarish xarajatlari 21500 so'm. Bitta telefonning bozor bahosi 25000 so'm. U holda firma qancha foyda ko'radi?

12. Firma mart oyi davomida 500 dona mahsulot ishlab chiqardi. Uning umumiy xarajatlari 1mln. so'mni tashkil etdi. May oyida esa mahsulot ishlab chiqarishni 600 donaga etkazdi. Umumiy xarajatlar esa 1,26 mln. so'mga etdi. Doimiy xarajatlar 200 ming so'm. Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan o'rtacha, o'rtacha doimiy, o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlarni hisoblang. Bu ko'rsatkichlar va ularni mahsulot miqdorini ortishiga ko'ra qanday o'zgarishi haqida o'z fikringizni izohlang.

13. Quyidagi jadvalda tovar ishlab chiqarish uchun kapital va mehnat xarajatlarini hamda mahsulot TR miqdorini o'zgarishi berilgan.

Berilgan ma'lumotlar asosida:

A) Mehnat xarajatlarining (ishlovchilar soni) o'zgarishi bilan me'yoriy mahsulot hajmi qanday o'zgargan, hisoblang. Nechanchi ishchini ishga yollagandan so'ng me'yoriy mahsulot kamayishni boshlaydi?

B) Har bir qo'shimcha ishchini yollagandan so'ng, o'rtacha mahsulot (AR) hajmini hisoblang. Qachon o'rtacha mahsulot maksimal darajaga etadi?

V) Ishlab chiqarishda band bo'lganlarning soniga ko'ra, umumiy mahsulot (TR), o'rtacha (AR) va me'yoriy (MR) mahsulotning o'zgarishi grafigini chizing.

G) Me'yoriy umumdorlik (daromad)ni pasayib borishi qonuni amal qilishini tushuntiring. Uning fazalarning ko'rsating.

Kapital xarajatlari	Mehnat xarajatlari	Me'yoriy mahsulot	Umumiy mahsulot	O'rtacha mahsulot
K	L	MR	TR	AR

10	0		0	
10	1		20	
10	2		54	
10	3		100	
10	4		151	
10	5		197	
10	6		230	
10	7		251	
10	8		234	

13. Shunday iqtisodiy kategoriya borki, shu kategoriyani ifodalagan so'zni ikki harfini almashtirsangiz uning aksi bo'lgan, o'rganayotgan mavzuga tegishli iqtisodiy kategoriyani ifodalovchi so'zning sinonimi hosil bo'ladi. Shu ikki kategoriya qatnashgan uch so'zdan iborat o'zbek xalq maqolini ayta olasizmi?

T/N

1. Kichik firmalar doimo yirik firmalarga nisbatan samarasiz
2. Zarar ko'rayotgan firmalar mahsulot ishlab chiqarishni to'xtatishlari lozim
3. Firmaning iqtisodiy xarajatlari resurs egalariga to'lovlar bo'lib, bu resurslarni boshqalar muqobil maqsadlarda ishlata olmaydi
4. Iqtisodiy foyda odatda buxgalterlik foydasidan katta
5. Agar firma ishlatayotgan resurslari 30%ga oshsa, ishlab chiqarish hajmi esa 20%ga o'ssa, u holda ishlab chiqarishning ijobiy effekti hosil bo'ladi
6. Agar o'zgaruvchi resurs narxi o'ssa, u holda ATC, AVC, va MC egri chiziqlari yuqoriga siljiydi, AFC egri chizig'i avvalgicha qoladi
7. O'rtacha doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmi o'sgan sari qisqaradi
8. Agar firmaning resurslarga xarajatlari 10%ga o'ssa, ishlab chiqarish hajmi esa 15%ga o'ssa, u holda masshtab ijobiy effekti kuzatiladi
9. Agar o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar AVC ishlab chiqarish hajmi ko'paygan sari qisqarsa, u holda me'yoriy xarajatlar AVCga nisbatan past bo'ladi
10. Qiska muddatli davrda firma 500 dona mahsulot ishlab chiqaradi. O'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar 2000 so'm, o'rtacha doimiy xarajatlar 500 so'm, umumiy xarajatlar esa 1100 so'm bo'ladi

Testlar

1. Firmaning doimiy xarajatlari bu -
   a) resurslarni sotib olish xarajatlari;
   b) mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan minimal xarajatlar;
   v) firma mahsulot ishlab chiqarmasa ham sarflanadigan xarajatlar;
   g) mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'zgarishiga bog'liq xarajatlar;
   d) mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan o'rtacha xarajatlar.

2. Firmaning o'zgaruvchi xarajatlari bu -
   a) mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan o'rtacha xarajatlar;
   b) me'yoriy xarajatlar;
   v) firma mahsulot ishlab chiqarmasa ham sarflanadigan xarajatlar;
   g) mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'zgarishiga bog'liq xarajatlar;
   d) mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan minimal xarajatlar;

3. Me'yoriy xarajatlar bu -
   a) qo'shimcha birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan qo'shim-cha xarajatlar;
   b) qo'shimcha birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan maksi-mal xarajatlar;
   v) qo'shimcha birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun doimiy xarajat-lar
   g) qo'shimcha birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan mini-mal xarajatlar;
   d) qo'shimcha sarflangan uzoq muddatli davriy xarajatlar;

4. Firmaning qisqa muddatli davrdagi umumiy (yalpi) xarajatlari (TS) bu -
   a) doimiy (FS) va me'yoriy(MS) xarajatlar yig'indisi;
   b) o'rtacha o'zgaruvchi (AVS) va o'rtacha doimiy xarajatlar (AFS) yig'indisi;
   v) o'rtacha o'zgaruvchi (AVS) va me'yoriy (MS) xarajatlar yig'indisi;
   g) doimiy (FS) va o'zgaruvchi (VS) xarajatlar yig'indisi;
   d) o'rtacha doimiy (AFC) va o'zgaruvchi (VS) xarajatlar summasi;

5. Qisqa muddatli davrda firma maksimal darajada foyda olish uchun mahsulot ishlab chiqarishni to'xtatadi, agarda …
   a) narx minimal o'rtacha umumiy xarajatlardan kam bo'lsa;
   b) normal foyda o'rtacha tarmoq foydasidan past, bo'lsa;
   v) umumiy daromad umumiy xarajatlardan past bo'lsa;
   g) umumiy tushum umumiy o'zgaruvchi xarajatlardan kam bo'lsa;
   d) o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar narxdan past bo'lsa.

6. Agar firma resurslar sotib olgan xarajatlarini 10% ga oshirsa, bunda ishlab chiqarish hajmi esa 15% ga ortsa, u holda:
   a) ishlab chiqarishda salbiy masshtab effekti kuzatiladi;
   b) ishlab chiqarishda ijobiy masshtab effekti kuzatiladi;
   v) unumdorlikni pasayib borish qonuni amal qiladi;

g) o’rtacha umumiy xarajatlar ortadi;
d) firma maksimal foyda oladi.

7. Iqtisodiy foydaning o’sishi raqobatli bozorda nimaga olib keladi?
a) amal qilayotgan firmalarning ishlab chiqarishni kengaytirishga;
b) tarmoqqa yangi firmalar kirib kelishiga;
v) mahsulotni bozor bahosini o’sishiga;
g) ishlatilayotgan resurslar bahosini o’sishiga;
d) bu foydani borgan sari nolga yaqinlashtiradigan omillar vujudga kelishiga olib keladi.

8. Quyidagilardan qaysi biri «normal foyda» tushunchasini nisbatan aniqroq ifodalaydi?
a) firmaning me’yoriy xarajatlari me’yoriy daromadlarga MC=MR teng bo’lganda olinadigan foyda;
b) tipik firma tomonidan tarmoqdagi olinadigan foyda;
v) firma normal tarzda ish yuritganda oladigan foyda;
g) tadbirkorga yaxshi yashashini ta’minlaydigan miqdordagi foyda.
d) firma mazkur faoliyat bilan shug’ullanishi uchun zarur bo’lgan minimal foyda;

9. Quyida sanab o’tilgan xarajatlardan qaysi biri me’yoriy xarajatlarga bevosita ta’sir ko’rsatadi?
a) umumiy xarajatlar;
b) o’rtacha doimiy xarajatlar;
v) o’zgaruvchi xarajatlar;
g) doimiy xarajatlar;
d) tashqi xarajatlar;

10. Qaysi o’rtacha xarajatlar egri chizig’i botiq yoy shaklini ifodalamaydi?
a) o’rtacha o’zgaruvchi AVC xarajatlar;
b) o’rtacha (umumiy) yalpi ATC xarajatlar;
v) o’rtacha doimiy AFC xarajatlar;
g) uzoq muddatda o’rtacha xarajatlar LAC;

11. Uzok muddatli davrda …
a) hamma xarajatlar doimiy bo’ladi;
b) o’zgaruvchi xarajatlar doimiy xarajatlarga nisbatan tez o’sadi;
v) doimiy xarajatlar o’zgaruvchi xarajatlarga nisbatan tez o’sadi;
g) hamma xarajatlar o’zgaruvchan bo’ladi;
d) me’yoriy xarajatlar nisbatan tez o’sadi;

12. Ishlab chiqarishda umumiy o’rtacha xarajatlar minimal miqdorda bo’ladi, qachonki:
a) AVS=TFS;
b) foyda maksimal darajada bo’lganda;
v) MS= AVS;

g) MS= ATS;
d) MS= AS;

13. Quyidagi xarajatlardan qaysi biri firmaning optimal ishlab chiqarish hajmini belgilashda e'tiborga olinmaydi:
a) o'rtacha o'zgaruvchi;
b) buxgalteriya xarajatlari;
b) o'rtacha doimiy;
g) me'yoriy;

14. Naflilikning pasayib borishi qonunini amal qilishini izohlashda quyidagilardan qaysi biri to'g'ri kelmaydi?

a) universal qonun bo'lib doimo amal kiladi;
b) uning amal qilish doirasi cheklangan bo'lib, eng avvalo kundalik ehtiyojlarni qondiradigan tovar xizmatlarga tegishli;
v) qisqa muddatli davrga xos;
g) ko'plab tovarlarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi;
d) naflilikni baholuvchi yagona o'lchov yo'q.

15. O'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar yigirma ming so'm, o'rtacha doimiy xarajatlar besh ming so'm, umumiy xarajatlar teng bo'ladi:
a) 25000
b) 1250000
v) 750000
g) mavjud ma'lumotlar asosida aniqlash mumkin emas

Tarqatma materiallardan namunalar
1-tarqatma material

Ayrim mamlakatlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun sarflangan resurslar miqdori, % da (bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun). 1-JADVAL

№	***Davlatlar***	Yonilgi va elektro-energiya	Material-lar	Mehnat	Asosiy fondlar
1	AQSh	100	100	100	100
2	Yaponiya	64,5	90,5	120,5	100
3	Germaniya	82,5	105,5	162,5	125
4	Frantsiya	70,5	100	170	137,5
5	Angliya	70,5	115,0	187,5	137,5
6	Italiya	64,5	95,5	191,5	150
7	Rossiya	300	225	385	190

Jadval raqamlaridan qanday xulosa chiqarish mumkin? Nima sababdan jahon bozoriga chiqish uchun sifatli mahsulot ishlab chiqarishning o'zi kamlik qiladi?

2-tarqatma material

Ayrim mamlakatlarda 100 dollarlik mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlar:

№	***Davlatlar***	Yonilgi va elektro-energiya	Materi-allar	Mehnat	Asosiy kapital (fond)	Umumiy xarajatlar
1	AKSh	8,5	56,5	24,0	4,0	93,0
2	Yaponiya	5,5	51,0	29,0	4,0	89,5
3	Germaniya	7,0	59,0	39,0	5,0	110,0
4	Frantsiya	6,0	56,5	41,0	5,5	109,0
5	Angliya	6,0	65,0	45,0	5,5	121,5
6	Italiya	5,5	54,0	46,0	6,0	111,5
7	Rossiya	25,0	125,5	93,0	7,5	251,0

Bilamizki, xarajatsiz hech bir iqtisodiy faoliyat yuz bermaydi. Lekin har bir xo'jalik yurituvchi sarflagan xarajatlar bir-biridan farq qiladi. Jadval raqamlaridan qanday xulosa chiqarish mumkin? Sizningcha, O'zbekistonda xarajatlar darajasi qanday? Ularni kamaytirish uchun qanday chora-tadbirlar ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda?

Tarqatma material 3



Qachon umumiy xarajatlarga nisbatan tushum (daromad) ko'p bo'lganda iqtisodiy foyda vujudga keladi? (chizmada AV bo'lakda).

A va V nuqtalar ishlab chiqarish hajmini kritik nuqtalari. Unda xarajatlar tushum bilan teng.

Firma Q_A dan Q_R gacha miqdor iqtisodiy foyda oldi, uning maksimal darajasi Q umumtushum TR bilan umumiy xarajatlar TS maksimal miqdorga erishmagan (SK kesma)

4-tarqatma material

Me'yoriy yondoshuv. Bunda me'yoriy daromad me'yoriy xarajatlarga teng. Bu quyidagi grafikda berilgan.



Q dan kam miqdorda (F nuqtadan chap tomonda) MR>MC, Q dan ko'p bo'lsa xarajatlar tushumi ko'p MR<MC; faqat ishlab chiqarish miqdorini kamaytirishgina qo'shimcha daromad olishni ta'minlashi mumkin.

Bundan kelib chiqib optimal variant MR=MC. Bu holda bozorning boshqa tarkibi (monopolistik raqobat, monopoliya, oligopoliya) uchun ham umumiy.

Ilgari ko'rgandek erkin raqobat uchun me'yoriy daromad bilan narx teng R=MC.

Firma xarajatlari mahsulot bahosidan kam bo'lsagina foyda oladi. Maksimal foyda olish uchun MR=MC, P>ATC bo'lishi kerak.

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:

1b); 2e); 3z); 4y); 5d); 6yo); 7g); 8a); 9v); 10j);

Masala va mashqlar:

1. Agarda student o'qishni tashlasa, o'qish haqining umumiy summasi, faqatgina o'zgaruvchan xarajatlar miqdoriga kamayadi xolos.

2. Albatta yo'q (chunki tomorqaning maydoni va undagi ko'chatlar soni o'zgargani yo'q).

Yo'q (chunki faqat bir resurs, shakarni ko'paygani bilan boshqa ingredientlar o'zgarmay qoldi).

4. 1) **Buxgalteriya xarajatlari:**

er solig'i 2x20=40 000 so'm;
protsent 140 000 so'm;
amortizatsiya 400 ming so'm;
material, min. o'g'it va boshqalar 700 000 so'm;

ish haqi 600 000 so'm;

Fermer xo'jaligining jami buxgalteriya xarajatlari: 1880 000 so'm;

Iqtisodiy xarajatlar:

mulkka bo'lgan foiz 3 600 000 so'm;

fermer va ayoli maosh sifatida olishi mumkin bo'lgan summa: 600+200+600 = 1 400 000 so'm;

Jami iqtisodiy xarajatlar: 1880+360+1400 = 3 640 ming so'm;

2) Olingan foyda:

a) Buxgalteriya foydasi 3-1,880 = 1,12 mln. so'm yoki 1 120 000 so'm;

b) Iqtisodiy foyda 3-3, 640 =- 0,64 mln. so'm yoki minus 640 000 so'm, ya'ni zarar;

5. 13-masalaga o'xshash echiladi;

6. FS 1, 3, 4, 6, 9
VC 2, 5, 7, 8;

7. Grafik quyidagicha:

O'rtacha xarajatlar AS = 8000 so'm;

O'rtacha o'zgaruvchi xarajat AVC = 5000 so'm;

O'rtacha doimiy xarajatlar AFC = 3000 so'm.

Firma zararga qaramay tarmoqda qolishi kerak, bu unga zararni minimallashtirish imkonini beradi. Chunki 12 ta mahsulot ishlab chiqarsa 12000 so'm zarar ko'radi. Agar ishlab chiqarishni to'xtatsa 36000 so'm zarar ko'radi.



8. 525 ming so'm.

9. Yo'q. MR=3000; MS=40300 so'm.

10. 2,43 mln. va 1,65 mln. so'm.

11. 70 mln. so'm.

12. Mart oyida o'rtacha xarajatlar 2000 so'm; o'rtacha doimiy xarajatlar 400 so'm; o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar 1600 so'm; May oyida esa muvofiq ravishda 2100 so'm; 333,3 so'm; 1766,7 so'm;

13.

Masalani echish:

K	L	MR	TR	AR
10	0	-	0	0
10	1	20	20	20
10	2	34	54	27
10	3	46	100	33

10	4	51	151	38
10	5	46	197	39
10	6	33	230	38
10	7	21	251	36
10	8	-17	234	29

A) Me'yoriy mahsulot MR = TR_n – TR_{n-1} Jadvalda MR ustunda ko'rinib turibdiki, beshinchi ishchidan boshlab me'yoriy maxsulot pasayishni boshlagan. To'rtinchi ishchida 51, beshinchida 46 (jadvalga qarang).

B) O'rtacha mahsulotni har bir ishchi qo'shilganidan keyin topamiz. Umumiy mahsulotimiz hajmi eng maksimal 251 ga ettinchi ishchini qabul qilinganda erishiladi, 251/7 = 35,9 (jadvalga karang).

V) Me'yoriy MR, o'rtacha AR, umumiy TR mahsulot quyidagi grafikda ko'rsatilgan.



2) Umumiy mahsulot dinamikasi unumdorlikni pasayib borishi qonuniga bo'ysinadi.

Birinchi faza - MR o'sib boruvchi me'yoriy unumdorlik.

Bu fazada me'yoriy unumdorlik MR (20, 34, 46, 51) o'sib boradi. Natijada TR jadal o'sadi.

Ikkinchi faza – me'yoriy unumdorlikni pasayishi namoyon bo'la boshlaydi (51, 46). TR ning o'sish sur'ati sekinlashadi. Me'yoriy mahsulot MR pasayadi, lekin hali musbat miqdorga ega.

Uchinchi faza - me'yoriy unumdorlik manfiy natija, ya'ni zarar keltirishini boshlaydi

Shunday kelib, TR egri chizig'i, o'zining maksimal darajasiga etgach, pasayishni boshlaydi.

Me'yoriy mahsulot esa zarar keltirishni boshlaydi.

14. Daromad, buromad. «Daromadga qarab buromad»

T/ N

1N; 2N; 3T; 4N; 5N; 6T; 7N; 8T; 9T; 10N (1250 ming so'm);

Testlar

1v); 2g); 3a); 4g); 5g); 6b); 7b); 8d); 9v); 10v); 11g); 12d); 13v); 14a); 15g);

13-mavzu. Mehnat va ish haqining tashkil topishi

Asosiy tayanch tushunchalar

1. Mehnat munosabatlari
2. Mehnat
3. Ish haqi
4. Nominal ish haqi
5. Real ish haki
6. Insoniy kapital
7. Jamoa bitimi
8. Yagona tarif setkasi

a) Insonning (jismoniy va aqliy energiyasi) kuchi, energiyasini sarflab, jamiyat tomonidan tan olingan natijaga erishishga qaratilgan maqsadli faoliyatidir.

b) Mehnat omilidan foydalanish jarayonida yuzaga chiqadigan munosabatlardir.

v) Pul shaklidagi ish xaqi.

g) Mehnat bozoridagi ish kuchiga talab va taklifning muvozanat bahosidir.

d) Odamlar yillar davomida to'plagan bilim, malaka, tajriba tarzida bo'lib, uni egasidan ajratib bo'lmaydi.

e) Pul shaklida olingan ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdorida ifodalanishi.

yo) Mehnat haqi bo'yicha milliy iqtisodiyotda band bo'lganlarni mehnat razryadi va ular bo'yicha tarif koeffitsienti. Har bir razryadga muvofiq gorizontal razryadlar ham bo'lishi ko'zda tutilgan.

j) Ishchi-xizmatchilar jamoasi bilan firmalar o'rtasida tuzilgan shartnoma.

Masala va mashqlar.

1. Rivojlangan mamlakatlarda sanoat tarmoqlarida minimal ish haqi miqdori quyidagicha (AQSh dollarida)

Germaniya	Shveytsariya	Gollandiya	Frantsiya	Italiya
31,8	28,3	23,3	19,3	18,0

Hozirgi paytda Germaniya sanoatida o'rtacha ish haqi darajasi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni, Shveytsariya esa uchinchi o'rinni egallaydi.

Jadval ma'lumotlari asosida boshqa mamlakatlarning Germaniyaga nisbatan o'rtacha soatlik ish xaqi darajasini hisoblang. Agar bu ko'rsatkichni O'zbekiston bilan taqqoslasak kanday xulosa chiqarish mumkin?

Ish haqini xohlaganimizcha ko'tara olamizmi? U nimalarga bog'liq. Bu borada hukumatimiz qanday chora-tadbirlar ko'rayapti? Faqat nominal ish haqiga qarab turmush darajasi haqida xulosa chiqarish mumkinmi?

2. O'zbekistonda tarmoqlar bo'yicha mehnat haqi quyidagicha (o'rtacha respublika darajasiga nisbatan, %da)

	1990	1995	2000
Milliy iqtisodiyotda jumladan:	100	100	100
Sanoat	108	159	192
Qishloq xo'jaligi	107	70	50
Qurilish	131	175	158
Transport	115	159	172
Aloqa	157	168	216
Savdo	84	58	70
Kommunal xo'jalik	76	101	120
Xalq ta'limi	81	72	87
Kredit, sug'urta	149	198	215

Jadvalni 2005 yil ma'lumotlari bilan to'ldiring. Ularni taqqoslang, bunday tabaqalanishni sabablari nimada deb o'ylaysiz, ko'rsating.

3. Kuyidagilarga diqqat qiling.

O'zbekistonda turli mulk shakllariga ko'ra mehnat haqining tabaqalanishi (o'rtacha respublika darajasiga nisbatan %da)

	1995	2000
Milliy iqtisodiyotda o'rtacha jumladan:	100	100
1. Davlat mulkchiligiga asoslangan korxonalar, tashkilotlarda	114,9	120,1
2.Nodavlat mulkchiligiga asoslan-gan korxonalarda, undan:	86,6	86,0
a) xususiy individual mulkchilik	69,4	65,3
b) aktsionerlik mulkchilik	121,5	142,2
v) qo'shma korxonalarda	165,8	269
g) kooperativ mulkchilik	108,9	50,1
d) jamoa mulkchiligi	69,3	41,4
e) ijara korxonalar	104,7	63,6
j) ijtimoiy tashkilotlar mulki	75,9	127,8

Jadvalda 2005 yil ma'lumotlarini keltiring. Ulardan qanday xulosa chiqarish mumkin, izohlang. Nima sababdan ish xaqi qo'shma korxonalarda eng yuqori darajada. Fikringizni asoslang.

4. AQShda ish haqi va maosh 4005 mlrd. dollarni, renta 28 mlrd. dollarni, protsent 407 mlrd dollarni, xususiy tadbirkorlarning daromadi esa 473 mlrd. dollarni tashkil etdi. Ularning umumiy daromadga nisbatan ulushini hisoblang.

O’zbekistonda hozirgi paytda ish haqi aholining umumiy daromadlarining deyarli 1/ 3 qismini tashkil etadi. Ularni taqqoslang. Ish xaqining ulushi yuqoriligi nimani ko’rsatadi, izohlang.

5. Firma ishchilarni raqobat asosida ishga qabul qiladi. Agar bir dona mahsulotning bozordagi narxi 5500 so’m bo’lsa, firma nechta ishchini ishga qabul qiladi? Hisoblang, jadvalni to’ldiring va javobingizni izohlang.

Ishchilar soni	Mahsulot hajmi, dona	Mehnat haqiga xarajatlar, ming so’m	Me’yoriy mahsulot, ming so’m
0	0		
1	15	30	
2	35	60	
3	50	90	
4	60	120	
5	66	150	
6	67	180	
7	68	210	
8	69	240	
9	70	270	
10	71	300	

7. AQShda bilim olish uchun sarflangan xarajatlar, so’ngra olinadigan daromadlar o’rtasidagi bog’lanish quyidagicha: o’rta ta’limga nisbatan bilim olish muddatini 2 baravar ko’payishi, o’qishni tugatgach daromadni 5 martaga ko’payishiga olib keladi.

Bu fikrni tahlil qiling va quyidagi savollarni: «Inson kapitali» nima? Inson kapitaliga investitsiya deganda nimani tushunasiz? Izohlang.

8. Odiljonning oldida ikki yo’l bor. To’rt yil davomida birjada etakchi mutaxassis bo’lib ishlab yiliga 720 ming so’m daromad topish. Ikkinchisi - bir yil «Bank va moliya akademiyasi»da o’qish. O’qish uchun 1 mln. so’m to’lanadi. O’qishni tugatgach unga bo’lim boshlig’i o’rnini va’da qilishyapti. Keyinchalik yanada yuqori lavozimlarga ko’tarilishi mumkin. Uch yil davomida uning maoshi har yili 960 ming so’m bo’lishi mumkin. Sizningcha Odiljon qaysi yo’lni tanlagani ma’kul. Bank foizi darajasi yiliga 20% bo’lsin.

9. AQShda Bill Klinton prezident bo’lgan paytda MRB (Markaziy razvedka boshqarmasi) direktori vazifasiga J.Vulsi tayinlangandi. U Stenford universitetini tugatgan. Oksfordda o’qigan. Huquqshunoslikdan Yelsk universitetida dissertatsiya yoqlagan. Ko’pincha shunday ko’p bosqichli bilim olish bunday yuqori mansabga ko’tarilishda qanday rol o’ynaydi? Tanishlaringiz ichidan kimlarni bilasiz? Siz ularga havas qilasizmi?

10. Nima sababdan yaxshi ta'minlangan oilalarning ko'pchiligida ayollar to'la bo'lmagan ish kuni ishlashadi yoki umuman ishlashmaydi. Oiladagi bolalar soni, uy yumushlari kam ta'minlangan shunday oilalarnikidan ko'p emas. Bu erda qaysi effekt: o'rin bosishmi yoki daromad effekti ustun?

11. Topishmoq: Uning o'g'li o'g'irlik, qizi esa ocharchilik. U nima?

T/N

1. Qachonki yollangan ishchilar miqdori ular yaratgan me'yoriy mahsulot hajmi bilan ish xaqi stavkasiga teng bo'lsa, raqobatli bozorda ish yuritayotgan firma o'z foydasini maksimallashtirishga erishadi.
2. Mehnat taklifi raqobatli bozorda faoliyat yuritayotgan firma uchun mutlaq noelastik bo'ladi.
3. Agar tovar va xizmatlarga chakana baholar nominal ish xaqi stavkasiga nisbatan tezroq o'ssa, u holda real ish xaqi pasayadi.
4. Firma monopolistik mehnat bozorida ish xaqi stavkasini o'rnatadi.
5. Ishlagan vaqtiga qarab to'lanadigan ish haqi vaqtbay yoki donabay ish haqi deb ataladi.
6. Hozirgi paytda keng qo'llaniladigan ish xaqi tizimiga
   * guruhiy(jamoa) ishbay mukofotli;
   * vaqtbay mukofotli ish haqi to'lash;
   * tabaqalashgan ish haqi to'lash;
   * ishbay progressiv ish haqi to'lash;
   * vaqtbay progressiv ish haqi to'lash;
   * «ishni analitik baholash» tizimi va boshqalar kiradi.
7. Ish haqi bir tomondan yollangan ishchini mehnat unumdorligi va intensivligini oshirishga undaydi. Ikkinchi tomondan, samarali mehnat stimulini yaratadi.
8. Amerikalik iqtisodchi Jeyms Byukenen «Inson kapitali» fundamental tadqiqoti, inson kapitali nazariyasiga oid ishlari uchun 1992 yili iqtisod sohasida Nobel mukofotini olgan.

Testlar

1. Real ish haqini o'zgarish darajasini, nominal ish haqi darajasi bilan:
   a) tovar va xizmatlar bahosi darajasi;
   b) foyda normasi;
   v) soliqqa tortish stavkasi;
   g) ish vaqtining uzunligi;
   d) mehnat unumdorligi bilan taqqoslash orqali aniqlash mumkin.

2. Ish haqi stavkasini o'sishi bilan
   a) agar mehnatga talab elastik bo'lsa, bandlik qisqaradi;
   b) agar mehnatga talab mutloq noelastik bo'lsa, bandlik qisqaradi;

v) agar mehnatga talab elastik bo'lsa, bandlik o'sadi;
g) agar mehnatga talab noelastik bo'lsa, bandlik o'sadi;
d) agar mehnatga talab noelastik bo'lsa, bandlik qisqaradi.

3. Ish haqini kasaba uyushmalari bosimi bilan oshirilishi bilan
a) bandlik miqdori o'zgarmaydi;
b) bandlikning kamayishiga olib keladi;
v) bandlikning o'sishiga olib keladi;
g) mehnat unumdorligini pasaytiradi;
d) ish vaqtini uzaytirishga olib keladi.

4. Mehnat taklifini ishchi sonining o'zgarmagani holda bo'sh vaqt evaziga ko'payishi
a) daromad effekti;
b) baho effekti;
v) o'rin bosish effekti;
g) miqdor effekti;
d) alohida manfaatlar effekti deb ataladi.

5. Ishlovchining bo'sh vaqtni ko'proq qadrlashi evaziga mehnat taklifining kamayishi
a) baho effekti;
b) o'rin bosish effekti;
v) daromad effekti;
g) miqdor effekti;
d) alohida manfaatlar effekti deb ataladi.

6. Ish haqi dinamikasi va darajasiga mehnat bozori kon'yunkturasidan tashqari quyidagilardan qaysi biri ta'sir qilmaydi?
a) tabiiy mehnat resurslari;
b) texnika, texnologiya darajasi;
v) mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi;
g) mamlakatda qonunlar ijrosi va siyosiy vaziyat;
d) ishchilarni xohish-ehtiyoji.

7. Firma mehnat bozorida monopsoniya hisoblanadi, lekin tayyor mahsulot bozorida monopol mavqega ega emas. Raqobatdosh firmalarga nisbatan u:
a) ko'proq ishchilarni yollaydi va nisbatan yuqori ish haqi belgilaydi;
b) kamroq ishchilarni yollaydi va nisbatan pastroq ish haqi belgilaydi;
v) kamroq ishchilar yollaydi va yuqoriroq ish haqi tayinlaydi;
g) ko'proq ishchilar yollaydi va kamroq ish haqi belgilaydi;
d) ishchilar sonini o'zgartirmaydi, ko'proq ish haqi belgilaydi.

Tarqatma material namunalari

1-tarqatma material

Kasaba uyushmalarining ish haqi darajasiga ta’siri uslublari:

- Mehnat taklifini cheklash. qonunlar yordamida ish vaqtini cheklash, kasaba uyushmasiga a’zo bo’lmaganlarni ishga qabul qilishni taqiqlash, mehnat intensivligini va og’irligini limitlash.
- Tadbirkorlar bilan jamoa mehnat shartnomasi tuzish jarayo-nida ish haqi stavkalarini ko’tarish maqsadida ularga bosim o’tkazish.
- Mehnatga talab vujudga keltiradigan mahsulot ishlab chiqarish turlarini o’stirishga ta’sir ko’rsatish orqali ish haqini o’sishiga ta’sir ko’rsatish.
- Ishlab chiqarish monopolizatsiyasiga qarshi kurash (Monopo-liyalar ishlab chiqarishni qisqartirish hisobiga narxni oshiradi. Bu ish haqi darajasiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.) Monopoliyaga qarshi kurash orqali ish xaqining pasayib ketish tendentsiyasini to’xtatish.

Kasaba uyushmalari yana qanday yo’llar bilan ish haqi darajasiga ta’sir etishni uyushtiradi?

2-tarqatma material

Mehnat taklifiga ta’sir etuvchi omillar

Mamlakatda mehnatga layokatli kishilar soni	Ish haqi darajasi	Ish kuni uzunligi (haftasiga 39, 40, 41 yoki 42 soat)		Aholini mutaxassislik, kasb egallashi, malakasi darajasi

Bo’sh katakni to’ldiring.

3-tarqatma material

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha o'rtacha nominal ish haqi, so'm

Davr	O'rtacha ko'rsatkich	Sanoat	Trans-port	Quri-Lish	Savdo	Axborot bilan ta'min-lash	Sog'liq-ni saqlash	Xalq ta'limi	Moliya va kredit
2000	12492	23166	20259	20299	9901	42387	8566	9967	25046
2001	18424	29797	24002	23193	12312	40228	10853	1930	31401
2001/2000 o'sish % da	47,5	28,6	18,5	14,3	24,4	- 5,3	6,7	19,7	25,4
2002	27511	42747	37882	34405	21677	70008	16227	17262	47672
2002/2001 o'sish % hisobida	49,3	43,5	57,8	48,3	76,1	74,0	49,5	44,7	51,8

Manba: O'zR Davlat Statistika qo'mitasi

Respublika hududlari bo'yicha o'rtacha ish haqi, ming so'm

Davr	o'rtacha ko'rsatkich	Nukus	Andijon	Buxoro	Jizzax	Qarshi	Navoiy	Namangan	Samarqand	Termiz	Sirdaryo	Toshkent vil.	Farg'ona	Xorazm	Toshkent sh.
000	2,5	10,6	10,7	12,9	8,8	9,7	21,2	9,9	8,2	9,72	0,7	5,0	0,4	0,1	2,7
001	8,4	13,6	13,8	17,0	12,6	14,1	36,2	13,1	13,4	14,2	6,8	2,3	5,2	13,8	27,2
002	7,5	20,0	20,8	25,2	18,3	21,0	54,5	18,9	19,9	18,2	24,5	5,6	2,7	0,3	0,3

Jadvallarni keyingi yillar ma'lumotlari bilan to'ldiring.
Ko'rsatkichlarni solishtiring. Tahlil qilib izohlang.

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:

1b); 2a); 3g); 4v); 5e); 6d); 7j); 8yo);

Masala va mashqlar:

1. O'rtacha bir soatlik ish haqi Germaniyaga nisbatan Shveytsariyada 89%, Gollandiya 73,3%, Frantsiya 60,7%, Italiyada 56,6%ni tashkil etadi.

4. Umumiy daromad 4913 mlrd. doll. Ish xaqi 81,5%, renta 0,6%, protsent 8,3%, xususiy tadbirkorlar daromadi 9,6%ni tashkil etadi.

5.

Ishchi soni	Me'yoriy mahsulot
1	
2	110000
3	82500
4	55000
5	33000
6	5000
7	6000
8	5500
9	8000
10	5500

Firma 5 ta ishchini ishga qabul qiladi. Chunki 6-ishchi yaratgan me'yoriy mahsulot atigi 5000 so'mni tashkil etadi. Ish haqi esa 30000 so'm.

6. Tabaqalanish asosida qobiliyat, nazariy va amaliy tayyorgarlik, baja-riladigan ishning obro'li bo'lish-bo'lmasligi, malaka, mohirligi nomukam-mal raqobatga asoslanishi, taklif va talab elastikligi ham ta'sir qiladi.

7. 1) Bu nazariy va amaliy tayyorgarlik ko'rish natijasida yuqori malaka talab qiladigan ishlarni bajarish imkonini beradigan insonda jamg'arilgan potentsial.

2) Bu bilim olish, malaka, ko'pincha mohirlikka ega bo'lish va sog'lom bo'lish uchun qilingan xarajatlar, qaysiki kelajakda daromadlarni ko'payishiga olib keladi.

8. Malakasini oshirgandan so'ng 3 yil davomida oladigan daromadi qilgan xarajatlaridan 365714 so'm ko'p. Undan tashqari kelajakda u orzu qilgan lavozimiga erishadi. Demak malakasini oshirgani ma'qul.

9. Insoniy kapitalga investitsiya, shuncha uzoq muddat jarayonida olingan bilim malaka, kelajakda muvaffaqiyatga erishish, jumladan yuqori daromad olishga yo'l ochadi. Jumladan, J. Vulsining shu darajaga etishish imkoniyatida ifodalanadi. Bunday misollarni juda ko'plab keltirish mumkin.

10. Daromad effekti amal qiladi.

11. Tanballik

T/N

1T; 2N; 3T; 4T; 5N; 6T; 7T; 8N(Gerri Bekker);

Testlar

1a); 2a); 3b); 4v); 5v); 6d); 7b);

14-mavzu. Raqobat nazariyasi

Asosiy tayanch tushunchalar:

1. Raqobat
2. Monopoliya
3. Nomukammal raqobat
4. Oligopoliya
5. Mukammal raqobat
6. Sof monopoliya
7. Monopoliyaning maqsadi
8. Jamiyatning sof yo'qotishlari
9. Sun'iy monopoliya
10. Monopsoniya

a) Tarmoqda yagona, o'rnini bosadigan, almashtirib bo'lmaydigan mahsulot sotuvi (ishlab chiqarish).

b) Ishlab chiqarish va bozorda uncha ko'p bo'lmagan, sanoqli firmalar hukmronligi.

v) Iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o'z manfaatlaridan kelib chiqib, yuqori daromad olish imkoniga, nufuzli mavqega ega bo'lish uchun boshqalar bilan bellashuvi, kurashi

g) Bir yoki bir necha sotuvchi bozorda narx ustidan nazorat o'rnatish imkoniga ega bo'lgan bozordagi raqobat.

d) Erkin raqobatga asoslangan, cheklanmagan miqdorda bozorga (tarmoqqa) kirish, erkin mustaqil ishlab chiqaruvchilar bozorda narx ustidan nazorat o'rnatish imkoni yo'q bozordagi ideal raqobat.

e) Narx ustidan nazorat o'rnatish yoki ishlab chiqarish hajmini o'zgartirish orqali maksimal darajada daromad, monopol foyda olish

yo) Monopolistik manfaatni ko'zlab korxonalarning birlashuvi.

j) Tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish va bozorda yagona firma hukmronlik qilishi.

z) Monopoliyalar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmini samarali darajadan kamaytirish natijasida iste'molchi va sotuvchilar uchun ma'lum miqdorda mahsulotni yo'qotilishi, ishlab chiqarishning kamayishi.

i) Yagona iste'molchiga asoslangan bozor.

Masala va mashqlar.

1. Mukammal raqobatga asoslangan tarmoqda 20ta firma faoliyat yuritadi. Mahsulotning bozor bahosi 40. Agar uzok muddatli davrda tarmoqning minimal o'rtacha xarajatlari 30, umumiy xarajatlar esa 60 bo'lsa. Tarmoqni raqobatli muvozanatga yaqinlashuvi ro'y berayapti.. U holda baho va taklif qanday o'zgaradi.

2. Mukammal raqobatli firma yiliga 20 ming dona telefon ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarishning o'rtacha xarajatlari 21500 so'm. O'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar 17500 so'm, bozor bahosi 25000 so'm bo'lsa, firma qancha foyda ko'radi.

3. Mamlakatimizda turli shakldagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan o'z ustunlik mavqeidan foydalanib, har xil qonun buzilishi holatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida monopolist korxonalar Davlat reestriga kiritiladi.

O'zbekistonda 1996 yil monopolist korxonalar soni 827ta bo'lib, mahsulotlar soni 4351ta bo'lgan bo'lsa, 2003 yilga kelib, Davlat reestriga kiritilgan korxonalar soni 386taga tushdi. Mahsulot (tovar va xizmatlar) esa 247ta. Monopol mahsulotlarning asosiy qismi xizmat ko'rsatish 43%, qurilish materiallari ishlab chiqarish 19%ni tashkil etadi.

2003 yilga nisbatan monopolist korxona va mahsulotlar 1996 yilga nisbatan qancha kamayganini, xizmat ko'rsatish va qurilish bo'yicha monopol mahsulotlar turini hisoblang. U nimadan dalolat beradi? Nima sababdan monopol mahsulotlar xizmat ko'rsatish va qurilish mollari bo'yicha ko'p Buning sababi deb o'ylaysiz?

4. Jadvaldagi raqamlarga diqqat qiling. Keyingi yillar ma'lumotlari bilan to'ldiring. Ular asosida qanday xulosa chiqarish mumkin? Fikringizni izohlang.

Respublikada YaIMda monopoliyalar ulushi %da

	1998	1999	2000	2001
Yalpi ichki mahsulotda monopol mahsulotlar hissasi	25,7	22,9	21,7	20,5
Sanoat mahsulotlari ulushi	14,9	14,3	13,8	14,3

5. Respublikamizda 2004 yil monopol korxona va mahsulotlar soni quyidagicha bo'lgan deylik:

	Korxona soni	Mahsulot soni
1. Non va bulka mahsulotlari	21	43
2. Ko'mir	6	7
3. Oziq-ovqat mahsulotlari	92	35
4. Gaz	5	6
5. Engil sanoat	43	87
6. Mahalliy sanoat	12	17
7. Neft-kimyo sanoati	27	50
8. Mashinasozlik	30	60
9. Qurilish materiallari	71	193
10. Xizmatlar	338	659
11. Boshka tarmoqlar	108	238
Jami	753	1532

Sizning fikringizcha qaysi sohalarni tabiiy monopoliyaga kiritsak, to'g'ri bo'ladi? Unga ko'ra, korxonalar va mahsulotlar bo'yicha tabiiy va sun'iy monopoliyalar hissasini aniklang.

Tabiiy monopoliyalar sun'iy monopoliyalardan qanday farq-lanadi, izohlang. Javobingizni asoslab bering.

6. Quyidagi jadvalda mukammal raqobat sharoitida firmaning faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan.

P	Q	TR	TC	TVC	TFC	ATC	AVC	MC
	100			250ming	150ming			3ming

Bozorda mahsulot birligiga baho 5 ming so'm miqdorida o'rnati-ladi.

1). Jadvaldagi etishmovchi ma'lumotlarni topib, jadvalni to'ldi-ring.
2). Firma foydani maksimallashtirish uchun harakat qiladimi yoki zararni minimallashtirish uchun, aniklang.
3). Firma foydani ko'paytirish, zararni kamaytirish uchun nima qilishi kerak, tushuntiring.
   a) mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish;
   b) mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish;
   v) korxonani yopish,
   g) hech narsani o'zgartirish kerakmas.
4). Aytaylik, firmani yopilish vaziyati vujudga keldi. Bu qan-day baho darajasida yuz beradi?

7. Quyidagilarni diqqat bilan o'qing.
   a) AQShda meditsina va yurispundentsiya bo'yicha xususiy ish ochish uchun hukumat organlaridan litsenziya olish zarur.
   b) O'zbekistonda tabiiy resurslar davlat mulki hisoblanadi. Undan tashqari ulardan juda ko'plarini qayta tiklab bo'lmaydi.
   v) Mualliflik huquqi bo'yicha qonunchilik rivojlangan mamlakat-larda firma odatda o'z mahsulotini patent yorda-mida himoya kiladi, shuningdek undan nusxa ko'chirishni ham faqat o'zi amalga oshiradi yoki uning ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan misollarni tahlil qiling va quyidagi savollarga javob bering:
1). Tarmoqqa kirishga qo'yiladigan to'siqlar deganda nima tushuniladi?
2). To'siqlar, bar'erlar muammosi nimada?
3). Bar'erlarni qanday tasniflash mumkin?

8. Siz katta merosga ega bo'ldingiz va o'z ishingizni ochishchga qaror qildingiz. Siz velosiped ishlab chiqaruvchi zavod qurmokchisiz. Tarmoqqa kirish uchun qanday to'siqlarni engib o'tishingizga to'g'ri keladi:
   a) ishlab chiqarish quvvati yoki masshtab effekti;
   b) moliyaviy to'siqlar;
   v) litsenziya;
   g) hukumat ijro organlari yoki qonun chiqaruvchi aloqalar;
   d) pora berish zaruriyati;
   e) reklama kampaniyasi;

j) faoliyat yuritayotgan boshqa firmalar tomonidan g'irrom raqobat olib borish.

Ko'rsatilgan to'siqlar O'zbekiston uchun ham rivojlangan mamlakatlar: GFR, AQSh, Frantsiya uchun ham umumiymi?

9. Quyidagilarni diqqat bilan o'king. Tushunchalar ichida guruhga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlang va uni ro'yxatdan chiqaring. Sababini izohlang.

Tushunchalar: «O'zbekiston havo yo'llari», «O'zbekiston temir yo'ddari», «Toshshahargazta'minot», Qo'yliq dehqon bozori, «Toshissiqquvvat» ishlab chiqarish birlashmasi, «Suvsoz» tresti, «O'zbekenergo» davlat aktsionerlik kompaniyasi.

T/ N

1. Raqobatli bozorda uzoq muddatli davrda normal foyda nolga teng.
2. Ishlab chiqarishdagi ob'ektiv texnologik jarayonlarni xususiyatlaridan hamda kamyob, erkin tarzda takror ishlab chiqarib bo'lmaydigan tabiiy resurslar, infrastrukturaning jamiyat uchun alohida strategik ahamiyatga ega tarmoqlari tabiiy monopoliyalarga kiradi. Respublikamizda tabiiy monopoliyalar faoliyati «Tabiiy monopoliyalar to'g'risida»gi qonun (1999 y.) asosida tartibga solinadi.
3. Monopoliya raqobatbardosh tarmoqqa nisbatan yuqori samaradorligi boisi yuqori foyda oladi.
4. Talab egri chizig'i monopoliya uchun doimo gorizontal.
5. Mukammal raqobatli firmalar bozorda monopolistik bozorga qaraganda nisbatan ko'prok turli-tuman tovarlar taklif qiladi.
6. Agar oligopolistik bozorda firma mahsulot narxini ko'tarsa yoki tushirsa, mahsulot hajmini ko'paytirsa yoki kamaytirsa u raqobatchi firmalarning foydasi va mahsulot sotish hajmiga ta'sir qiladi.
7. Monopolistik raqobatli bozorda resurslardan samarali foydalanib bo'lmaydi.
8. Oligopoliyalar o'rtasidagi raqobat ko'pincha narx yordamida amalga oshiriladi.
9. Raqobat bozor iqtisodiyotini harakatlantiruvchi kuch.
10. Raqobatni qanday tarzda amalga oshirilishiga ko'ra halol yoki g'irrom raqobatga bo'linadi.
11. Bozor iqtisodiyotining muhim afzalligi uning raqobatga asoslanganligidir.
12. Bozor iqtisodiyotida reklama qilish-qilmaslikning ahamiyati yo'q.

Testlar

1. «Mukammal raqobatdosh firma» tushunchasi bu firma:
   a) o'z raqiblari bilan raqobatning faqat qonuniy metodlarini qo'llashni;
   b) bozor bahosi shakllanishiga ta'sir o'tkazmasligini;
   v) bozorni egallash uchun har qanday metodlarni qo'llashni;
   g) raqobatda o'zi uchun ko'zlagan bahosini o'rnatishga erishishni;
   d) o'z raqiblari bilan halol raqobat kurashi olib borishini anglatadi.

2. Agar firma mukammal raqobatli bozorda faoliyat yuritar ekan, o'z mahsulotini taklifini qisqartirsa, u holda:
   a) mahsulotni bozor bahosini pasayishiga olib keladi;
   b) taklifni kamaytiradi, mahsulot narxini ko'taradi;
   v) mahsulotning bozor bahosini o'sishiga olib keladi;
   g) bozorga hech qanday ta'sir o'tkazmaydi;
   d) taklifni ko'paytiradi, mahsulot narxini pasaytiradi.

3. Quyidagi bozorlardan qaysi birlarini mukammal raqobatga asoslangan bozorga kiritish mumkin?
   a) avtomobil, velosiped bozori;
   b) muzlatkich, televizor bozori;
   v) dehkon bozori, qimmatli qog'ozlar bozori;
   g) axborot, intellektual mulk bozori;
   d) ko'chmas mulk bozori.

4. Tabiiy monopoliyaga ... misol bo'la oladi.
   a) OPEK – xalqaro neft karteli;
   b) Fallabank;
   v) «Sharq» matbaa ishlab chiqarish kontserni;
   g) IBM kompaniyasi;
   d) Toshkent metropoliteni.

5. Aytaylik monopolist 10 birlik tovarini 10000 so'mdan sota oladi. 11- tovarni sotish esa uni bahosini 9950 so'mga tushishiga olib keladi. Bunda me'yoriy daromad sotish hajmini 10 birlikdan 11 birlikkacha o'sishi evaziga
   a) 10000;
   b) 9950;
   v) 9450;
   g) 9400;
   d) 10995 so'mga teng bo'ladi.

6. O'zbekiston iqtisodiyotida ko'pchilik bozor:
   a) mukammal raqobatga asoslanadi;
   b) tartibga solib bo'lmaydigan monopoliya;
   v) tartibga solinadigan monopoliya;
   g) muayyan raqobatga va monopolistik bozorga xos elementlarga xos;

d) tabiiy monopoliyalardan iborat.

7. Oligopoliya – bu
a) bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi raqobatlashuvchi ko'plab firmalar;
b) tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqaruvchi ko'plab raqobatdosh firmalar;
v) bir necha yirik raqobatdosh firmalar;
g) bitta yirik firma;
d) yagona yirik iste'molchi kompaniya.

8. Birinchi bo'lib oligopoliya nazariyasini asoslashga harakat qilgan iqtisodchi – bu
a) Ogyusten Kurno;
b) Edvard Chemberlen;
v) Joan Robinson;
g) Jon Gelbreyt;
d) Alfred Marshall.

9. Mukammal va monopolistik raqobatga asoslangan bozorning umumiy tomoni
a) tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqaradi;
b) bozorda sotuvchi va xaridorlar soni ko'p;
v) har bir firma o'z mahsulotiga talab egri chizig'i gorizontal bo'lgan sharoitga duch keladi;
g) bir turdagi tovarlar ishlab chiqarishadi;
d) har bir firma o'z raqiblarini reaktsiyasiga ko'ra ish tutadi.

10. Oligopolistik bozor monopolistik raqobatli bozor bilan quyidagi tomonlari bilan o'xshash
a) tarmoqqa kirish uchun to'siklar yo'qligi;
b) firmalar uchun strategik yo'nalish xos;
v) uncha ko'p bo'lmagan sotuvchilar ish yuritishadi;
g) firmalar bozorda hukmron rol o'ynaydi;
d) firmalar tarmoqdan to'siqlarsiz chiqib ketadi

11. Kartel bitimini buzish uchun urinish shuncha kam bo'ladi, qachonki:
a) bitimni buzilishi va uni aniqlash o'rtasida uzoq vaqt o'tishi;
b) bitimga rioya qilinmagani sezilmaslik ehtimoli yuqori bo'lsa;
v) diskontlash koeffitsienti yuqori bo'lsa;
g) kartel a'zolari o'rtasida xarajatlar teng bo'lsa;
d) kartel bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarishni tartibga solganda.

12. Tarmoqda 40ta firma bo'lib, ulardan hech biriga umumiy ishlab chiqarish hajmining 3%dan ortig'i to'g'ri kelmaydi. Mahsulot bozorda tabaqalashgan hisoblanadi. Bunday tarmoq:
a) monopolistik raqobatga;
b) sof monopoliyaga;
v) mukammal raqobatga;
g) oligopoliyaga;
d) monopsoniyaga misol bo'la oladi.

13. Oligopoliyani boshqa bozor modellariga nisbatan tahlil qilish qiyin, sababi ...

a) firmalar soni shuncha ko'pki, ularni nima qilishini aniqlik bilan aytib bo'lmaydi;
b) me'yoriy xarajat va me'yoriy tushum egri chiziqlari oligopoliyalar uchun muvozanatli narxni va miqdorni aniqlashda hech qanday rol o'ynamaydi;
v) firmalar faoliyati bir-biriga bog'liq bo'lmay, har biri haqida ma'lumot to'plash qiyin;
g) boshqa bozor modelidagi firmalardan farqli ravishda oligopolistik bozorda firmalar foydani maksimallashtirishga intila di deb, faraz qila olmaymiz;
d) firmalar o'rtasida sezilarli darajada bog'lanish mavjud hamda oligopolistik bozorda firmani bir qarorga kelishi boshqa bozorlarga nisbatan noaniqroq

Tarqatma materiallardan namunalar

1- **tarqatma material**

Monopolistik ittifoqlarning qay tarzda vujudga kelishini quyidagi chizma orqali ko'rish mumkin.

Monopololistik ittifoqlarning vujudga kelishi



Siz monopoliyalarni tashkil topishi chizmada ko'rsatilgan jarayon bo'yicha yuz bergan, degan fikrga qo'shilasizmi? Siz yana nimalarni qo'shgan bo'lar edingiz?

Bozor tarkibining farqlanuvchi jihatlari xarakteristikasi.

1) firmalar soni;
2) mahsulot tipi;
3) tarmoqqa kirish naqadar osonligi;
4) narx o'rnatish imkoniyati;
5) rakobat usullari: narx yordamida yoki narxdan foydalanmay.

Ro'yxatni davom ettira olasizmi?

Javoblar:
Asosiy tayanch tushunchalar:
1v); 2a); 3g); 4b); 5d); 6j); 7e); 8z); 9yo); 10i);

Masala va mashqlar:.
1. Taklifning o'sishi, bahoni tushishi kuzatiladi.
2. 70 mln. so'm.
3. Monopol korxonalar 1996 yilga nisbatan 2,5 marta, mahsulotlar 17 marta kamaygan. Bu albatta ijobiy holat. Xizmat ko'rsatishda 106 turdagi xizmat, qurilish materiallarining 47 turi monopol iahsulot.
5. Agarda ko'mir, neft-kimyo sanoati, elektr, gaz, suv ta'minoti xizmatlarini tabiiy monopoliyalarga kiritsak, korxonalar sonida ularning ulushi 50%ni, mahsulotlari 47%ni tashkil etadi.
6.
1) Firma faoliyatining mikroiqtisodiy ko'rsatkichlari (ming so'm hisobida)

P	Q	TR	TC	TVC	TFC	ATC	AVC	MC
5,0	100	500	400	250	150	4	2,5	6

2). Foydani maksimallashtirish MR (R)>MS; R>ATS;
3). Optimal foyda olish uchun mahsulot ishlab chiqarishni shu darajaga etkazish kerakki, R=MR=MS bo'lishi, lekin ATS bahodan past bo'lishi lozim.
4). Firma R<AVC, ya'ni bir dona mahsulotni bahosi 2,5 ming so'mdan kam bo'lsa.
7. 1) «Tarmoqqa kirish to'siqlari» deb, shu tarmoqda ilgaridan faoliyat yuritayotgan firmalar bilan raqobatlashadigan yangi firmalarni shu tarmoqda faoliyat yuritishini qiyinlashtiradigan shart-sharoitlar tushuniladi.
2) To'siqlarni engish muammosi ularni bartaraf qilish mumkinligi va mumkin emasligida ifodalanadi.
3) Bunday to'siqlar:
*siyosiy;
*tashkiliy;

*tabiiy;
*moddiy;
*vaqtinchalik va hokazo bo'lishi mumkin.

8. Ko'rsatilganlardan: a, b, v, e, j – rivojlangan mamlakatlarga ham xos. Shu bilan birga «g» punkti ham katta rol o'ynaydi. O'zbekistonda hozirgi paytda barcha punktlari ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ularga e'tibor qaratilmoqda.

9. Guruhga taalluqli bo'lmagani to'rtinchisi, qolganlari tabiiy monopoliyalar.

T/N

1N; 2T; 3N; 4N; 5N; 6T; 7T; 8N; 9T; 10T; 11T; 12N;

Testlar

1b); 2g); 3v); 4d); 5v); 6g); 7v); 8a; 9b); 10b); 11v); 12a); 13d);

15-mavzu. Raqobat va bozor narxlarining shakllanishi

Asosiy tushunchalar

1. Narx
2. Narx mexanizmi
3. Xarajatlar mexanizmi
4. Gerfindal indeksi
5. Narx shakllanishining bozor mexanizmi
6. Narx turlari
7. Lerner indeksi
8. Narx bo'yicha lider
9. Narx urushi
10. Yashirin kelishish

a) Narx va narxlarni tashkil qilish, ya'ni tovar, xizmatlarga to'lanadigan pul mikdorini belgilanishini aniqlanishining qoidalari, usullarini o'z ichiga oladi;

b) Bozorda firmaning ulushini baholash imkonini beruvchi indeks;

v) Tovarlar va xizmatlarning nafliligini baholash vositasi bo'lib, unga to'lanadigan pul miqdorini ifodalaydi.

g) Ishlab chiqarish (sotish) uchun qilingan xarajatlarni qoplash va ma'lum miqdorda foyda olishni ta'minlaydigan tarzda narx belgilash;

d) Bozor va uning aniq shaklidan qat'iy nazar talab va taklifning nisbati va raqobat asosida, ya'ni bozordagi vaziyatga ko'ra narxning shakllanishi;

e) Monopoliya hukmronligi darajasini ko'rsatuvchi iqtisodiy ko'rsatkich;

yo) Raqobatdosh firmalarning oligopolistik bozorda bosqichma-bosqich, sekinlik bilan narxni pasaytirishi;

j) Bozor iqtisodiyoti sharoitida bir-birini taqozo etuvchi turli maqsadlarda qo'llanuvchi, turli funktsiya va vazifalarni bajaruvchi narxlar majmuiga turli jihatdan yondoshib, guruhlarga bo'linishi;

z) Qachonki firmalar ochiq bitim tuzmay, yashirin narx va maxhsulot ishlab chiqarish hajmi bo'yicha til biriktirish vaziyati;

i) Oligopolistik bozordagi etakchi firma, kaysiki uning narxni ko'tarishi yoki tushirishiga qarab, boshqalar unga ergashadi.

Masala va mashqlar

1. Bozorda ikkita Appolon va Mushtariy firmalari mahsulotning asosiy qismini ishlab chiqarishadi. Mahsulotga narx belgilashga ko'ra mumkin bo'lgan natijalar matritsasi quyidagicha:

		«Mushtariy» firmasi	
		yuqori baho	past baho
«Appolon» firmasi	yukori baho	~~5000~~ / ~~5000~~	~~5000~~ / **1000**
	past baqo	~~5000~~ / **5000**	**2500** / **2500**

Oligopoliyalarning baho strategiyalari natijalari varianti matritsasi (ming so'm)

Siz aytaylik, A firma uchun qaror qabul qilishingiz kerak:

a) sizni ustun darajadagi qaroringiz kanday bo'ladi?

b) har ikki firma uchun qaysi bir qaror ma'qul?

v) aytaylik, har ikki firma yuqori narx belgilash uchun «jentelmenlik» bitimi tuzdi. Bunday bitimga ishonish mumkinmi? Raqiblar olgan majburiyat bajarilishi uchun nima qilishi kerak?

2. Quyida firmalar o'rtasida qabul qilgan qaroriga muvofiq to'lov matritsasi berilgan:

Firmalar qarori bo'yicha to'lov matritsasi

	«Kunduz» firmasi narxni 1000 so'mga tushiradi		«Kunduz» firmasi narxni 1000 so'mga tushirmaydi	
«Yulduz» firmasi narxni 1000 so'mga tushiradi	- 5000	- 5000	- 10000	+15000
«Yulduz» firmasi narxni 1000 so'mga tushirmaydi	+15000	- 10000		

Unda har bir firmaning foydasi qabul qilgan qaroriga qarab o'zgarishi ko'rsatilgan. Agar «Kunduz» firmasi mahsulotining bahosini o'zgartirmasa, «Yulduz» firmasi esa 1000 so'mga tushirsa, u holda «Kunduz»ning foydasi 10000 so'mga kamayadi. «Yulduz»ning foydasi 15000 so'mga ko'payadi. Agar ikkalasi

ham bozorni egallash maqsadida bir-biriga baho urushi qilib, narxni tushirsa 5000 so'mdan zarar ko'rishadi.

Bo'sh kataklarni to'ldiring. Sizningcha eng ma'quli firmalarning qanday qarorga kelishi bo'ladi. Pareto echimi va Nesh echimi qanday qaror qabul qilish bo'ladi?

3. Firma monopolist mahsulot ishlab chikaradi. Uning umumiy xarajatlari TS=10+8Q; Bu erda Q – mahsulot hajmi.

Bahoga nisbatan talab elastikligi E=7ga teng bo'lganda firma o'z mahsulotiga qanday baho belgilashi mumkin?

4. Firma NODIR tovarini ishlab chiqaradi. Yalpi daromad(tushum) TR, me'yoriy daromad MR, me'yoriy xarajatlar MS quyidagi bog'liq ko'rsatkichlarda ifodalangan

$TR=2600Q-7Q^2$

$MR=350-13Q$

$MC=35-2Q$

Q- NODIR tovarini ishlab chiqarish hajmi.

Shchu tovarni qancha miqdorda ishlab chiqarish va qancha miqdorda sotish mumkin? Agar:

a) firma monopoliya sharoitida faoliyat yuritsa;

b) firma erkin raqobat sharoitida faoliyat yuritsa;

5. Hozirgi paytda «Katerpillar» firmasi dunyoda o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulotlar turi bo'yicha ulushi 75%ga teng. Firma «Katerpillar» traktorini 24 ming dollarga baholaydi. Raqobatdosh firmaning xuddi shunday traktori 20 ming dollar turadi. Potentsial xaridor dilerdan nima sababdan u traktor uchun 4 ming dollar ortiqcha to'lashi kerakligini so'raganda, u shunday javob beradi:

- 20 ming dollar traktorning bahosi, raqib firmaning xuddi shunday traktori narxi bilan teng. 3 ming dollar - traktorning yuqori darajada ishonchliligi uchun mukofotli ustama; 2 ming dollar – yuqori darajada servis xizmatlari uchun mukofotli ustama; 1 ming dollar – detallari va ehtiyot, butlovchi kismlariga nisbatan uzoqrok muddatga kafolat qiymati. Ana endi bundan kelib chiqib traktor-ning bahosini hisoblang deydi. Xaridor xayron bo'ladi, oxir oqibat traktorni sotib olishga qaror qiladi.

Xaridor nimaga hayron bo'ladi va nima sababdan u qimmat bo'lsa ham traktorni sotib oladi?

6. Agar **iqtisodiy** adabiyotlarini o'qisak narxlar o'sishi bilan sotishga borgan sari ko'prok tovarlar chiqadi. Unda nima sababdan 1992 yilga kelib narxlarni erkinlashtirilishi natijasida ularni ortishiga qaramay tovarlar ko'payib ketmadi. Bunga sabab nima?

Boshqa sharoitlar o'zgarmagani xolda narxni o'sishi taklifni ortishiga olib kelishi ya'ni taklif qonuni o'sha paytda amal qilma-ganmi?

7. 1985 yil jahon bozorida 1 tonna bug'doy 185 dollar edi. AKSh 1 mln tonna bugdoyni Misrga 155 dollardan sotib, Misr bozorlarini egalladi. Ilgari bu erda Evropa iqtisodiy uyushmasi EES hukmronlik qilar edi. AQSh bunday savdodan qancha zarar ko'rdi? Bu qanday siyosat? U qanday maqsadda qo'llaniladi?

8. Quyidagi jadval ma'lumotlariga e'tibor bering.

	2000 y.	**2001 y.**	**2002 y.**	**2003 y.**
Liverpul birjasida paxta tolasining o'rtacha narxi t/dollar	1389	1058	1014	1410
Dollarning so'mga nisabatan o'rtacha kursi	140	272	506	975
Paxta tolasining o'rtacha narxi t/so'm	194460	287776	513084	1374750
Paxta xom ashyosining o'rtacha sotish bahosi (davlat xarid narxlari) t/so'm	56000	86000	137000	209000
Paxta tolasini (paxta xom ashyosidan 30% tola chiqishni hisobga olgan holda) davlat xarid narxlari bo'yicha bahosi t/so'm	184800	283000	452100	698700
Jahon narxlaridan farqi t/so'm	9660	4000	60484	685050

Jadval, muallif tomonidan qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, birja ma'lumotlari asosida abstraktsiya usulini qo'llab hisoblangan.

Jadvalda qaysi narxlar jahon narxlari, qaysi birlari davlat xarid narxlari, milliy narxlar ko'rsating. Paxta tolasiga jahon narxlaridan paxta xom ashyosi(30% tola olinadi desak) xarid narxlari farqini, 2000 yilga nisbatan narxlar qanday o'zgarganini hisoblang. Narxlar haqida o'z fikringizni bayon qiling. Jadvalni keyingi yil ma'lumotlari bilan to'ldira olasizmi?.

9. «Sof» monopolist o'z tovari narxini cheksiz oshirishi mumkin, chunki u tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi. Uning tovariga talab mutloq
noelastik, uning egri chizig'i vertikal shaklda. Siz bu fikrga qo'shilasizmi?

10. Narx diskriminatsiyasini amalga oshirish mumkinmi?

a) «Motorola» marketda olma sotishda;

b) Iqtisodiyot nazariyasi o'quv qo'llanmasini yuqori va pastki kurs talabalariga sotishda;

v) Ayollarning bir xil sifatli ko'ylagini supermarketda va «Ippodrom» bozorida sotish.

11. Quyidagilarni diqqat bilan o'qing. Tushunchalar ichida guruhga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlang va uni ro'yxatdan chiqaring. Sababini izohlang.

Tushunchalar: o'lchov, hisob-kitob qilish, iqtisodiyotni tartibga solish, daromad va resurslarni taqsimlash, demping narxlari, ijtimoiy himoya qilish, axborot berish.

T/N

1. Sotuvchilar o'z tovarlarini bozorda alohida guruhlarga bo'lib sotishni yaxshi ko'rishadi. Masalan, kartoshka sotayotgan sotuvchi ularni, yirik, o'rtacha, kichik guruhlarga bo'lib, muvofik ravishda xar xil narxlar: yirik, silliq kartoshkalarning kilosiga 450 so'm, o'rtachalariga 320 so'm, maydalariga 190 sum narx belgilashadi. Buni narx diskriminatsiyasiga misol qilib ko'rsatsa bo'ladi
2. Agar tovarning bozor bahosi doimiy ekan, u holda mahsulot ishlab chiqarish hajmini ortishi firmaning foydasi miqdoriga ta'sir qilmaydi.
3. Agar mahsulot narxi o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlardan past bo'lsa, firma ishlab chiqarishni nolga qadar qisqartirish orqali foydasini maksimallashtiradi.
3. Raqobatlashuvchi firma uchun mahsulot bahosi me'yoriy daromadga teng
4. Har qanday narx diskriminatsiyasi noqonuniy
5. Jamiyatning tabiiy monopoliyalar hukmronligidan sof yo'qotishlar barham topadi, qachonki tartibga solinuvchi baho ma'lum talab darajasida o'rtacha ishlab chiqarish xarajatlariga teng qilib belgilansa
6. Marshallning fikricha oldi-sotdi qilgunga qadar tovarning go'yoki ikki narxi mavjud bo'ladi
7. Oligopoliya sharoitida raqobat ustun darajada narxdan foydalanmay (narxsiz) olib boriladi
8. Yakka monopolist ham o'zi hohlagancha tovariga narx qo'ya olmaydi
9. Oligopoliya sharoitida raqobat asosan narx yordamida olib boriladi
10. Monopsonist uchun taklif narxi ikki xil: a) kamayib boruvchi, b) o'sib boruvchi bo'lishi mumkin
11. Xarajatlarda uncha ko'p bo'lmagan yoki o'rtacha o'zgarishlarda nima sababdan oligopolistik bahoni va ishlab chiqarish hajmini o'zgartirmaslik zarurligini «siniq» egri chizig'i modeli tushuntirib beradi.

Testlar

1. Qisqa muddatli davrda foydasini maksimallashtirish yoki zararni minimallashtiruvchi raqobatlashuvchi firma ishlab chiqarishni to'xtatadi, agar:
   a) mahsulot bahosi minimal o'rtacha xarajatlardan past bo'lsa;
   b) o'rtacha doimiy xarajatlar mahsulot bahosidan yuqori bo'lsa;
   v) mahsulot bahosi o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar minimumidan past bo'lsa;
   g) mahsulot bahosi me'yoriy xarajatlardan past bo'lsa;
   d) yalpi tushum firmaning umumiy xarajatlarini qoplamaydi.

2. Agar mahsulot bahosi uni ishlab chiqarish uchun o'rtacha xarajatlarni qoplay olmasa, u holda firma:
   a) ishlab chiqarishni iloji boricha tezda to'xtatishi kerak;

b) tovar ishlab chiqarishni davom ettirish kerak, qachonki R=MS, agar R>AVC darajasida bo'lsa;
v) yangi texnologiya tanlab joriy qilishi kerak;
g) bilvosita xarajatlarni qisqartirishi kerak;
d) baho doimiy xarajatlarni barchasini qoplar ekan, ishlab chiqarishni davom ettirish kerak.

3. Narx diskriminatsiyasi bu ...
a) bir mahsulotni turli xaridorlarga har xil bahoda sotish;
b) millati yoki jinsiga qarab mehnat xaqi to'lashdagi farq;
v) iste'mol tovarlariga baland narx belgilash orqali mehnat-kashlarni ekspluatatsiya qilish;
g) sifati yuqori bo'lgan tovarga yuqoriroq narx o'rnatilishi;
d) tovarlarni sifatiga ko'ra guruhlarga ajratib turlicha narx belgilash.

4. Monopolistda me'yoriy xarajatlar odatda mahsulot bahosidan past bo'ladi, sababi:
a) narx me'yoriy daromaddan past;
b) narx me'yoriy daromaddan yuqori;
v) me'yoriy xarajatlar o'rtacha xarajatlardan past;
g) me'yoriy xarajatlar o'rtacha xarajatlardan yuqori;
d) o'rtacha xarajatlar me'yoriy xarajatlardan yuqori.

5. Quyida sanab o'tilgan mahsulotlardan qaysi biri hech qachon kartel bitimi doirasida ishlab chiqarilmagan?
a) neft;
b) banan;
v) shakar;
g) bug'doy;
d) kofe.

6. Nomukammal raqobat sharoitida qachon maksimal foyda olish mumkin?
a) MR=AS
b) MS=TS
v) TS=R
g) MS=R
d) MS=MR

7. Mukammal raqobat sharoitida firmalar xohlagancha bozorda tovar sotishi mumkin, ular
a) tovar narxini sotilgan miqdorga qarab ko'taradi;
b) tovar narxini pasaytiradi;
v) narxga ta'sir o'tkaza olmaydi;
g) narxga uzoq muddatli davrda ta'sir ko'rsata oladi;
d) taklif egri chizig'i vertikal bo'ladi.

8. O’zbekistonda narxlarni erkinlashtirish
   a) uch bosqichda: (1992 yil boshidan, 1993 yil, 1994 yil oktyabr-noyabr);
   b) ikki bosqichda (1992-1993, 1993-1994 yillarda);
   v) to’rt bosqichda (1992-1993, 1993-1994, 1994-1995);
   g) besh bosqichda (1991-1992, 1992-1993, 1993-1994, 1994-1995);
   d) ikki bosqichda (1992-1995, 1995 dan hozirgacha) amalga oshirildi.

Tarqatma materiallardan namunalar

1-tarqatma material



Bo’sh katakni to’ldiring. Narxning funktsiyalarini izohlab bering. Narx sanab o’tilgan funktsiyalardan tashqari qanday vazifalarni bajaradi? Ko’rsating.

2-tarqatma material

Birgalikda jinoyat sodir qilgan ikki hibsga olinganlar quyidagi to’rt variantdan birini tanlashdan boshqa iloji yo’q.

«Hibsga olinganlar» dilemmasi matritsasi

	2-si bo’yniga olmaydi		2-si bo’yniga oladi	
1-si bo’yniga olmaydi	1 variant		2 variant	
	Birinchisi qattiq jazodan qutiladi	Ikkinchisi qattiq jazodan qutiladi	1-si umrbod qamoq jazosi oladi	Ikkinchisi qo’yib yuboriladi
1-si bo’yniga oladi	3 variant		4 variant	
	Birinchisi qo’yib yuboriladi (ozodlikka chiqadi)	Ikkinchisi umrbod qamoq jazosi oladi	Birinchisi uzoq muddatli qamoq jazosi oladi	Ikkinchisi uzoq muddatli qamoq jazosi oladi

Bu holatda eng ehtimolligi yuqori to'rtinchi variant – ikkala jinoyatchi ham uzoq muddatli qamoq jazosi oladi. Bu ularni egoistik motividan kelib chiqadi. Lekin har ikkisi uchun eng manfaatiga mos keladigani 1-variant.

Firmalar oligopolistik raqobat sharoitida ana shu dilemmada[4] ko'rsatilgan holatga juda ko'p marta duch kelishadi. Ular bozorni katta qismini egallash uchun raqobatda raqiblari bilan agressiv kurashishlari kerakmi yoki aksincha, hamkorlik qilib raqobatlashish, hatto yashirin kelishish orqali, masalan narxni oshirish kerakmi yoki yo'qligi borasida, faoliyat yuritishlari kerakmi?

Iqtisodiyotda shunday vaziyat uchun teng kuchli ikki xil echim mavjud. Birinchisi Pareto echimi bo'yicha qaror qabul qilish (har ikkisini ham qo'yib yuboriladi). Har ikkisi uchun ham eng ma'qul qarorga kelinadi. Bu bozor qatnashchilarining birontasi boshqa-lariga zarar etkazmay ahvolini yaxshilay olmaydigan vaziyatga xos.

Ikkinchisi, Nesh echimi bo'yicha qaror qabul qilish (har ikkisi ham bo'yniga oladi). U raqiblardan hech qaysisini o'zicha qarorini o'zgartirishi bilan yutug'ini ko'paytira olmaydigan vaziyatga xos.

3-tarqatma material

Davlat baho ustidan nazorat o'rnatsa:



Aytaylik davlat narxni mu-vozanat narxi R_o dan past R_1 darajasida belgilasin, u xolda takchillik vujudga keladi (Q_2-Q_1). Sababi narxni tushirilishi natijasida talab ortadi, lekin ishlab chiqaruvchilar mah-sulot hajmini qisqartirisha-di.

Aksincha, haddan tashqari yuqori baho, aytaylik R_3 dara-jasida belgilasachi?

Javoblar:

Asosiy tayanch tushunchalar:

1v); 2a); 3g); 4b); 5d); 6j); 7e); 8i); 9yo); 10z);

Masala va mashqlar:

1. a) Appolon uchun past narxni ushlab turish ma'qul, chunki u holda 9 mln so'm foyda olish mumkin. Lekin bunda aniq ishonch bo'lishi kerakki, Mushtariy firmasi narxni tushirmaydi.

[4] Dilemma (yunon. dis – ikki va lemma – taxminan) – bir-biriga zid bo'lgan ikki imkoniyatdan birini tanlab olishga majbur bo'lish.

b) Har ikki firma uchun yuqori maksimal foyda olish uchun eng yuqori baho belgilash zarur. U holda 5 mln dan foyda olishadi.

v) Raqiblar o'rtasida bitimni buzish xavfi kuchli, chunki olinadigan foyda yuqori. Shuning uchun mumkin bo'lgan oqibat-larni ko'rsatib maxsus shartnoma tuzish.

2. Agar har ikki firma ham narxni tushirish yo'lidan borsa, ularni foydasi kamayib ketadi. Agar biri narxni tushirib, ikkin-chisi tushirmasa u holda birini foydasi 10000 so'mga kamayib, ikkinchisiniki 15000 so'mga ko'payadi. Demak, bunda «Kunduz»ning narxni tushirishi yoki ko'tarishiga javoban «Yulduz» ham bir qarorga kelish kerak.

Bu vaziyatda eng ma'quli har ikki firma xam narxni aslicha qoldirishi. Bu ularning foydasini o'zgartirmaydi, lekin har bir firma alohida narxni tushirib, oladigan foydasini kamayishini oldini oladi. Bu echim Pareto echimi bo'ladi.

Agar bir firma narxni tushirsa, ikkinchisi tushirmasa bozordan ayrilib qolish mumkin yoki aksincha bir firma narxni ko'tarsa, ikkinchisi ko'tarmasa foydasi kamayib, ahvoli tanglashishi mumkin. Shuning uchun hech qaysi firma o'zicha harakat qila olmaydi, chunki ikkinchi firma «qo'l qovushtirib» o'tirmaydi, muvofiq ravishda qaror qabul qiladi. Nesh echimi bo'yicha masalamizda «Kunduz» narxni tushirsa «Yulduz» ham tushirishi, aksincha ko'tarsa, ko'targani ma'qul.

3. Masalani echish Lerner ko'rsatkichi

$M=(R_m-MS)/ R_m=1/ ed$, undan $R_m=MS\cdot[ed/ (ed-1)]$

$MS=(TC)'=(10+18Q)=18$

$R_m=18[7:(7-1)]=21$

4. a) Monopoliya sharoitida monopolist maksimum foyda MR=MS nuqtasida

$350-13Q=35+2Q$

$15Q=315:Q=21$dona

$TR=QR=Q(2600-7Q)$; $R=2600-7Q$

$R_m=2600-7 \times 21=2459$so'm

b) erkin raqobat sharoitida

R=MS yoki $2600-7=35+2Q$; Q=285 dona

$R_{on}=605$so'm

5. Xaridor hisoblasa traktorning narxi 28 ming dollar. Ular 4 ming dollar skidkani to'lash emas, o'zlari 4 ming dollar skidka olishayapti ekan.

Xaridor ishonadiki, traktorni ekspluatatsiya xarajatlari past bo'lib, uzoq muddat yaxshi xizmat qiladi. Bu erda narx tovarning xaridor his qiladigan qadr-qimmati asosida belgilanayapti.

6. Qonun amal qilgan, lekin taklif shu muddat uchun noelastik bo'lib, talab bilan narx orqali muvozanatga keltirilgan.

7. 30 mln dollar zarar ko'rgan. 185 dollar - jahon bozoridagi narxlar, AQSh sotgan 155 dollar esa demping narxlari. U bozorni egallash maqsadida qo'llaniladi.

8. 2000y 2001y 2000y 2003y narxlar farqi, so'm;

9660	4000	60484	685050

Paxta tolasining o’rtacha xarid narxi 2000-2003 yillar davomi-da muvofiq ravishda ko’yidagicha o’zgargan, %da: 100, 147, 264, 706;

Paxta xom ashyosining o’rtacha sotish bahosi, %da 100, 153, 244, 378;

9. Real hayotda mutloq noelastik talab kam uchratiladi. Sof monopolist ham narx siyosati yuritishda cheklanadi. Bu cheklanish eng avvalo aholining to’lov qobiliyati va ularni shu tovarning o’rniga boshqa tovarni sotib olishlari mumkinligi bilan bog’liq.

10. Narx diskriminatsiyasini amalga oshirish mumkin – «v» vaziyatda.

11. Guruhga taalluqli bo’lmagan tushuncha: demping narxlari bo’lib, u narx turlariga kiradi, qolganlari esa narx funktsiya-lari.

T/N

1N; 2N; 3T; 4N; 5N; 6T; 7T; 8T; 9N; 10T; 11T;

Testlar

1v); 2b); 3a); 4b); 5g); 6d); 7v); 8a);